TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

SEMANTIKANING DOLZARB MUAMMOLARI

moduli uchun

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Barcha yo‘nalishlar uchun

Toshkent – 2023

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **Y. Odilov** – filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar: **D.Lutfullayeva** – filologiya fanlari doktori, professor

S.Normamatov – filologiya fanlari doktori

E.Ushenmez – filologiya fanlari doktori, professor. Turkiya Istanbul universiteti

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2022-yil 29-dekabrdagi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

T/r	Bo‘limlar	Sahifa
I.	ISHCHI O‘QUV DASTUR	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	13
III.	NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	26
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	81
V.	KEYSLAR BANKI	140
VI.	GLOSSARIY	142
VII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	145
VIII.	TAQRIZ	150

I. ISHCHI O‘QUV DASTUR

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2019 yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli, 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 40-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili,mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini

tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish,ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda, dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

“Semantikaning dolzarb muammolari” deb nomlangan mazkur fan doirasida zamonaviy o‘zbek tilshunosligida endigina o‘rganilayotgan lisoniy ziddiyatlarning markaziy masalasi sifatida, asosan, antonimiya, ularning o‘rganish obyekti, tayanch tushunchalari, dolzarb muammolari haqida ma’lumot beriladi. Bu fan pedagoglarni zamonaviy tilshunoslik qo‘lga kiritayotgan eng so‘nggi yutuqlar va kamchiliklari bilan tanishtiradi, ularni til hodisalarini inson omili bilan bog‘lab o‘rganishga o‘rgatadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Semantikaning dolzarb muammolari, uning ziddiyatdagi tilning barcha sathlari va birliklariga aloqadorligi, ya’ni tilning har bir sathida o‘ziga xos qarama-qarshilik munosabati mavjudligi va bu borada amalga oshirilgan ishlarning aksariyati leksik sath birliklari bilan namoyon bo‘ladigan zidlikka bag‘ishlanganligi va lisoniy ziddiyatning markaziy masalasi sifatida, asosan, antonimiya kabi masalalar ochib beriladi. O‘quv fanining asosiy maqsadi tinglovchilarga ayni shu masalalar bo‘yicha nazariy ma’lumot berish va ularni til hodisalarini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida tadqiq etishga o‘rgatishdan iborat.

O‘quv fanida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

– tinglovchilarga o‘zbek tilshunosligida lisoniy ziddiyat masalasi antonimik va antisemik birliklarning yuzaga kelishi, o‘rganish obyekti, asosiy tushunchalari, yo‘nalishlari haqida ma’lumot berish;

– til umumiy rivojining, xususan, ma’no taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchlaridan eng qudratlisi dialektik ziddiyat, qarama-qarshiliklarini tahlil qilish;

– ziddiyat, qarama-qarshilik bilan bir qatorda til va nutq birliklarida xilma-xillik, murakkablik, ko‘p talqinlilik kabi ma’noviy siljishlar, me’yordan chekinishlar, anormal jarayonlar ham o‘rni bilan voqelanadiki, ular ham til taraqqiyoti uchun xizmat qilishini tahlil qilish;

– tinglovchilarni o‘zbek tilshunosligida lisoniy ziddiyat masalasi antonimik va antisemik birliklar doirasida o‘rganilgan masalalarni tahlil qilishga o‘rgatish;

– tinglovchilarni so‘z semantik strukturasiga xos bu jihat – qorishiq zid ma’nolilik ko‘plab tillar qatori turkiy tillarga ham xosligi va ko‘plab so‘zlar semantik strukturasida nafaqat turli xil, balki zid ma’nolarining dolzarb muammolari bilan tanishtirish;

– tinglovchilarda o‘zbek tilshunosligida lisoniy ziddiyatlarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish;

– tinglovchilarga o‘zbek tilshunosligida lisoniy ziddiyat masalasi antonimik va antisemik birliklarning yuzaga kelishi haqida ma’lumot berish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va layoqatlariga qo‘yiladigan talablar

“Semantikaning dolzarb muammolari” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **tinglovchi:**

– til va tafakkur munosabatini;

– etnatiosemiya – lisoniy ziddiyatning tipik ko‘rinishi va uning yuziga kelish omillari;

- o‘zbek tilida leksik etnantisemiya, etnantiosimant, enantionim, kononim, psevdoantonim, omoantonimlarning tuzilishi va uning o‘ziga xosliklarini;
- tilshunoslikda lisoniy ziddiyat shakllanishi va mohiyati; lisoniy ziddiyatning asosiy tushunchalari, tahlil metodlari; lisoniy ziddiyatda olib borilayotgan tadqiqotlar; semasiologiya tilshunoslikning dolzarb muammolarini ***bilishi*** kerak;
- o‘zbek tilida leksik enantiosemiyaning turlari, tushunchani qarama-qarshi tomondan atash va baholash;
- o‘zbek tilida leksik enantiosemiyaning nutqda namoyon bo‘lishining o‘ziga xosliklarini farqlay olish;
- enantiosemiyaning antifrazis, ironiya, evfemiya, disfemiyadan farqlay olish;
- matnni lisoniy ziddiyat asosida tahlil qilish; enantiosemiyani ayni rakursda tadqiq etish orqali uning lingvokognitiv, lingvokulturolik, etnolingvistik, sotsiolingvistik kabi omillar bilan bog‘liq jihatlari hamda ilmiy tahlilda zamonaviy metodologiyani qo‘llay bilish ***ko‘nikmalari***ga ega bo‘lishi kerak;
- o‘zbek tilida leksik enantiosemiyaning turlari, tushunchani qarama-qarshi tomondan baholay olish;
- matn yaratish va uni idrok etish qonuniyatlarini ilmiy bilish; matnni leksik sathning sinonimik, omonimik til birliklaridagi simmetriyasizlik polisemiyaning maxsus turi bo‘lgan enantiosemiyada ko‘rinishi va u lisoniy asimmetriyaning tipik ko‘rinishi bo‘la olishini tahlil qilish ***malakalarini*** egallashi zarur.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Semantikaning dolzarb muammolari” amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlar hamda mustaqil ta’lim shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;

o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Semantikaning dolzarb muammolari” moduli o‘quv rejasidagi pedagogik kvalimetriya, kompyuter lingvistikasi, filologik tadqiqotlarda tizimli tahlil, o‘zbek tilshunosligining nazariy-metodologik muammolari, til tizimida antropotsentrik tadqiq etish tamoyillari, assotsiativ tilshunoslik bilan bog‘liqlikda va uzviylikda o‘qitiladi.

Modulning andragogik ta’limdagi o‘rni

“Semantikaning dolzarb muammolari” modulini o‘zlashtirish orqali tinglovchilar zamonaviy tilshunoslikning eng so‘nggi yutuqlari va yangi yo‘nalishlaridan xabardor bo‘ladilar, jahon tilshunosligida til hodisalarini yangicha yondashuv asosida tadqiq etish borasida olib borilayotgan ilg‘or tajribalar bilan tanishadilar, til birliklarini inson omili bilan bog‘liq holda tahlil qilishga doir kasbiy layoqatga ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Jumladan:	
			Nazariy	Amaliy
1.	Til va tafakkur. Tafakkurning milliyligi. Tilda ziddiyatning ifodalanishi. Lisoniy ziddiyat va milliy tillar.	2	2	

2.	Tilningi idioetnik tabiati va enantiosemik ma’nolarning paydo bo‘lishi. Enantiosemiya –universal lingvistik hodisa. Enantiosemiyaning leksik maqomi.	2	2	
3.	Til sathlari va ularning lisoniy ziddiyatga munosabati. Ziddiyatning nutqiy namoyon bo‘lishi	2		2
4.	O‘zbek tilida leksik enantiosemiyaning turlari, tushunchani qarama-qarshi tomondan atash va baholash. Zid ma’nolilikka sinxronik va diaxronik yondashuv	2		2
5.	Tilda milliy-madaniy konnotatsiyaning ak setishi. O‘zbek tilida frazeologik enantiosemiyaning turlari	2		2
6.	Til rivojini ta’minlovchi omillar. Tillar aro ta’sirlashuv. Qarindosh va noqarindosh tillarda enantiosemiya Tillararo enantiosemiyani tavsiflovchi terminlarga sharh.	2		2
	Jami:	**12**	**4**	**8**

NAZARIY MASHG‘ULOT MAVZULARI

1-mavzu. Til va tafakkur. Tafakkurning milliyligi. Tilda ziddiyatning ifodalanishi. Lisoniy ziddiyat va milliy tillar. Til va tafakkur munosabati. Tafakkurning milliyligi. Tilda ziddiyatning ifodalanishi. Lisoniy ziddiyat va milliy tillar. Til va tafakkur ta’sirlashuvi. Til va tafakkurning milliyligi. Ziddiyat kategoriyasining mohiyati. Ziddiyat kategoriyasining til birliklari orqali namoyon bo‘lishi. Enantiosemiya va lisoniy asimmetriya. Enantiosemiyaning leksik satxdagi o‘rni haqida: ziddiyat, lisoniy ziddiyat, leksikologiya, semasiologiya, ma’no (semema), antonimiya, antisemiya, enantiosemiya, lisoniya simmetriya.

2-mavzu. Tilning idioetnik tabiati va enantiosemik ma’nolarning paydo

bo‘lishi. Enantiosemiya – universal lingvistik hodisa. Enantiosemiyaning leksik maqomi.. Tilning idioetnik tabiati va enantiosemik ma’nolarning paydo bo‘lishi. Enantiosemiya – universal lingvistik hodisa. Enantiosemiyaning leksik maqomi.Tilga idioetnik yondashuv. Tilning idioetnik tabiati va dialektlar. Tilning ijtimoiyligi. Ijtimoiy omillarning so‘z semantikasiga ta’siri. Lisoniy nomuvofiqlikning enatiosemiya bilan munosabatdorligi.

AMALIY MASHG‘ULOT MAVZULARI

1-mashg‘ulot. Til sathlari va ularning lisoniy ziddiyatga munosabati. Ziddiyatning nutqiy namoyon bo‘lishi. Til sathlari va ularning lisoniy ziddiyatga munosabati. O‘zbek tilida enantiosemiyani voqelantiruvchi birliklar, ziddiyatning nutqiy namoyon bo‘lishi: antifrazis, ironiya, evfemiya va disfemiya. O‘zbek tilida leksik enantiosemiyaning turlari, tushunchani qarama-qarshi tomondan atash va baholash. Zid ma’nolilikka sinxronik va diaxronik yondashuv. O‘zbek tilida enantiosemiyani voqelantiruvchi birliklar, ziddiyatning nutqiy namoyon bo‘lishi: antifrazis, ironiya, evfemiya va disfemiy

2-mashg‘ulot. O‘zbek tilida leksik enantiosemiyaning turlari, tushunchani qarama-qarshi tomondan atash va baholash. Zid ma’nolilikka sinxronik va diaxronik yondashuv. Tilning ijtimoiyligi. Ijtimoiy omillarning so‘z semantikasiga ta’siri. Lisoniy nomuvofiqlikning enantiosemiya bilan munosabatdorligi.Leksik enatiosemiya va uning turlari. Lisoniy va nutqiy enantiosemiya. Tushunchani qarama-qarshi tomondan atash va baholash. Zid ma’nolilikka sinxronik va diaxronik yondashuv. Enantiosemiyaning grammatik va paralingvistik tabiati.

3-mashg‘ulot. Tilda milliy-madaniy konnotatsiyaning ak setishi. O‘zbek tilida frazeologik enantiosemiyaning turlari. Frazeologik enantiosemiya va uni tasniflash mezonlari. Frazeologik birlikda lisoniy va nutqiy enantiosemiya. Frazeologik birlikda nomlovchi va baholovchi enantiosemiya. Frazeologik birlikda

to‘liq va qisman enantiosemiya. Frazeologik birlikda sinxronik va diaxronik enantiosemiya.

4-mashg‘ulot. Til rivojini ta’minlovchi omillar. Tillar aro ta’sirlashuv. Qarindosh va noqarindosh tillarda enantiosemiya. Tillararo enantiosemiyani tavsiflovchi terminlarga sharh. Tilda milliy-madaniy konnotatsiyaning aks etishi. O‘zbek tilida frazeologik enantiosemiyaning turlari. Til rivojini ta’minlovchi omillar. Tillararo ta’sirlashuv. Qarindosh va noqarindosh tillarda enantiosemiya. Tillararo enantiosemiyani tavsiflovchi terminlarga sharh. Tillararo aloqalar. Til rivojini ta’minlovchi omillar. So‘z o‘zlashtirish. Tillararo enantiosemiya. Tillararo enantiosemiyani tavsiflovchi terminlarga sharh.

O‘QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- masofadan o‘qitish;
- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ta’lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, unda adabiy ta’limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo‘yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o‘z fikrini asoslashga o‘rgatish.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S- (strength)	-kuchli tomonlari
W-(weakness)	-zaif, kuchsiz tomonlari
O-(opportunity)	-imkoniyatlari
T-(threat)	-to`siqlar

Namuna: Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi
W	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari	Badiiy matndagi tuyg‘ular tahlilini to‘la amalga oshirib bo‘lmaydi
O	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o‘tkaziladi
T	To‘siqlar (tashqi)	Struktural poetika bo‘yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:

trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallari tarqatadi;

har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;

navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

Badiiy tahlil tizimlari					
Germenevtik tahlil (talqin)		**Struktural (tarkibiy) tahlil**		**Lisoniy tahlil**	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	**Faoliyat shakli va mazmuni**

1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audiovizual harakat; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Kichikroq badiiy (she’riy) matnni tahlil qilish uchun ko‘rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:

F	**- fikringizni bayon eting**
S	**- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating**
M	**- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring**
U	**- fikringizni umumlashtiring**

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna:

Fikr: “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig‘ish yotadi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna:

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

“Struktura” deganda nimani tushunasiz?
A. Yunoncha so‘z bo‘lib, tarkib ma’nosini anglatadi.
B. Inglizcha so‘z bo‘lib, tahlil ma’nosini anglatadi.
C. Yunoncha so‘z bo‘lib, talqin degan ma’noni anglatadi.
D. Lotincha so‘z bo‘lib, badiiy asar matnini anglatadi.

“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?
A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.

“Struktural metod”ning lug‘aviy ma’nosini bilasizmi?
A. “Struktura – tarkib”, “metod – fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
B. “Struktura – tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi”
C. “Struktura – tahlil”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
D. “Struktura – talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lug‘aviy ma`no beradi.

Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllantiriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
D. Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi, ilmimatnda vazn va qofiya bo‘lmaydi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘gri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna:

“Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impressiv va nutqning bo‘yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi	
Struktura	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo‘lgan badiiy manzara yoki	

	siymo yaratish	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko‘ra farqlash	
Adabiy janr	O‘z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan mustaqil shakliy ifodalanish	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o‘rganuvchi soha	
Uslub	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o‘ziga xosligi	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

“Venn diagrammasi” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna:

Ifoda shakllari bo‘yicha (she’riy va nasriy nutq).



“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa “0”, mos kelsa “1” ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Struktural tahlil ketma–ketligini aniqlash. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To‘g‘ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturasi					
Matnning ichki qurilishi					
Matnni o‘z yozuvida o‘qish tajribasi					
Matnni o‘z tilida o‘qib tushunish (lug‘at va izoh)					
Matn qismlarining dastlabki talqini					
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan					

matnning mantiqiy butunligi					



Grafik organayzer talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Talabalar ikki guruhga bo‘linadi
2. Yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi
3. Har bir guruhga o‘zlashtirilayotgan mavzu (bo‘lim, bob) yuzasidan alohida topshiriq beriladi
4. Topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi
5. Liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to‘ldiradi

III. NAZARIY MASHG‘ULOT
MAZMUNI

1-MAVZU:

TIL VA TAFAKKUR. TAFAKKURNING MILLIYLIGI. TILDA ZIDDIYATNING IFODALANISHI. LISONIY ZIDDIYAT VA MILLIY TILLAR

REJA:

1. ***Til va tafakkur ta'sirlashuvi***
2. ***Tafakkur milliyligi – til milliyligi***
3. ***Ziddi yat kategoriyasining mohiyati***
4. ***Ziddiyat kategoriyasining til birliklari orqali namoyon bo'lishi***

Tayanch iboralar: *til, tafakkur, ta'sirlashuv, tafakkur milliyligi, dunyoni bilish va til, ziddiyat, lisoniy ziddiyat, ma'no (semema), antonimiya, antisemiya, enantiosemiya, lisoniy asimmetriya.*

Til va tafakkur ta'sirlashuvi. Tilshunoslikning avvalida ham, uning hozirgi bosqichida ham til va tafakkur, til va olamni bilish bu fanning eng muhim muammolaridan biri sifatida kun tartibidan tushmay kelmoqda. Shunga binoan tilshunoslikning barcha davrlarida "til qanday paydo bo'lgan?", "til qanday rivojlanadi?", "insonning bilish faoliyatida tafakkur birlamchimi yoki til?", "nutqiy jarayonda tafakkur, fikriy jarayonda til qanday ishtirok etadi?" tarzidagi savollar atrofida mulohaza yuritilgan, mazkur muammolarga yechim topishni asos qilib olgan ilmiy maktablar va yo'nalishlar paydo bo'lgan, sifatiyu salmog'i aqlni shoshirib qo'yadigan tadqiqotlar yuzaga kelgan; shuningdek, tafakkurning milliyligi, olam va odamni anglashda ona tilining ishtirok darajasini belgilashga yo'naltirilgan turfa gipotezalar ilgari surilgan. Bundan murod esa (ba'zan tilning tabiatidan bir qadar uzoqlashilgan bo'lsa ham) tilni imkon qadar to'g'ri, to'liq va tugal tavsiflashdir.

Ma’lumki, til va tafakkur munosabati, ularning o‘zaro ta’sirlashuv jarayonlarini o‘rganishga tilni to‘g‘ri tadqiq qilishning eng birinchi muammosi sifatida yondashib kelinadi. Bu boradagi tadqiqotlarda goh tafakkurning birlamchiligini isbotlashga urinilsa, goh tilning olam hodisalari bilishdagi ustuvorligi ta’kidlanadi. Dunyo tilshunoslarini ana shu ikki qarashdan qay birini ma’qullashiga ko‘ra ikkiga ajralgan deyish ham mumkin. Tilshunoslikning keyingi taraqqiyoti natijasida tilning tafakkursiz, tafakkurning tilsiz mavjud bo‘lmasligi, ya’ni biri ikkinchisidan kuch olib yashashi, ular o‘rtasida doimiy ta’sirlashuv jarayonlari borishi haqidagi qarash bir qadar barqarorlashdi.

Bu boradagi tadqiqotlar umumlashtirilsa, til va tafakkur munosabati, asosan, uch xil: gnoseologik, psixologik (yoki psixolingvistik) va neyrofiziologik (yoki neyrolingvistik) aspektda o‘rganilgani ma’lum bo‘ladi.

Yunon tilida “bilishga doir qarash” ma’nosini bildiruvchi gnoseologik yondashuv til va tafakkur munosabatini aniqlashdagi dastlabki metodologik usuldir. Bunday yondashuvga ko‘ra, olamni bilib borish natijasida dastlab kishi tafakkurida narsa-hodisalar haqida muayyan tushuncha va tasavvurlar paydo bo‘ladi, keyin shu tushunchalar til vositasida namoyon bo‘ladi, ya’ni til inson aqliy faoliyati natijasida yuzaga kelgan tushunchalarni qayd etadi va tinglovchiga yetkazadi. Umuman, til va tafakkur munosabatini bunday tushunish o‘zbek tilshunosligida ham keng tarqalgan. Xususan, M.Irisqulovning “Tilshunoslikka kirish” qo‘llanmasida til va tafakkur bir-birisiz mavjud bo‘la olmasligi ta’kidlanadi. Bu to‘g‘ri, ammo tafakkurning tildan oldinda yurishi, tafakkurdagi tushunchalar til orqali ifodalanishi – til tafakkurning barcha turlarini aks ettirishda yagona qurol va vosita ekanligi uqtiriladiki[1], bu ta’kidlarning birinchisida tafakkurning tilga nisbatan birlamchiligi va ustuvorligi, ikkinchisida esa tilning vazifasi faqat tafakkurda mavjud tushunchalarni aks ettiradi degan hukm anglashiladi. Yana kuzating: “Tabiiyki, g‘oyalarning takomillashishi jarayonida

[1] Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Дорилфунун ва педагогика институтлари талабаларига қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. 237 – 239-бетлар.

yangi tushunchalar, yangi nazariyalar paydo bo‘ladi, ularni qayd etish uchun hamma vaqt ham tilda tayyor so‘zlar, so‘z birikmalari bo‘lmasligi mumkin. Bunday hollarda til tafakkur faoliyati mahsulini to‘la-to‘kis o‘zida aks ettirishi uchun mazkur yangilikka har tomonlama mos keladigan so‘z va iboralarni topishi zarur. Shu tariqa til ham qotib qolmay tafakkur bilan birgalikda rivojlanib, takomillashib boradi”[2].

To‘g‘ri, til va tafakkur munosabatini bunday tushunish bir qarashda maqbulday ko‘rinadi, chunki tafakkur til bilan doimiy aloqada bo‘ladi, olamdagi narsa-hodisa va harakat-holatlar ong yordamida idrok qilinadi. Ammo bu qarash tilga tafakkurda bor narsani aks ettiradigan vosita maqomini beradiki, bu tilning bilish jarayonidagi ishtiroki hamda vazifasini “passiv”lashtirib yuboradi, tilning “mahsul” emas, balki faoliyat ekanligi haqidagi g‘oyani (V. fon Gumboldt) shubha ostiga qo‘yadi. Taassufki, uzoq yillar davomida o‘zbek tilshunosligida ham tilning tafakkuriy tushunchalarni aks ettirish vazifasinigina ta’kidlash, tushuntirish ustuvor bo‘ldi, til aloqa vositasi sifatidagina taqdim etildi, darslik va qo‘llanmalardan “til – insonlar o‘rtasidagi aloqa vositasi”, “til – aloqa quroli” tarzidagi tavsiflar keng o‘rin oldi. Buning natijasida tilning boshqa asosiy vazifalari bir qadar chetda qoldi. Shu ma’noda N.Mahmudov “Til, eng avvalo, insonning ichki dunyosi, olamni idrok qilishi, tafakkur tarzi va kamolotini belgilaydigan vosita. Tilga ko‘pincha aloqa vositasi sifatida qarashadi. Aslida bu – tilning mohiyatini to‘g‘ri anglamaslik natijasida paydo bo‘lgan noto‘g‘ri qarash. Til faqat aloqa vositasigina emas, u insonning tafakkur tarzini tayin qiladigan, dunyoni bilishi, dunyoni ko‘rishi, eshitishi vositasi hamdir. Odam dunyoni tili bilan ko‘radi, tili bilan eshitadi va tili bilan idrok qiladi. Inson biron narsani nomlasa, bu nomni o‘zbek yoki rus o‘z tili bilan ataydi, ular nomlash motiviga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, “sinchalak” so‘zi – chittak qushining yana bir nomlanishi. Rus tilida u “sinitsa” deyiladi. Yana bir misol, “suv jildirayapti” deymiz. Buni ingliz

[2] Ирискулов М. Кўрсатилган манба. 237 – 238-бетлар.

boshqacha ataydi. Eshitish tilga ko‘ra bo‘lgani uchun taqlidiy so‘zlar hamma tilda bir xil emas. Barchasining asosiy mazmun-mohiyati tabiatdagi mavjud tovushlarga taqlid qilish natijasida yuzaga keladi. Tabiatda mavjud tovushlarni qanday eshitsak, shunday taqlidiy so‘z yuzaga keladi. Tilni mana shu tarzda tasnif qiladigan bo‘lsak, til bu faqatgina aloqa vositasi emas, ko‘rish, eshitish, hattoki anglash vositasi ekanligini bilib olamiz”[3] deganida haqdir.

Gnoseologik yondashuv asosidagi tadqiqotlarda til va tafakkur munosabati bir qadar oydinlashtirilgan bo‘lsa ham, tilning bilish jarayonidagi ishtiroki to‘la aniqlashtirilmadi, bu ikki hodisaning konkret nutqiy sharoitdagi ishtiroki ochiq qolib ketdi. Shu va boshqa bo‘shliqliklarni to‘ldirish maqsadi bilan psixologik (yoki psixolingvistik) yondashuv qo‘llana boshladi.[4] Shunga ko‘ra, til va tafakkur munosabatiga bu fanda ikki xil yondashuv mavjud: 1) til va tafakkur bir-biri bilan bog‘liq, shuningdek, tafakkur til vositasida ifodalanadi; 2) til va tafakkur – mustaqil hodisalar, tafakkur tilsiz namoyon bo‘la olishi mumkin.[5] O‘z vaqtida A.A.Potebnya ham tafakkurning tilsiz mavjud bo‘lishi mumkinligini aytgan va fikrini rassom, musiqachi, haykaltarosh va shaxmatchilarning ijodiy tafakkuri til orqali ifodalanmasligi bilan dalillagan edi.[6] Til va tafakkur o‘rtasida “majburiy” aloqa borligini inkor etuvchi tilshunoslar tafakkurning aqliy jarayon ekanligi, shu bois lisoniy belgilarga emas, obrazlarga tayanishi va bu obrazlarning, lisoniy belgilardan farqli ravishda, modallikka egaligini sabab qilib ko‘rsatadilar. Bunday yondashuvdagi tadqiqotlarda til va tafakkur munosabati bolalar psixikasi misolida o‘rganildi, ya’ni bolada ona tili ko‘nikmalarining shakllanishida tafakkurning ishtiroki qanday bo‘lishiga diqqat qaratildi.

Shunday ishlarning birida aytilishicha, bolaning bilish faoliyati nutqiy faoliyatidan oldinda yuradi, bolaning nutqi o‘zlashtirilgan tushunchalar asosida

---

[3] Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. 19-бет.

[4] Петренко В.Ф. Экспериментальная психосемантика: исследование форм репрезетации в обыденном сознании. – М.: 1983.; Шмелев А.Г. Введение в экспериментальная психосемантику: теоретико-методологические основания и психодиагностические возможности. – М., 1983.

[5] Глухов В.П. Основы психолингвистики. – М.: Высшая школа, 2005. – С. 288.

[6] Потебня А.А. Слово и миф. – М.: Правда, 1989. – С. 145-146.

shakllanadi. Shuningdek, bola anglagan narsalar miqdorining u biladigan so‘zlar sonidan ko‘pligi anglangan narsalarning verbal ifoda topavermasligini aytadi. Shu munosabat bilan L.S.Vigotskiy intellektual va verbal rivojlanishning turli genetik asosga egaligi, nomutanosib bo‘lishi g‘oyasini ilgari uradi.[7] Ammo go‘dakning dastlab unli tovushlarni, keyinroq ochiq bo‘g‘inlarni talaffuz eta boshlashi til ko‘nikmalarining tafakkurdan oldin paydo bo‘la boshlashini ko‘rsatadiki, psixolingvistik tadqiqotlarda ham bu jihat e’tiborga olinmadi. Qolaversa, eshitish va so‘zlash bilan bog‘liq muammosi bor bolalarning tafakkuri u qadar yaxshi rivojlanmasligi aytiladiki, bu ham tilning tafakkur rivojiga katta ta’siri borligini ko‘rsatadi. Demak, tilning asosiy vazifasi tafakkurni lisoniy belgilar orqali voqelantirishgina emas, balki uni shakllantirish, yuzaga keltirish hamdir. Tafakkurning asosiy vazifasi esa borliqni, undagi narsa-hodisalarni bilish bo‘lib, bu jarayon til yordamida amalga oshadi.

Tafakkur milliyligi – til milliyligi. Til va tafakkurning bir-biridan mutlaq mustaqilligini, ularning bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda rivojlanishi mumkinligini ta’kidlovchi psixolingvistlar, xususan, A.O.Bondarenko bilingvizm sharoitida kishilarning har xil tushunchalar tizimi va tafakkur tarziga ega bo‘lmasligi bilan isbotlashga harakat qiladi va shunday tushuntiradi: masalan, “забыл” so‘zi turli tillarda so‘zlovchi kishilar tomonidan shakliy ifodasida farqlanish bo‘lsa ham bir xil tushuniladi (garchi enantiosemik tabiatli bo‘lsa ham): ruscha “забыл” polyakcha “запомнял”, ruscha “свежие фрукты” birikmasi chex tilidagi “cherstvы ovoщi”ga to‘g‘ri keladi. Bu tafakkurning har bir jamiyatning tarixiy va madaniy tajribalarini o‘zida birlashtirishini anglatadi[8]. Aksincha, tafakkurning bunday imkoniyatga egalik qilishi tilning beminnat xizmati tufaylidir, ya’ni jamiyatga xos muayyan tarixiy-madaniy tajriba aniq nom – lisoniy ifoda

[7] Бу ҳақда батафсил қаранг: Слобин Д.И. Когнитивные предпосылки развития грамматики // Психолингвистика, 1994; Выготский Л.С. Избранные психолингвистические исследования. – М., 1956.

[8] Бондаренко А.О. Психолингвистический взгляд на проблему соотношения языка и мышления // Язык. Культура. Коммуникации, 2016. №1. С. 4.

ostidagina tafakkurdan o‘rin topadi, tarixiy-madaniy tajriba muayyan nomga biriktiriladi. Ana shu biriktirilish tarixiy-madaniy tajriba haqidagi tushunchani jamiyat a’zolari uchun foydalanishga “yaroqli” qiladi. Aniq nomi bo‘lmagan har qanday tarixiy-madaniy tajriba jamiyat a’zolari uchun foydalanishga qodir bo‘lmaydi.

Xullas, til va tafakkur munosabatiga inson psixikasidan kelib chiqib yondashilganda ham tilning bilish jarayonidagi ishtirok darajasi, tafakkurni tayin etishidek xususiyatlari bir qadar chetda qoldi. Shu bois bunday yondashuv ham tilshunoslar tomonidan to‘la e’tirof etilmadi.

Neyrolingvistika fanining rivojlanishi natijasida inson nutqiy qobiliyati va tafakkur munosabatlari neyrofiziologik rakursda ham tadqiq etila boshladi. Neyrolingvistikani alohida soha sifatida rivojlantirgan A.R.Luriya va uning izdoshlari til va miya o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa borligini aniqlashga harakat qilar ekanlar, tilning tug‘ma qobiliyat emas, murakkab ijtimoiy-tarixiy rivojlanish natijasi ekanini, shu bois o‘zgarishlarga moyilligini ta’kidlaydilar, miyani esa nisbatan o‘zgarmas biologik sistema deb baholaydilar[9].

Shuningdek, turli xalqlar vakillarining tilni qanday o‘zlashtirishi, lisoniy malakalar miyaning qaysi qismi ishtirokida shakllanishi borasida ham neyrolingvistik izlanishlar mavjud. Tadqiqotlarga ko‘ra, miyaning chap va o‘ng yarim sharlari har xil vazifani bajaradi. Masalan, o‘ng yarim shar ko‘rish va sezish orqali bilinadigan jarayonlarni boshqargan, ya’ni emotsional tomonga javob bergan, chap yarim shar esa mantiqiy jarayonlarni boshqargan. Yoki ona tilisi navaxo va xopi tillari bo‘lgan Amerika indeyslari tilni o‘ng yarim shar bilan o‘zlashtirsa, inglizlar chap yarim shar bilan o‘rganadilar. Yapon bolalari milliy bo‘g‘inli alifboni va og‘zaki nutqni chap yarim shar faoliyati bilan, ieroglifik

[9] Лурия А.Р. Основные пролемы нейролингвистики. – М., 1975; Лурия А.Р., Юдович Ф.Я. Речь и развитие психических процессов у ребёнка. – М., 1956.

alifboga doir malakalarni o‘ng yarim shar orqali o‘zlashtiradi[10]. Keyingi paytlarda internetdagi ma’lumotlarda zamonaviy bolalarning o‘ng va chap yarim sharlari baravar ishlayotgani xabar qilinmoqda.

Shu o‘rinda faqat tilshunoslarninggina emas, aniq fan vakillarining ham til va tafakkur munosabati borasidagi fikrlarini keltirish o‘rinli. Masalan, fransuz matematigi J.Adamer bir kuni A.Eynshteyndan uning fikrlashida so‘zning qanday o‘rin tutishini so‘raganda, mashhur fizik “So‘zlar qanday yozilmasin yoki talaffuz qilinmasin, mening fikr yuritish tarzimda til u yoki bu tarzda rol o‘ynamaydi” deb javob bergan ekan. N. Borning fikricha esa, “Hech bir haqiqiy tafakkur biror tilda ifodalangan tushunchalarsiz bo‘lishi mumkin emas”[11]. Demak, A.Eynshteyn tafakkurning shakllanishi va ishlashida tilning rolini inkor etayotgan bo‘lsa, N.Bor tafakkurning shakllanishida tilning muhimligini e’tirof etmoqda.

Tilga egalik – kishida eshitish va so‘zlash qobiliyatining mavjudigi kishining tafakkuri rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Buni Y.L.Vaysgerber kar va soqov bolalar bilan olib borgan tadqiqoti misolida ko‘rsatib beradi. Uning fikricha, kar bolalarning tafakkur tarzi sog‘lom bolalarnikidan butunlay farq qiladi. Ya’ni kar va soqov bolalarning tafakkur tarzi ko‘rgazmali (naglyadnыy) bo‘ladi, ular abstrakt tushunchalar asosida emas, bir qadar oddiy fikrlaydilar. Tilga egalik kishiga abstrakt fikrlash imkoniyatini beradi.[12]

T.B.Radbil tilning borliqni anglashdagi favqulodda ahamiyatini shunday izohlaydi: turli so‘zlarning (sinonimlar – Yo.O.) mavjudligi u yoki bu tushunchani turlicha anglatish uchun emas, balki u yoki bu tushunchani turli tomondan ko‘rish tufaylidir. So‘z ongdagi mavjud narsaning qanday bo‘lsa shunday izi, aksi emas, balki tilga xos ijodkorlik bilan yuzaga keltirilgan, til prizmasidan o‘tgan hosilasidir; u shu predmetga ekvivalent emas, balki so‘z ijodkorligi jarayonidagi tushunilishidir. Til olamni anglatmaydi, balki olamning alohida, o‘ziga xos

[10] Иқтибос қуйидаги манбалардан олинди: Хроленко А.Т., Бондалетов В.Д. Кўрсатилган асар, 186-бет; Иванов В.В. Нейролингвистика // Биологические и кибернетические аспекты речевой деятельности. Сборник обзоров. – М., 1985. – С. 26-70.
[11] Иқибос қуйидаги манбадан олинди: Хроленко А.Т., Бондалетов В.Д. Кўрсатилган асар, 188–189-бетлар.
[12] Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа. – М.: Книжный дом “ЛИБРОКОМ”, 2009. – С. 50-59

manzarasini yaratadi.[13] Shuning uchun ham tilning reprezentativ funksiyasi – olamni aks ettirish vazifasini juda jo‘n tushunmaslik kerak, chunki til olamni oynadek, nusxa ko‘chirgandek aks ettirmaydi, balki olam hodisalari til egasining madaniyati, mentaliteti, turmush tarzining ta’siriga berilgan holda tilda aks topadi. Har bir xalq dunyoqarashining originalligi va bu originallikning milliy tillarda o‘ziga xos namoyon bo‘lishi shundandir.

Zotan, “tilning milliyligi inson nutqiy faoliyatida o‘z aksini topmasdan qolmaydi. Matn xorijiy tilda bitilayotganida esa ona tilining aks-sadosi doimo sezilib turadi. Hatto boshqa mamlakatda ko‘p yillar yashab, shu mamlakat tilida ta’lim olgan, shu tilda muloqot qilib faoliyat yuritadigan, xullsa, shu til vositasida umrguzaronlik qilib kelayotganlar ham o‘z ona tili “soyasi”dan to‘liq qochib ketishga ojizliklarini tan oladilar. Shundaylardan biri asli fin millatiga mansub bo‘lgan, lekin yigirma yil davomida AQShda tahsil olgan va tilshunoslik bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan, hozirgi paytda o‘sha yerda amaliy tilshunoslik fanidan ma’ruzalar o‘qib kelayotgan Ulla Konnerdir. Qarangki, ingliz tilini o‘z kasbi, maosh manbaiga aylantirib ulgurgan shaxsning [Ulla Kornerning] ham ikkinchi tilda yozish qobiliyati to‘liq shakllanganiga hanuz shubhasi yo‘q emas va u bu borada ayrim “xorijiy” asoratlaridan xoli bo‘lgani yo‘q.[14]

Xullas, til va tafakkur munosabati ikki hodisaning juda jo‘n aloqasi emas, balki biri ikkinchisiga faol ta’sir etadigan, birining ta’siri ikkinchisining rivojini ta’minlaydigan, shakllantiradigan munosabatdir. Shunday holatlar bo‘ladiki, o‘zaro ta’sir etish jarayonida ba’zan til tafakkurni belgilasa, ba’zan tafakkur tilga ta’sir etadi. Garchi ular bir-biridan mustaqil hodisalar hisoblansa ham[15], lekin bu mustaqillik mutlaq emas, ya’ni til funksiyalarining ro‘yobga chiqishida tafakkur, tafakkurning namoyon bo‘lishida til ishtirok etadi, ayni paytda, nutqiy faoliyat

[13]Радбиль Т.Б. Кўрсатилган асар, 25-бет.
[14] Раҳимов Ғ. Кўрсатилган асар, 62-бет.
[15]А.А.Потебня, Л.С.Выготский, Ж.Пиаже, Н.И.Жинкин, Ж.Вандриес, Б.А.Серебренников, Б.Рассел, Л.Блумфилд, Х.Жексон, У.Л.Чейф, Л.В.Сахарный кабилар тафаккур тил иштирокисиз рўёбга чиқа олади, уларни бир-биридан мустақил деб билганлар.

lisoniy va fikriy jarayonlarning “hamjihatligida” yuzaga chiqadi”[16]. Inson o‘zining kundalik tajribalarini mavjud lisoniy ko‘nikmalar yordamida qayd qilib boradi, shuning barobarida tafakkuri, dunyoqarashi va pirovardida o‘ziga xos olam konseptual va lisoniy manzaralarini rivojlantiradi.

Ziddiyat kategoriyasining mohiyati. Fanda tushunchalar ziddiyati masalasining o‘rganilishi insoniyat tarixining qadim davrlaridan boshlanadi. Ziddiyat bilishning muhim vositasi sifatida dastlab antik davr mutafakkirlarining e’tiborini tortgan. Ular qarama-qarshilik tushunchasini falsafa, keyinroq mantiq fani doirasida o‘rgana boshlaganlar. Xususan, Suqrotning fikricha, ziddiyatga sabab bo‘luvchi, uni ifodalovchi tushunchalar biri ikkinchisidan kelib chiqqan yoki birining borligi uchun boshqasi mavjud. Masalan, *katta* tushunchasi *kichik* tushunchasidan yoki aksincha, *kichik* tushunchasi *katta* tushunchasidan kelib chiqqan, ya’ni *katta* bo‘lmaganda *kichik* ham bo‘lmasdi. Olamdagi barcha narsalar o‘z zidiga ega bo‘lib, ziddiyat a’zolari kishi ongida bir juft holida turadi, bir tushunchaning faqat bitta zidi bo‘ladi[17], ya’ni *yaxshi*ning *yomon*dan, *baland*ning *past*dan boshqa zidi yo‘q.

Sharqda esa ziddiyat masalasi Forobiy, Beruniyning falsafiy qarashlarida, xitoy mutafakkirlarining mantiqqa oid asarlarida uchraydi. Shuningdek, u bilishning umumiy qonuniyatini aks ettirib, mohiyatan yagona butunlikning inkor etuvchi qismlaridir. Ushbu qonun til sistemasida faol amal qiladi.

Lisoniy qarama-qarshilik masalasi kishilik tarixining bir muncha keyingi davrlarida o‘rganila boshlangan. Shunday ishlarning birida tilda ziddiyatning yoki zid ma’noli so‘zlarning yuzaga kelishi inson bilimlarining qiyosi natijasi deyiladi. Olamning kun va tundan, yorug‘lik va qorong‘ulikdan iborat ekani hamda *kun*ni *tun* bilan, *yorug‘lik*ni *qorong‘ilik* bilan qiyoslanishi o‘zaro zid tushunchalarni

[16] Бондаренко А.О. Психолингвистический взгляд на проблему соотношения языка и мышления // Язык. Культура. Коммуникации, 2016. №1. С. 3.
[17] Бу ҳақда қаранг: Платон. Сочинения в трех томах. М.: Мысль, 1968. т. 1. – С. 217.

farqlanishiga olib kelgan[18]. Boshqa qarashga ko‘ra, ziddiyatning mavjudligi inson aqlining unga bo‘lgan tabiiy moyilligidir[19].

Metafora asosida muayyan so‘zda yangi bir ma’no yuzaga kelar ekan, bu so‘zning semantik strukturasida dastlab ma’lum darajada ziddiyat, qarama-qarshilik, ya’ni til egasining ongida avvaldan muqimlashgan birlamchi ma’no bilan metafora natijasi o‘laroq voqelangan “yangi” ma’no o‘rtasida muayyan nomuvofiqlik seziladi. Ziddiyat, qarama-qarshilik fenomeni to‘g‘risida falsafa va mantiq ilmida juda ko‘p yozilgan, bu tushunchaning har qanday rivojlanishdagi favqulodda o‘rni e’tirof etilgan. Bu haqda gap ketganda ko‘pincha F.Gegelning “...Ziddiyat esa har qanday harakat va hayotiylikning manbaidir; nimadir faqat o‘z ichida ziddiyat bo‘lganligi uchungina harakatlanadi, nimagadir undaydi, faol bo‘ladi” degan fikrlari havola qilinadi, ziddiyat dialektikada rivojlanishning asosiy manbai ekanligi haqidagi haqiqat ta’kidlanadi.[20]

Shuni ham aytib o‘tish lozimki, ayrim tadqiqotchilar tilni “o‘z-o‘zidan tashkillanadigan”, “o‘z-o‘zidan rivojlanadigan” sistemalar (sinergetikadagi asos tushunchalar) qatoriga kiritadilar va shu asosda tildagi qarama-qarshilik, ziddiyat hodisasiga sinergetik nuqtai nazardan ham yondashmoqchi bo‘ladilar, tartib va xaos o‘rtasidagi ziddiyat barqarorlikning asosini tashkil qiladi deb hisoblaydilar.[21] Aslida, bunday fikr mantiqan to‘g‘ri emas, chunki til insondan tamoman tashqarida bo‘lgan, mutlaq “mustaqil” hodisa bo‘lolmaydi (taassufki, tilshunoslikdagi sistem-struktur paradigmada buning aksi e’tirof etilgan), shunday ekan, uning “o‘z-o‘zidan tashkillanishi”, “o‘z-o‘zidan rivojlanishi” aslo mumkin emas. Ammo umumiy tilshunoslikning nazariy muammolari yoritilgan asarlarning aksariyatida “til taraqqiyotining ichki va tashqi qonuniyatlari” (omillari, sabablari) mavjudligi

[18] Бу ҳақда қаранг: Ганеев Б.Т. Первоначальная энантиосемия и диффузность языка // Вестник ОГУ, 2003. № 4. – С. 9.
[19] Балли Ш. Французкая стилистика. – М., 1961. – С. 139.
[20] Ополев П.В. Противоречие в диалектике и синергетике // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2010. №1 (5). – С.110.12
[21] Қаранг: Ополев П.В. Кўрсатилган мақола.

haqida batafsil ma’lumot beriladi.[22] “Til taraqqiyotining ichki qonuniyatlari” deyilar ekan, mantiqan “til o‘z-o‘zidan rivojlanishi mumkin” degan hukm anglashilishi tabiiyki, bunday tushunish “til inson va jamiyatga bog‘liq bo‘lmagan holda taraqqiy eta oladi” degan yanglish xulosaga olib keladi. Tilning “o‘z-o‘zidan” rivoji haqidagi gipotezani tanqidiy tahlil qilar ekan, Yu.V.Fomenko “Hozirgi tilshunoslikdagi uydirmalar” kitobida til taraqqiyotining ichki qonuniyatlari (omillari, sabablari, stimullari) haqida turli tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni mantiq tarozisiga qo‘yadi va shunday xulosa qiladi: “Barcha aytilganlardan shu narsa kelib chiqadiki, til “o‘z-o‘zidan”, ya’ni spontan, beixtiyor, o‘zicha, inson va jamiyat ixtiyoridan tashqari rivojlana olmaydi. Tilning har qanday o‘zgarishi (har qanday sathda, shu jumladan, fonetik sathda ham) uning qo‘llanishi, muttasil xotirada tiklanishi bilan bog‘liq va bu o‘zgarish turli ekstralingvistik sabablar (iqtisodiy, ilmiy-texnik, siyosiy, madaniy, biologik, fiziologik, psixologik va boshqa) bilan izohlanadi. Agar tillar “o‘z-o‘zidan” rivojlanganda edi, egalari – odamlarga bog‘liq bo‘lmaganda edi, hech qachon o‘lmasdi. O‘lik tillarning mavjudligi tillarning “o‘z-o‘zidan” rivojlana olmasligi, til taraqqiyotining ichki sabablari yo‘q ekanligining ravshan dalillaridir... Tildagi har qanday o‘zgarishning asosida inson ongida kechadigan jarayonlar yotadi... Demak, tildagi har qanday o‘zgarishning birlamchi sababi hamisha tildan tashqarida bo‘lib, u ekstralingvistik tabiatga molikdir”.[23] Hamonki til taraqqiyotining ichki qonuniyatlari mavjud emas, u “o‘z-o‘zidan rivojlana” olmas ekan, unga “o‘z-o‘zidan rivojlanadigan sistema” tushunchasini tatbiq etib bo‘lmaydi, demak, til va nutqdagi ziddiyat, qarama-qarshilik hodisasiga sinergetik yondashuv ham unchalik maqsadga muvofiqmas.

Ta’kidlash joizki, til umumiy rivojining, xususan, ma’no taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchlaridan eng qudratlisi dialektik ziddiyat, qarama-qarshilik bo‘lib, u til sathlarining barchasida turli darajada kuzatiladi. Shuni aytish kerakki,

[22] Қаранг: Кодухов В.И. Введение в языковедение. – М.: Просвещение, 1979. – С.82 – 84.
[23] Фоменко Ю.В. Кўрсатилган асар. – С.53.

ziddiyat, qarama-qarshilik bilan bir qatorda til va nutq birliklarida xilma-xillik, murakkablik, ko‘ptalqinlilik kabi ma’noviy siljishlar, me’yordan chekinishlar, anormal jarayonlar ham o‘rni bilan voqelanadiki, ular ham til taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Boshqird tilshunosi B.T.Ganeev ularning barchasini lisoniy anomaliyalar, alogik holatlar tarzida umumlashtiradi va ziddiyatlar sifatida talqin qiladi, bunda olim turli oilalarga mansub 20 dan ortiq til materialiga suyangan holda ish ko‘radi. Tadqiqotchi, odatda, mantiqiy termin sifatida qaraladigan “ziddiyat” terminiga lingvistik korrelyat o‘laroq “allofroniya” (yunoncha “boshqacha” + “o‘ylamoq, sezmoq”) terminini kiritadi, bu terminning zidi o‘laroq ziddiyatsiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanish mazmunida “ortofroniya” (yunoncha “to‘g‘ri” + “o‘ylamoq, sezmoq”) terminini taklif etadi. Allofroniya va ortofroniya, u haqli ravishda ta’kidlaganidek, tilning ikki ajralmas aspektini tashkil etadi.2 “Allofroniya” termini ziddiyat, qarama-qarshilik bilan bir qatorda lisoniy birliklardagi har qanday semantik siljishlarni, lisoniy birlik va uning ma’nosi o‘rtasidagi o‘zgarishlarni, to‘g‘rirog‘i, o‘zgachaliklarni, ya’ni “boshqacha o‘ylash” mahsuli bo‘lgan hodisalarni ham ifodalashi, umumlashtira olganligi uchun bu terminni ma’qullash mumkin.

Ziddiyat kategoriyasining til birliklari orqali namoyon bo‘lishi. Ziddiyat tilning barcha sathlari va birliklariga aloqador, ya’ni tilning har bir sathida o‘ziga xos qarama-qarshilik munosabati mavjud. Bu borada amalga oshirilgan ishlarning aksariyati leksik sath birliklari bilan namoyon bo‘ladigan zidlikka bag‘ishlangan va lisoniy ziddiyatning markaziy masalasi sifatida, asosan, antonimiya nazarda tutilgan. O‘zbek tilshunosligida ham yaqin vaqtga qadar leksik birliklardagi ziddiyat sifatida, asosan, antonimiya tushunilgan hamda mazkur hodisa yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.[24] Faqat keyingi yillarda lisoniy ziddiyat masalasi keng planda, antisemiya maqomi ostida tadqiq qilindi[25].

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilshunosligida lisoniy ziddiyat masalasi antonimik va

[24] Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. Филол.фан.номз. ..дисс.– Т., 1973; Исабеков М. Ҳозирги ўзбек тилида лексик антонимлар. Филол.фан.номз. ...дисс. – Т., 1973.
[25] Абдуллаева Д. Ўзбек тилида антисемия. Филол.фан.номз...дисс.– Т., 2010.

antisemik birliklar doirasida o‘rganilgan. Biroq tilda, jumladan, uning leksik sathida yana bir ziddiyat turi mavjudki, bunda qarama-qarshi munosabat, antonimik va antisemik birliklardan farqli tarzda, bir til birligi doirasida yuzaga chiqadi. Mazkur ziddiyat turi tilda juda qadimiy bo‘lib, ta’bir joiz bo‘lsa, uni antonimik birliklardagi ziddiyatdan ham avvalroq so‘zda mavjud bo‘lgan deyish mumkin. Negaki mazkur tip qarama-qarshilikning yuzaga kelishi arxaik tafakkur davri bilan belgilanadi. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, arxaik tafakkur davrida ko‘plab so‘zlar semantikasiga sinkretiklik (qorishiqlik) xos bo‘lgan. Shu bois o‘zaro zid tushunchalar bir so‘z bilan ham ifodalanavergan[26].

Tilshunos olimlar so‘zning mazkur xususiyati haqida gapirganda, Sitseronning Rim imperatori Oktavian to‘g‘risida aytgan quyidagi jumlasini esga oladilar: “tollendum esse Octavium”. Bu jumla *tollendum* so‘zidagi qarama-qarshi ma’nolar hisobiga “Oktavianni yanada (martabaga) ko‘tarish kerak” tarzida ham, “Oktavianni martabasidan tushirish kerak” mazmunida ham qo‘llanadi[27]. Yunon allomasi Sitseron va uning zamondoshlari, ba’zi notiqlar so‘zning bunday imkoniyatidan o‘sha davr siyosiy doiralariga munosabat bildirishda keng foydalanganlar. Hozirgi kunda ham G‘arb matbuotida u yoki bu shaxs faoliyatiga so‘zning ironik ma’nosidan foydalangan holda munosabat bildirish keng tarqalgan va bu borada alohida tadqiqot ishlari ham yuzaga kelgan[28].

So‘z semantik strukturasiga xos bu jihat – qorishiq zid ma’nolilik ko‘plab tillar qatori turkiy tillarga ham xos. Turkiy tilning qadim davrlarida ko‘plab so‘zlar semantik strukturasida nafaqat turli xil, balki zid ma’nolar ham bo‘lgan. Masalan, “Qadimgi turkiy lug‘at”da *chiq-* so‘ziga izoh berilar ekan, uning “foyda, naf, manfaat” va “chiqim, xarajat” ma’nolarini ham anglatishi ko‘rsatiladi[29]. Hozirgi

---

[26] Новиков Л.А. Новиков Л.А. Антонимия в русском языке (Семантический анализ противоположности в лексике). – М.: Изд-во Моск-го ун-та, 1973. – С.184.
[27] Новиков Л.А. Кўрсатилган асар, 1973. – Б. 182.
[28] Костина К.В. Аксиологический аспект языковой репрезентации образа России в современном немецком медиадискурсе. Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – Иркутск, 2011.

[29] Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 151. Кейинги ўринларда саҳифа ичида ҚТЛ тарзида берилади.

o‘zbek tilida bu zid tushunchalar alohida birliklar – *kirim* va *chiqim* so‘zlari bilan ifodalanadi.

So‘zning qarama-qarshi ma’nolarga ega bo‘lishi hodisasi – enantiosemiya ko‘pdan beri tilshunoslarning e’tiborini tortib kelayotgan masalalardan biri. Uning tadqiqi borasida qator ishlar mavjud va ularda mazkur hodisa turli aspektlarda o‘rganilgan. Masalan, ayrim ishlarda enantiosemiyaning grammatik tomonlariga e’tibor qaratilgan bo‘lsa[30], ayrim tadqiqotlar paradigmatik va sintagmatik aspektlarda olib borilgan[31].

Bizningcha, mazkur hodisani yuqoridagi jihatlar bilan birga, XX asrning so‘nggi choragidan boshlab tilshunoslikning yangi yo‘nalishi sifatida baholanayotgan antropotsentrik nazariya va uning tekshirish usullaridan foydalangan holda ham o‘rganish lozim. Shuning uchun ham tilshunos N.Mahmudov lisoniy ziddiyat masalasini tahlil qilar ekan, tildagi ma’no taraqqiyotining, umuman, til rivojining harakatlantiruvchi kuchini allofroniyada ko‘radi hamda uning turli ko‘rinishlarini, xususan, mohiyati bevosita ma’noviy ziddiyat, mazmuniy qarama-qarshilikdan iborat bo‘lgan, ana shunday murakkab mazmun bilan yukungan enantiosemik birliklar va bu birliklarning yuzaga kelishi hamda til va nutqdagi o‘rni masalasini til nazariyasidagi alohida qimmatga molik muammo ekanini, uni semantik va antropolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilish alohida dolzarblik kasb etishini ta’kidlaydi[32].

Darhaqiqat, enantiosemiyani ayni rakursda tadqiq etish orqali uning lingvokognitiv, lingvokulturolik, etnolingvistik, sotsiolingvistik kabi omillar bilan bog‘liq jihatlari ayon bo‘ladi. Zotan, “lisoniy birlikning mohiyati baholanar ekan, bu birlik mansub bo‘lgan til egasining etnomadaniy va ijtimoiy xususiyatlarini nazardan soqit qilmaslik zarur. Hatto tarixning turfa nayranglari, so‘zni buqalamunga aylantirgan zug‘umlari, mafkuraviy iskanjalar ham e’tibordan chetda

[30] Бессонова Л.Е. Глагольная префиксальная энантиосемия в русском языке. Дисс. ...канд.филол.наук. – Днепропетровск, 1983.
[31] Кравцова В.Ю. Энантиосемия лексических и фразеологических единиц. Дисс. ...канд.филол.наук. – Ростов-на-Дону, 2006.
[32] Маҳмудов Н. Зиддият ва маъно тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти, 2014. № 3. – Б. 24.

qolmasligi maqsadga muvofiq. Masalan, bu o‘rinda yaqin tariximizda *millatchi* so‘zi tamoman zid ma’noni tashishga majburlanganini esga olish kifoya. Atoqli adabiyotshunos N.Karimov bu haqda shunday yozadi: “...Shu narsani alohida qayd etish lozimki, o‘tgan asrning 20 – 30-yillarida matbuot tilida ham, shu davrda qamoqqa olingan mahbuslarning ko‘rsatmalarida ham “millatchilik” so‘zi butunlay o‘zga ma’noda qo‘llanilgan. “Millatchilik” so‘zi Qodiriy va uning maslakdoshlari uchun “millatparvarlik” ma’nosini anglatgan. Mustamlaka kishanlari ostida yashagan xalq manfaati yo‘lida kurashgan kishilar o‘zlarini “millatchi”, ya’ni “millatparvar” deb atashgan. Ammo sovet davlatining mafkurachilari bu so‘zga salbiy ma’no berib, uni rus tilida aks etgan ma’noda qo‘llanilgan “natsionalist” so‘ziga muvofiqlashtirishgan. Shuning uchun ham fidoyi adiblar o‘zlarini “millatchi” deb ataganlarida millat manfaati yo‘lida kurashgan kishilar ekanliklarini aytmoqchi bo‘lishgan”. Albatta, yurtimizning mustaqilligi bunday nohaqliklarga tamoman barham berdi”[33].

Enantiosemiyaning yuzaga kelishi ma’lum bir hududda yashovchi kishilarning lingvomadaniyati bilan ham bog‘liq. Bunda muayyan til birligi biror hudud kishilarining asrlar davomida shakllangan etik-estetik qarashlari, urf-odatlari natijasida, bir so‘z bilan aytganda, shu odamlardagi olamning lisoniy manzarasi bilan bog‘liq holda, adabiy tildagidan farqli bo‘lgan ma’noni ifodalaydigan bo‘lib qoladi. Masalan, *odamovi* so‘zining adabiy tildagi “odamlardan o‘zini tortadigan”, “hech kimga qo‘shilmaydigan, el-xalqqa aralashmaydigan” ma’nosini anglatishi o‘zbek tilida so‘zlovchilarning barchasi uchun ma’lum fakt. Biroq bu so‘zning muayyan bir hududda, adabiy tildagidan farqli ravishda, “odamshavanda, hamisha el-yurt bilan birga”, “odamgarchilikni biladigan” degan tushunchani ifoda etishi o‘sha joy aholisining lingvomadaniyati bilan ham izohlanadi, ya’ni shu hududda yashovchi til egalarining lisoniy tafakkur tarzi *odamovi* so‘zini “odamoxun, odamshavanda” tarzida idrok etishga xoslangan.

[33] Маҳмудов Н. Зиддият ва лисоний бирликда маъно тараққиёти // Маҳмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. Т.: Академнашр, 2014. – Б. 7.

Mazkur jihatlar enantiosemiya hodisasining lingvokulturolik xususiyatlarga ham ega ekanligini ko‘rsatadi.

Enantiosemiyaning etnolingvistik xususiyatlaridan biri shuki, jamiyatdagi muayyan rasm-rusum va odatni ifodalovchi so‘z turli joylarda qarama-qarshi ma’nolarni anglatadi. Masalan, *oq kiymoq* iborasi ba’zi joylarda “a’zaga kirmoq” ma’nosini, ba’zi joylarda esa “a’zadan chiqmoq” ma’nosini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Til birligidagi ayni jihat muayyan narsa, belgi va harakat-holat haqidagi tushunchalarning ma’lum darajada milliy-etnik xususiyatlar bilan bog‘liq holda ham yaratilishini va yashashini ko‘rsatadi.

So‘zning o‘zaro zid ma’nolar kasb etishi nutq egasi – so‘zlovchi shaxsi bilan ham jips bog‘liq. Mazkur bog‘liqlik, ya’ni muvofiq nutqiy vaziyatda so‘zning qarama-qarshi ma’nolarni namoyon etishi aynan nutq egasining kommunikativ-situativ maqsadi bilan yuzaga chiqadi. Shu kommunikativ-situativ maqsad tufayli so‘zning odatdagi ma’nosi qarama-qarshi tomonga o‘zgaradi, ana shu maqsad kontekstning mazmuniy qurilishini ham belgilaydi. So‘zlovchining kommunikativ-situativ maqsadi, tabiiyki, shaxsning muayyan vaqtdagi psixik holati bilan ham bog‘liq. Enantiosemiyaga ayni xususiyatlarni hisobga olgan holda yondashish uning yuzaga kelishida psixolingvistik yoki psixopragmatik omillarning tutgan o‘rnini aniqlashga yordam beradi.

Enantiosemiya masalasining hozirga qadar o‘zbek tilshunosligida o‘rganilmaganligi turli soha lug‘atlarida ham o‘z aksini topgan. Mavjud filologik lug‘atlarda u yoki bu leksik birlik ma’nosining izohida unga xos bo‘lgan *ko‘chma*, *jarg*. (jargon so‘z), *kams*. (kamsitishni ifodalovchi so‘z, ibora), *kest*. (kesatiq, kinoya ifodalaydigan so‘z, ibora), *salb*. (salbiy ma’noni ifodalovchi so‘z, ibora) kabi belgilar ilova qilingani holda enantiosemik birliklar izohida *qarama-qarshi ma’noli* degan belgi qo‘yilmaydi. Yoki enantiosemik so‘z ma’nolaridan biri lug‘atga kirmagan bo‘lishi ham mumkin. Bu kabi masalalarning hal qilinishi ma’lum ma’noda soha lug‘atlarining mukammalligini ta’minlaydi.

Demak, “so‘z shakli va uning ma’nosi o‘rtasidagi sinoatlarni, so‘z ma’nosining o‘zgarishi va taraqqiyoti bilan aloqador muammolarni tadqiq etish dunyo tilshunosligining ibtidosida ham, shiddat bilan rivojlanayotgan bugunida ham biron lahza bo‘lsin tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan emas”[34]. Shunday ekan, lisoniy hodisalarni fanning keyingi yutuqlariga tayangan holda tadqiq etish bilan uning to‘liq va tugal tavsifi borasidagi ishlar takomillashib boradi. Shu bois tilga antropotsentrik yondashuv hozirgi tilshunoslikdagi mukammal tadqiq usuli sifatida tan olinmoqda. Ushbu tadqiqot ana shu tomonlari bilan ham muhim.

Enantiosemiya va shakliy-ma’noviy nomuvofiqlik. Til sistemasining turli sathlarida bo‘lgani singari uning leksik sathida ham shakl va ma’no o‘rtasidagi nomuvofiqlik, ya’ni lisoniy belgi asimmetriyasi kuzatiladi. “Shakl va mazmunning o‘zaro munosabati masalasi, shubhasiz, har qanday fanning eng muhim masalasi”[35]dir. Jeneva lingvistik maktabining asoschilaridan biri S.O.Karsevskiy lisoniy asimmetriya mohiyatini shunday tushuntiradi: “Belgi va ma’no har doim ham bir-biriga to‘liq mos bo‘lmaydi. Shuningdek, ularning chegaralari barcha nuqtalarda ham muvofiq kelavermaydi: muayyan bir belgi bir necha vazifaga ega, muayyan bir ma’no bir necha belgi bilan ifodalanadi. Har qanday belgi bir paytning o‘zida potensial “omonim” va “sinonim”dir, ya’ni u fikriy hodisalar mazkur ikki qatorining chatishuvi natijasida yuzaga kelgan”[36]. Ko‘rinadiki, lisoniy asimmetriya mohiyati muayyan til birligining shakliy va mazmuniy nomuvofiqligidan iborat. Lisoniy belgi asimmetriyasi nafaqat leksik, shuningdek, sintaktik va boshqa sath birliklari uchun ham xos bo‘lib, hodisaning mazkur tomoni yetarlicha tadqiq etilgan[37].

---

[34] Маҳмудов Н., Одилов Ё. Кўрсатилган асар, 2014. – Б. 4.

[35] Махмудов Н.М. Семантико-синтактическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1984. – С. 4.

[36] Карцевский С.О. Об асимметричном дуализме лингвистического знака // История языкознания XIX – XX веков в очерках и извлечениях. – М.: Просвещение, 1965. Ч. 2. – С. 85-90.

[37] Скаличка В. Асимметричный дуализм языковых единиц // Пражский лингвистических кружок. Сб. статьей. М.: Прогресс, 1967. – С. 119-127; Колосова Т.А. Русское сложное предложение асимметричной структуры. – Воронеж: Изд-во Воронежского ун-та, 1980; Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент, 1984; Миртожиев М. Ўзбек тилидаги гап бўлакларида семантик-синтактик номутаносиблик. – Тошкент: Университет, 2008. – 200 б.

Turkologiyada, shu jumladan, o‘zbek tilshunosligida ilk bor lisoniy asimmetriya masalasini til sistemasining yuqori sathi bo‘lgan sintaksis va uning birliklari misolida monografik planda tadqiq etgan N.Mahmudovning e’tirof etishicha, shakl va mazmunning o‘zaro munosabati juda murakkab, ko‘p hollarda ziddiyatli, u til sistemasining har bir sathida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi[38]. Demak, lisoniy belgi asimmetriyasini tilning ma’lum bir sathigagina tegishli hodisa sifatida emas, balki til universaliyasi sifatida tushunish va o‘rganish lozim. D.Aytbaev asimmetriya masalasining o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqi borasida fikr yuritib, o‘zbek tilshunoslari N.Mahmudov va M.Mirtojievlarning bu boradagi qarashlari bir xil emasligini, bu hozirgacha sintaktik birliklarning semantik tuzilishi tushunchasining noaniqligi, mazkur muammo bo‘yicha turli yo‘nalishlarning maydonga kelgani bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi[39]. Bunga shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, N.Mahmudov asimmetriyani belgi va ma’no o‘rtasidagi sof nomuvofiqlik fonida tadqiq etgan bo‘lsa, M.Mirtojiev til birliklarining odatdagi sintaktik vazifasiga nomutanosib tarzda boshqa vazifada ham kelishi masalasiga, ya’ni predikat, odatda, gap kesimi bilan ifodalanishi lozim bo‘lgani holda boshqa bo‘laklar bilan ifodalanishi kabi tomonlariga diqqat qaratgan[40].

Enantiosemiya va lisoniy asimmetriya. Muayyan leksik sath birliklarida ko‘pma’nolilik xususiyatining mavjudligi ularning shakl va ma’no tomonidan asimmetriyasiga sabab bo‘ladi[41]. Bu birliklarning shakl va ma’no munosabati o‘rtasidagi nomuvofiqlik polisemiyada ifodalovchining bitta, ifodalanuvchining bir necha bo‘lganida, sinonimiyada esa ifodalanuvchining bitta, ifodalovchining birdan ortiq ekanligida namoyon bo‘ladi. E’tibor qilinsa, polisemiyadagi shakl-ma’no munosabati bilan sinonimiyadagi shakl-ma’no munosabati o‘rtasida o‘ziga xos qarama-qarshi xususiyat ko‘zga tashlanadi. Bu polisemiyada ifodalovchining

[38] Маҳмудов Н.М. Кўрсатилган диссертация. – Б. 4.
[39] Айтбаев Д. Шакл ва мазмун асимметрияси тадқиқига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 6. – Б. 40.
[40] Махмудов Н. Кўрсатилган диссертация. Миртожиев М. Кўрсатилган асар, 2008. – 200 б.
[41] Москальская О.И. Проблемы системного описания синтаксиса. – М.: Высшая школа, 1981. – С. 13.

bir shaklga egaligi, ifodalanuvchining esa birdan ortiq ekanligi, sinonimiyada ifodalovchining birdan ortiq, ifodalanuvchining esa bitta ekanligidan iborat. Ayni holat lisoniy asimmetriya leksik sath birliklarining har birida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi, degan fikrni yana bir bor tasdiqlaydi.

Tilshunoslar tomonidan omonimiyada asimmetriyaning mavjudligi ko‘p bor ta’kidlanadi[42], bunda omonimik birliklarning bitta shakliy ifoda bilan bir necha ma’no anglatishi nazarda tutiladi. Bizningcha, bu biroz munozarali. Omonimik birliklarning lisoniy asimmetriyaga munosabati o‘ziga xos bo‘lib, uni ikki xil yo‘sinda talqin etish mumkin. Omonimik birliklardagi ma’nolarni bir shakliy ifoda bilan ifodalanadi, deb bilish mazkur birliklarda asimmetriyaning mavjudligini ko‘rsatsa, omonimik birliklarni faqatgina shakli bir xil bo‘lgan yoki turli sabablarga ko‘ra shaklan teng kelib qolgan alohida-alohida birlik sifatida baholash bu birliklarda asimmetrik munosabat emas, simmetrik munosabat mavjudligini ko‘rsatadi. Negaki bir xil shakliy ifoda deb qaralayotgan til birliklari faqat shaklan bir xillikka ega bo‘lgan alohida-alohida so‘zlar sifatida talqin etiladi. Shundan kelib chiqib, omonimik birliklardagi har bir ma’no faqat shaklan bir xil boshqa-boshqa so‘zlar orqali ifodalangan deyish mumkin.

Leksik sathning sinonimik, omonimik til birliklaridagi simmetriyasizlik polisemiyaning maxsus turi bo‘lgan enantiosemiyada ham yaqqol ko‘rinadi va u lisoniy asimmetriyaning tipik ko‘rinishi bo‘la oladi. Masalan, “chiroyli” ma’nosining *go‘zal, suluv, barno* kabi bir necha shakllar bilan ifodalanishi sinonimiyadagi asimmetriyani namoyon etsa, “muayyan amal-harakat evaziga beriladigan mukofot (diniy tushuncha)” va “muayyan amal-harakat evaziga beriladigan jazo (diniy tushuncha)” ma’nolarining *ajr* so‘zi bilan voqelanishi enantiosemiyadagi asimmetriyani ko‘rsatadi. Masalan, qiyoslang: *Qorachadan kelgan bu yigitchaning yuzlarida Omonulloni ajablantirgan bir nur zohir edi. “Ajablantirgan” deyilishining boisi — bu nur “iymon nuri” deyilarki, bu*

[42] Карцевский С.О. Кўрсатилган мақола. – Б. 85-90.

marhamatga, bu ajrga qanday amallar evaziga yetishmoq mumkinligini Omonullo hali bilmas edi (Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar”); *Nodon banda bilmaydiki, bu odamning ro‘para bo‘lgani – gunohlariga yarasha va’da qilingan ajrlarning davomidir. “Gunohim nima edi?” deb yanada battar yig‘latadigan daqiqalarning debochasidir* (Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar”).

Enantiosemiyada lisoniy belgi asimmetriyasining namoyon bo‘lishi masalasiga dastlab L.E.Bessonova, keyinroq Yu.V.Kravsova e’tibor qaratgan edi. Ular til birliklarining shakl va ma’nosidagi o‘xshashlik hamda farqlilik lingvistik tadqiqotlar uchun muhimligini e’tirof etib, ayni jihatlar ifodalovchi va ifodalanuvchi o‘rtasida lisoniy belgi asimmetriyasining yuzaga kelishiga sabab bo‘lishini ta’kidlaydi: “Lisoniy belgining shakl va ma’no tomoni o‘rtasidagi bunday munosabat orqali omonimiya, polisemiya va enantiosemiyada bir ifodalovchi bilan bir necha ifodalanuvchi, sinonimiyada esa bir necha ifodalovchi bilan bitta ifodalanuvchi anglashiladi”[43]. Demak, enantiosemik birlikdagi asimmetriya bir shaklga ikki qarama-qarshi ma’noning to‘g‘ri kelishidan iborat.

Shu o‘rinda tabiiy bir savol tug‘iladi: Asimmetriya polisemiya yoki enantiosemiya natijasimi yoxud polisemiya yoki enantiosemiyaning yuzaga kelishiga asimmetriya asos bo‘lganmi? Mavjud lingvistik adabiyotlardan ma’lumki, so‘zdan avval til xotirasida u yoki bu narsa to‘g‘risidagi tushuncha paydo bo‘ladi. Inson ana shu narsa-hodisa, belgi yoki harakat-holatni bilib borishi natijasida ayni narsa-hodisa, belgi yoki harakat-holat haqida kishi til xotirasida muayyan tushuncha va abstrakt ramzlar shakllanadi[44]. Tafakkurdagi mavjud mavhum tushuncha so‘z bilan nomlanadi. Bu nom – so‘z tushunchaga aniq shakl beradi, sekin-asta uning semantik sig‘imi ham rivojlanib, ortib boradi, ammo so‘zning shakli o‘zgarmay qolaveradi. So‘z semantik strukturasining kengayishi bilan ayni bir shakl, so‘zga birdan ortiq ma’no to‘g‘ri keladigan bo‘lib qoladi. Masalan, ma’lum vaqtda *shirin* so‘zi bir ma’noli bo‘lgan va ayonki, bu so‘zga

[43] Бессонова Л.Е. Кўрсатилган мақола, 1982. – Б. 29.
[44] Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 4; Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 29.

asimmetriya emas, shakl-ma’no simmetriyasi xos bo‘lgan. Keyinchalik *shirin* so‘zi *shirin so‘z*, *shirin kulgi*, *tili shirin* birikmalaridagi kabi hosila ma’nolarga ega bo‘lgach, shakl va ma’no o‘rtasidagi simmetriya buzilgan.

Shu ma’noda *o‘r* so‘zining semantik taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan enantiosemiya ham diqqatga sazovor. Mazkur so‘zning dastlabki ma’nosi “ko‘tarilmoq”dir: *bulit örüp kök örtüldi* – bulut ko‘tarilib, osmonni qopladi (QTL. – B. 388). Keyinchalik mazkur so‘zning semantik strukturasi kengaygan va yuqoridagi ma’nodan kelib chiqadigan “tepalik, balandlik”, “yuqori, ust” ma’nosiga ega bo‘lgan: *Qamug‘ erdami bo‘lsa yerda o‘ru, Budunqa berur bo‘lsa edgu to‘ru* (Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u bilig”)[45]. Yoki: *Yo‘li o‘r, yuqoridur toshi malso, Quyiroqdur kishi bir gomin olso* (Alisher Navoiy. Farhod va Shirin”). So‘zning keyingi ma’no taraqqiyoti natijasida esa “jarlik, chuqurlik”, “o‘ra” ma’nolari yuzaga kelgan: *Front orqasida o‘r qazib turganda, Mulla Obiddan o‘ttiz metrcha nariga bir katta to‘p o‘qi tushib, qattiq tovush chiqarib yoriladi* (Abdulla Qodiriy, “Obid ketmon”).

Hozirgi o‘zbek tilida *o‘r* so‘zining qadimgi turkiy tildagi “ko‘tarilmoq” ma’nosi *o‘rlamoq* so‘zi orqali ifodalanadi. O‘TILda ham *o‘r* so‘zining semantik taraqqiyot mahsuli bo‘lgan “tepalik, balandlik” va “jarlik, chuqurlik”, “o‘ra” ma’nolari bir so‘zning ma’nolari tarzida berilgan (5-jild. 159-bet). Ko‘rinadiki, ikki zid ma’no bir shakl bilan yuzaga chiqadi. Demak, bu enantiosemik so‘zda shakl-ma’no asimmetriyasi bor. Yana bir tip enantiosemik birliklar borki, ulardagi nomutanosiblik so‘z semantikasida avvaldan mavjud bo‘lmay, ma’lum ma’noda, ijtimoiy munosabatlar natijasida vujudga keladi, bu bir tildan boshqa tilga so‘z o‘zlashtirish natijasida ro‘y beradi. Masalan, o‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan *dilgir* so‘zi manba tilda polisemantik so‘zligi, unda “xafa bo‘lgan, ranjigan, dili siyoh”, “ruhi tushgan, g‘amgin, qayg‘uli”, “achinarli”, “badjahl, jahli tez, serjahl” kabi ma’nolar bo‘lganligi sababli unga shakl-ma’no

[45] Юсуф Б. Мумтоз адабий асарлар луғати. – Тошкент, 2010. – Б. 495.

asimmetriyasi xos. Bu so‘z o‘zbek tiliga o‘zlashgandan so‘ng manba tildagi shakl-ma’no asimmetriyasining tabiati o‘zgargan, ya’ni nomuvofiq munosabat turli ma’nolar o‘rtasida emas, balki qarama-qarshi ma’nolar o‘rtasidagi nomuvofiq munosabatga almashgan. Negaki bu so‘z o‘zbek tilida manba tildagi “xafa bo‘lgan”, “ruhi tushgan” ma’nosi bilan birga unga zid bo‘lgan “xursand qiluvchi, dilni oluvchi” ma’nosini ham kasb etgan. Qiyoslang: *Zulfi pechu tobig‘a borib kelur shaydo ko‘ngul, Bovujudi tiyralik, ko‘rgilki ko‘p dilgir emas* (Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar”); *Men uning ovozini eshitdim, ammo so‘zlarini ilg‘ay olmadim. Nazarimda, xona kengayib, ulkan yalanglikka aylanib qolganday, anchadan buyon dilgir ko‘nglim bexosdan yorishib ketganday bo‘ldi* (Zulfiya Qurolboy qizi, “Mashaqqatlar girdobi”).

Dilgir so‘ziga mavhum ot yasovchi **-lik** qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan *dilgirlik* so‘zi semantik strukturasida ham enantiosemiya shakllangan. O‘TILda bu so‘zning “ko‘ngli g‘ashlik”, “g‘amginlik” ma’nosini anglatishi qayd etilgan. Masalan: *Alaviya opa juda hushyor ayol edi. Tog‘a-jiyan o‘rtasida allaqanday dilgirlik borligini bilib baxshilar tomonga ketdi* (Said Ahmad. Jimjitlik). Biroq badiiy asarlarni kuzatishdan ma’lum bo‘ldiki, mazkur so‘z “xushkayfiyatlilik”, “xushvaqtlik” ma’nosida ham qo‘llanadi. – *Tomosha qiling, yomg‘irning yog‘ishida ko‘ngilga yoqadigan bir dilgirlik bo‘ladi, – dedi u* (Sh. Xolmirzaev, “Notanish odam”). Yoki: *Tabiat olamning yasharayotganidan, yil yaxshi kelishidan belgi bermoqda edi. Tabiatdagi ana shunday jarayon kishilarning qalbiga iliqlik olib kirib, ularga shirin kayfiyat, orzularga to‘la dilgirlik onlarini baxsh etmoqda edi* (I. Zoyir, “Qismat o‘chi”). Ko‘rinadiki, ma’no taraqqiyoti natijasida bu so‘zda ham shakl-ma’no asimmetriyasi yuzaga kelgan.

Shuningdek, so‘z o‘zlashtirilishi natijasida manba tilda shakl-ma’no muvofiqligiga ega bo‘lgan muayyan so‘z boshqa tilga o‘zlashgandan so‘ng polisemantik xususiyat kasb etishi natijasida ayni muvofiqlik buzilib, asimmetrik tabiatli bo‘lib qoladi. Masalan, arab tilidan o‘zlashayotgan paytda monosemantik

bo‘lgan *asir* so‘zi (tadqiqotchi T.Rahmonovning fikricha, bu so‘z arab tilida “asirga tushgan bandi” ma’nosini anglatgan[46]) o‘zbek tiliga o‘zlashgandan so‘ng arab tilidagi ma’nosi bilan birga “tutqun, bandi holatida yashovchi shaxs” (*To‘rt devor asiri bo‘lib o‘tirgan ayollar bunday paytlarda kattakon bog‘da qafasdan chiqqan qush singari yayrar* (X.Axrorova, “Orifning davlati”), “biror kimsa yoki narsaga o‘zini butunlay topshirgan, uning “quli” holatidagi shaxs” (*Mana shu kundan boshlab Yo‘lchi shu qizning asiri, maftuni bo‘ldi* (Oybek, “Qutlug‘ qon”) ma’nolari hisobiga polisemantiklik kasb etgan. Shuning uchun bu so‘zga ham shakl-ma’no asimmetriyasi xos bo‘lib qolgan.

Simmetriyadan asimmetriyaga tomon bunday siljish so‘zning enantiosemik xususiyatga ega bo‘lishi natijasida ham yuz beradi. Masalan, arab tilidan o‘zlashgan *bid’at* so‘zi o‘zbek tiliga o‘zlashgandan keyin manba tildagi “yangilik, yangilik kiritish” ma’nosi bilan birga unga zid “eskidan qolgan urf-odat, rasm-rusm” (O‘TIL) ma’nosiga ham ega bo‘lgan: *Mushori ilayh Muhammad Alixon Xo‘qand ila Buxoro o‘rtasida Lashg‘ar nom qal’a xususida Buxoro amiri Nasrulloh bahodir ila o‘rtalarida burudat tushub, amir bunga bir go‘shmol bermak bo‘lub, Muhammad Alixon atosini(ng) mankuhasini oldi, balki haromni halol dedi, kofir bo‘ldi, necha-necha bid’atlarni joriy qildi deb, ta’dib qilmoqg‘a Xo‘qandga kelmoqda edi* (Ibrat, “Tarixi Farg‘ona”); *Qizil imperiya davrida Sharqdan chiqqan shohlarni “nodon”, “johil”, “qonxo‘r”, avliyo-allomalarni esa “firibgar”, “yolg‘onchi”, Sharq obidalarini “eskilik qoldig‘i”, “dinu bid’at o‘chog‘i” deb talqin qilish rasm edi* (Sadriddin Salim Buxoriy, “Buyuk Xorazmiylar”).

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, *asir* so‘zidagi asimmetriya ma’noviy har xillik asosida, *dilgir*, *dilgirlik*, *bid’at* so‘zlaridagi asimmetriya ma’noviy zidlik asosida yuzaga kelgan.

[46] Раҳмонов Т. Ҳозирги ўзбек тилидаги арабча ўзлашма сўзлар семантик тузилишидаги ўзгаришлар: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 1994. – Б. 25.

Enantiosemiya nutqiy bo‘lishi ham mumkin. Masalan, enantiosemiya so‘zlovchining kommunikativ-situativ maqsadi bilan so‘zni okkazional zid ma’noda qo‘llash orqali ham yuzaga keladi. Bunda okkazional ma’no ayni so‘zning uzual ma’nosiga nisbatan qarama-qarshi bo‘lib voqelanadi hamda so‘zlovchining subyektiv munosabatini ifoda etadi: *Shunaqa-ku, chinakam badiiy asarni yaratish uchun “arzimagan” narsa – Xudo bergan talant kerak* (O‘.Hoshimov, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”). Ko‘rinadiki, *arzimagan* so‘zining “arziydigan” ma’nosida namoyon bo‘lishi natijasida bir lisoniy belgiga ikki ma’no (uzual va okkazional) to‘g‘ri kelib qolgan va belgi qonunining buzilishiga sabab bo‘lgan. Yoki *Ulfatlar orasida ismi aytilmay, xotin olib, xotin qo‘yavergani uchun “Boz” laqabi bilan sharaflangan Obid gapni ko‘paytirmay, shifoxona tomon shoshildi* (Tohir Malik. Xazonrezgi”) misolidagi *sharaflanmoq* so‘zining “hurmat bilan tilga olinmoq” ma’nosida emas, balki “hurmatsizlik, mazax bilan tilga olinmoq” ma’nosida voqelanganda ham yuqoridagi singari asimmetrik munosabat bor. Bu kabi enantiosemik ma’nolar nutqiy bo‘lgani uchun mazkur so‘zdagi asimmetriya ham ayni kontekstlar uchun xos.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, lisoniy belgidagi asimmetriya masalasini nazardan qochirgan ko‘pgina tilshunoslar enantiosemiyani normal axborot almashinuvini murakkablashtiruvchi hodisa, deb tushunadilar[47]. Ammo bizningcha, bu hodisa axborot almashinuviga ta’sir etmaydi. Negaki har qanday tinglovchi yoki kitobxon yuqoridagi “arzimagan narsa” deb baholanayotgan “Xudo bergan iste’dod”ni “arzimas narsa” tarzida qabul qilmaydi, balki “rosmana arziydigan narsa” sifatida idrok etadi. Bu kabi ma’noni idrok etishda ham tinglovchida hech qanday murakkablik yoki aqliy zo‘riqish sezilmaydi. Aksincha, bundan so‘zlovchi ham, tinglovchi ham estetik zavq oladi. Lisoniy belgi asimmetriyasining yana bir muhim jihati shuki, u kishi til faoliyatini bir qadar yengillashtirishga xizmat qiladi va bu bir polisemantik so‘z orqali birdan ortiq

[47] Горелов И.Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 86-96.

ma’noning idrok qilinishida ko‘rinadi. Enantiosemik so‘zlar ham mazkur jihati bilan tilni “lingvistik do‘zax” (O.Espersen) bo‘lib qolishdan asrashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, so‘zning shakl-ma’no munosabatidagi mutanosiblik monosemantik so‘zlarga xos bo‘lsa, mazkur munosabatning nomutanosibligi polisemantik birliklar singari enantiosemik birliklarga ham xosdir. Shu ma’noda enantiosemiya shakl-ma’no asimmetriyasining tipik ko‘rinishidir.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Til va tafakkur munosabati haqida fikringizni ayting?
2. Til tafakkurni belgilaydimi?
3. Tafakkur milliyligi til milliyligimi?
4. Ziddiyatning lisoniy voqelanish shakllarini aytib bering.
5. Antonimiya hodisasi haqida fikringiz?
6. Antisemiya haqida fikringiz?
7. Enantiosemiya haqida fikringiz?
8. Ziddiyat va shakliy-ma’noviy nomuvofiqlikni tushuntiring?
9. Til birliklarining shakli va ma’nosi (mazmuni) o‘rtasida nomuvofiqlikning mavjudligi lisoniy faoliyat uchun qanchalar zarur?
10. Ko‘p ma’noli so‘zlarning asimmetrik tabiati haqida tushuntiring.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva D. O‘zbek tilida antisemiya. Filol.fan.nomz...diss.– T., 2010.
2. Батищев Г.С. Противоречие как категория диалектической логики. – М.: Высшая школа, 1963. – 120 с
3. Бессонова Л.Э. Глагольная префиксальная энантиосемия в русском языке. Дисс. ...канд.филол.наук. – Днепропетровск, 1983.
4. Глухов В.П. Основы психолингвистики. – М.: Высшая школа, 2005.

5. Исабеков М. Ҳозирги ўзбек тилида лексик антонимлар: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 1973.
6. Кодухов В.И. Введение в языковедение. – М.: Просвещение, 1979. – С.82 – 84..
7. Mahmudov N., Odilov Yo. So‘z ma’no taraqqiyotida ziddiyat. O‘zbek tili enantiosemik so‘zlarining izohli lug‘ati. T.: Akademnashr, 2014. – 288 b.
8. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
9. Ополев П.В. Противоречие в диалектике и синергетике // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2010. №1 (5). – С.110.
10. Платон. Сочинения в трех томах. – М.: Мысл, 1968. Т. 1.
11. Шмелев А.Г. Введение в эксперименталная психосемантику: теоретико-методологические основания и психодиагностические возможности. – М.,
12. Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар: Филол. фан. ном. … дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 1973.
13. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЕ, 2002. – Б.134.

2-MAVZU:

TILNINGI IDIOETNIK TABIATI VA ENANTIOSEMIK MA'NOLARNING PAYDO BO'LISHI. ENANTIOSEMIYA – UNIVERSAL LINGVISTIK HODISA. ENANTIOSEMIYANING LEKSIK MAQOMI

REJA:

1. ***Tilning idioetnik tabiati***
2. ***Til va etnos***
3. ***Enatiosemiya – universal lisoniy hodisa sifatida***
4. ***Enantiosemik ma'nolarning paydo bo'lishi***
5. ***Enantiosemiyaning leksik maqomi.***

Tayanch iboralar: *til, idioetniklik, etnos, etnomadaniyat, universal lisoniy hodisalar, sinkretizm, ma'no taraqqiyoti, adabiy til va sheva, grammatik qurshov, polisemiyaning maxsus ko'rinishi.*

Xalqlar o'z jamoasini, urf-odatlarini, hatto dini va yashash joyini almashtirishi mumkin, ammo tilini emas.
(Vladimir Neroznak)

Tilning idioetnik tabiati. Hayot yaratilishidayoq mo'jiza maqomida bo'lgan tilning tabiati borasida bilimlarimiz har qancha boyimasin, hali bu ne'mat bag'riga jo bo'lgan siru sinoatlarning oxiri ko'ringani yo'q. Ana shu nihoyasiz nodirliklarni to'g'ri va tugal o'rganish ilinjida tilshunoslik fani ancha-muncha tadqiq ko'chalariga kirib chiqdi, tilni turli rakurslarda tadqiq etib ko'rdi. Pirovardida tilni uning sohibidan ajratib emas, balki yaxlit, ya'ni tilni uning egasi bo'lgan xalq tarixi, madaniyati, turmush tarzi, milliy mentaliteti, diniy e'tiqodi,

urf-odat va an’analari kabilar bilan birgalikda tadqiq etish, olam va odam bilan bog‘liq bu omillarning tilga qay darajada ta’siri borligini ochib berish maqbulligi ma’lum bo‘ldi. O‘zbek tili va o‘zbek etnosi, ularning bir-biriga ta’siri muammosi ham ana shunday dolzarb masalalardandir.

Til va etnos haqida so‘z borar ekan, “Etnos o‘zi nima?”, “Etnogenez qanday jarayon?” degan masalalarga to‘xtab o‘tish joiz. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da etnos va etnogenez shunday ta’riflanadi: “Etnos – kishilarning ma’lum bir tarixiy davrda va ijtimoiy tuzumda tarkib topgan alohida barqaror etnik uyushmasi. Etnik birlik etnografik jihatdan «xalq» ma’nosini anglatsa-da, lekin unga nisbatan aniq tushunchadir. Etnik birlik muayyan sharoitda tabiiy tarixiy taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan uyushmadir. Fanda etnik birlik bosqichining 3 turi mavjud: qabila, elat va millat”.[48] “Etnogenez (etno... va ...genez) xalqning kelib chiqishi. Tarix fanidagi mavjud ilmiy metodologik ishlanmaga ko‘ra, etnogenez deb ilgaridan mavjud bo‘lgan bir necha etnik komponentlar asosida yangi etnos (elat)ning vujudga kelishiga aytiladi. «Etnogenez» tushunchasi fanga ilk marotaba 20-asrning 20-yillarida N.Ya.Marr tomonidan kiritilgan”[49].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa quyidagicha tavsiflanadi: “Etnos – xalq, qabila; etnik birlik, umumiylik. *Garchi til asosiy etnik belgilardan biri hisoblansa-da, bu etnosning yagona xarakterli ko‘rsatkichi bo‘la olmaydi.* F. Salomov, Tarjima nazariyasiga kirish”.[50] “Etnogenez – muayyan xalqning kelib chiqishi, nasl-nasabi, paydo bo‘lishi”[51].

Ma’lumki, etnos shakllanishining asosiy omillari hududiy yaxlitlik, etnik tarkibning umumiy kelib chiqishga egaligi, tarixiy taqdir va tildir. Boshqa etnik belgilar keyin ham shakllanaveradi. Bu xo‘jalik va boshqa turmush shakllarining tabiat ta’siri bilan rivojlanishi, boshqa xalqlar bilan aloqalar natijasida etnosda moddiy va ma’naviy madaniyatning xarakterli belgilari to‘planishi va etnik o‘z-

[48] Этнос / Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. 246-бет.
[49] Этногенез / Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. 247-бет.
[50] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. 62-бет.
[51] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдли. 5-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. 61-бет

o‘zini anglashning boshlanishida ko‘rinadi. Etnik o‘z-o‘zini anglash birinchi galda etnos nomi – etnonimning tanlanishida, yashash joyiga nom berilishida aks etadi. B.B.Proxorovning aytishicha, bir dinga e’tiqod qilish ham etnosni shakllantirishi mumkin.[52] Biz ham buni inkor etmagan holda etnos shakllanishi va keyingi rivojlanishida tilning ahamiyatliligi masalasini quyida tahlilga tortamiz.

Etnosning shakllanishida tilning o‘rni masalasida qarashlar bir xil emas. Ayrim olimlar til etnos yuzaga kelishining asosiy belgisi desalar, ayrim olimlar til bu jarayonda ustuvor emas, deb hisoblaydilar. Masalan, I.I.Sreznevskiy muayyan kishilar guruhining etnos sifatida shakllanishida etnik o‘z-o‘zini anglashning to‘rt (etnik, madaniy, lisoniy, diniy) omili xizmat qilishini va bunda til omilining ustuvor bo‘lishini aytadi.[53] A.Asqarovrovning fikricha ham, etnik uyushma paydo bo‘lishining bosh sharti til bo‘lib, u etnos ijtimoiy mavjudligining asosi hisoblanadi.[54]

N.S.Trubeskoy esa etnos shakllanishida tilning birlamchi ahamiyatga egaligiga qo‘shilmaydi. Uningcha, “bizga yaqin bo‘lgan davrda til va etnik uyushma o‘rtasiga tenglik belgisini qo‘yish mumkin emas. Birinchidan, xalq o‘z tili bilan katta miqdordagi etnik birliklardan tashkil topadi. Shu ma’noda ingliz xalqi o‘ndan ortiq, gruzin xalqi o‘n yetti etnik birlikdan tarkib topgan. Ikkinchidan, bunda til va dialektni ajratish qiyin bo‘lib, u lingvistik emas, ijtimoiy-siyosiy masaladir. Muayyan lisoniy yasalma (yoki yangi til fakti) turli ijtimoiy-siyosiy sharoitda turlicha ko‘rib chiqilishi, bitta til hodisasiga har xil yondashilishi mumkin. Masalan, Bolgariyada dialekt sanalgan makedon tilining Makedoniyada davlat tili maqomidaligi bunga misoldir. Uchinchidan, bu eng asosiysi, bir tildan bir necha xalq foydalanadi (masalan, ingliz tilidan Angliya, Amerika, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiyada; ispan tilidan Markaziy va Janubiy Amerikadagi xalqlar) yoki bir xalq bir necha tilda so‘zlashadi. Masalan, Shveysariyada rasmiy

[52] Прохоров Б.Б. Этнос / Экология человека. Понятийно-терминологический словарь. Ростов-на-Дону, 2005.
[53] Срезневский И.И. Мысли об истории русского языка. – М., 1959. – С. 16.
[54] Асқаров А. Ўзбек халқи этногенези ва этний тарихининг баъзи бир назарий ва илмий-методологик масалалари / Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих» мавзусидаги илмий-назарий семинар материаллари. – Тошкент, 2004. 3 – 13-бетлар.

va kundalik turmushda to‘rt til qo‘llanadi.[55] Ikki, uch tilli etnoslar (paragvay, lyuksemburg, lujitsa serblari) ham mavjud. Bir xalq o‘zaro qarindosh bo‘lsa-da, turli tillardan foydalanadi. Masalan, mordva, mari, norveg xalqlari[56].

Mashhur rus tilshunosining ushbu fikri bir qarashda to‘g‘ri va maqbuldek tuyuladi, chunki bir xalqning bir necha tildan yoki bir necha xalqning bir tildan foydalanishi bor gap. Ammo yuqoridagi mulohazada etnos va xalq tushunchalari o‘zaro farqlanmagan. Shuningdek, uning qarashlarida boshqa qo‘shilib bo‘lmaydigan o‘rinlar ham borki, buni quyida ko‘rib o‘tamiz:

birinchidan, til etnos shakllanishida eng asosiy omil deyilganda, bir necha etnik birlikdan tashkil topadigan **xalq nazarda tutilgani yo‘q** (ta’kid bizniki – Yo.O.), balki bir tilda so‘zlashadigan etnik uyushma (etnos, millat) tushunilmoqda. Shu ma’noda O‘zbekiston xalqi va o‘zbek etnosi (yoki millati), Britaniya xalqi va ingliz etnosi (millati) boshqa-boshqa tushunchalardir;

ikkinchidan, bir etnosni boshqa etnosdan farqlovchi asosiy belgi uning tilidir. To‘g‘ri, diniy e’tiqod va tashqi ko‘rinishga ko‘ra ham etnoslar farqlanishi mumkin, ammo dini bir bo‘lgan har xil etnoslar yoki tashqi ko‘rinishi o‘xshash (qozoq va qirg‘iz; yapon, xitoy va koreys), ammo tillari har xil etnoslar ko‘p. Demakki, muayyan kishilar guruhining (ular bir tilning turli dialektlarida so‘zlashuvchi kishilar uyushmasining) bitta etnos sifatida birlashishi va shakllanishida tillarining birligi hamda shu tildagi maslak umumiyligi asos bo‘ladi, shunday til ularning ona tilisi sifatida tan olinadi;

uchinchidan, turli xalqlarning bitta tilda (masalan, Markaziy va Janubiy Amerika xalqlarining ispan tilida) va bir xalqning har xil tillarda (Shveysariya misolida bunga yuqorida to‘xtaldik) so‘zlashini quyidagicha izohlash mumkin: 1)

---

[55] Биз “Википедия”дан шу билан боғлиқ маълумотларни излаганимизда маълум бўлдики, Швейцарияда немис, француз, итальян ва ретороман (эски роман) тилларидан фойдаланилар экан. Қонунчиликка кўра бу тилларнинг ҳаммасини билиш шарт бўлмай, кишилар, асосан, бир ёки икки тилдан фойдаланадилар. Аҳолининг асосий қисми – 63,7 фоизи немис тилининг швейцария вариантини, 20,4 фоизи француз тилининг швейцария вариантини, 6,5 фоизи итальян тилининг швейцария вариантини, 0,5 фоизи ретороман тилини қўллайди.

[56] Трубецкой Н.С. К проблеме русское самопознание. Собр.стат. – Париж: Издательство Евразийское книгоиздательство, 1927. С. 3–7.

Markaziy va Janubiy Amerika xalqlari so‘zlashadigan til, aslida, bitta til emas, balki shu xalqlarning jo‘g‘rofiy joylashuvi, turmush tarzi, diniy e’tiqodi, urf-odat va an’analari, umuman, milliy-mental xususiyatlarini o‘zida qamragan mustaqil til ko‘rinishi – *lingua franka*[57]dir. Qolaversa, mazkur hudud kishilari etnos sifatida shakllanayotganda boshqa tilda gaplashgan bo‘lishlari kerakki, bu xalqlarning ispan tilidan davlat tili sifatida foydalanishi, avvalo, ispan mustamlakasi va shu mustamlakachilik mafkurasiga xizmat qiladigan til siyosati tufaylidir.

to‘rtinchidan, “til etnos shakllanishini belgilaydi”, “etnosni shakllantiruvchi muhim omil” deyilganda, etnos va til orasiga tenglik qo‘yilgani yo‘q, balki bir etnosni boshqa etnosdan, avvalo, tili orqali farqlab olinishi, til kishilar guruhini bir etnos, xalq sifatida birlashtirishi, etnos olam hodisalarini tili orqali anglashi, etnik madaniyat etnosning tilida yaratilishi, to‘planishi va avloddan avlodga yetkazilishi uqtirilmoqda;

beshinchidan, milliy o‘z-o‘zini anglashning to‘rt (etnik, madaniy, lisoniy, diniy) tarzi ichidan lisoniy omilning ustuvor deb talqin qilinishi sababi yer yuzida etnik xususiyatlari, diniy e’tiqodi va madaniy qadriyatlari umumiy bo‘lgan xalqlarning turli tillarda so‘zlashishi bu etnoslarning tili orqali farqlanayotganini ko‘rsatadi. Masalan, islom diniga e’tiqod qiluvchi millatlarning tillari turlicha ekanligini esga oling;

oltinchidan, bugungi kunda Shveysariya yoki Belgiyada xalqning bir necha tildan foydalanishi ularning alohida etnos sifatida shakllanishiga bog‘liq emas, bu davlatlardagi til siyosatiga aloqador bo‘lib, ko‘ptillilik keyingi jarayonlarning mahsulidir. Bu xalqlar etnos sifatida shakllanayotganda bitta tildan – ona tilidan foydalangan. Shveysariyada aholining asosiy qismi nemis tilining fransuzcha variantidan foydalanishi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Zero, “har bir til milliy o‘ziga xoslikning ifodasi bo‘lishga intiladi”[58].

---

[57] *Lingua franka* ҳақида батафсил қаранг: Раҳимов Ғ. Инглиз тили Ўзбекистонда: социолингвистик ва прагматик кўрсаткичлар. – Тошкент: Тамаддун, 2017. 32–47-бетлар.

[58] Сепир Э. Избранные труды по языкознание. – М., 1993. – С. 245,

Til va etnos. Til etnik o‘z-o‘zini anglashda muhim o‘rin tutadi. Etnik o‘z-o‘zini anglashning birinchi belgisi – etnik tarkibga mos etnonimning tanlanishidir. Ikkinchi belgisi – etnos tilining rasmiy til sifatida tan olinishi, uning rivoji uchun shart-sharoit yaratilishidir. Etnik o‘z-o‘zining anglashning boshqa belgilari, masalan, etnik an’analarga sodiqlik, madaniy-ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash kabilar ham milliy til orqali avlodlar ongiga singdiriladi.

O‘zbek tili o‘zbek etnosining ona tili sifatida o‘zida shu etnosga xos eng qadimiy xususiyatlarni, etnomadaniyatimizning nodir namunalarini o‘zida saqlagan, vorisiyligini ta’minlagan. Shu ma’noda turkiy madaniyatning qadim namunalari toshbitiklar, tarixiy-badiiy yozma manbalar, folklor asarlari hamda milliy an’ana va urf-odatlar o‘zbek tilining kumulyativ vazifasi tufayligina mavjud. So‘z va iboralar, maqol va matallarning ma’noviy mundarijasini tahlil qilish orqali ham til etnos madaniyatining nechog‘li ifodachisi ekanini bilib olish mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilidagi aksar so‘zlar semantikasidagi etnomilliy jihatlar o‘zbeklarning turmush tarzi, kasb-kori, urf-odati, iqlim sharoiti bilan bog‘liq o‘rinlarda qabariq ifodalanadi. Masalan, *alak, atlas, adras, banoras, beqasam, bo‘z, olacha, so‘zana, jiyak, do‘ppi, chopon, to‘n* kabi so‘zlar milliy gazlamachilik va kiyinish madaniyatiga; *ayron, atala, go‘ja, kulchatoy, norin, palov, somsa, tandir, halim, holva* kabi so‘zlar pazandalik madaniyatiga; *kiryuvdi, maslahatoshi, savziarchar (savzito‘g‘rar), beshikkertti, maslahatoshi, supraochar, kuyovnavkar, kelinsalom, charlari, yuzko‘rdi (yuzochdi), otako‘rdi, otayupatar* kabi so‘zlar etnografik madaniyatiga; *Baxrin, Jaloyir, Kaltatoy, Nayman, Qang‘il, Qatag‘on, Qo‘ng‘irot, Qirq, Yuz, Ming* kabi etnonimlar etnik kelib chiqishga doir tushunchalarning lisoniy ifodalaridir.

Enatiosemiya – universal lisoniy hodisa sifatida. Enantiosemiyaning yuzaga kelish omillari. Tilshunoslikda enantiosemiya hodisasining yuzaga kelish omillari borasida turli qarashlar mavjud. Buning sababi, avvalo, mazkur

hodisaning o‘ziga xos tabiatga ega ekanligi, shuningdek, uning yuzaga kelishida bir emas, bir necha nolisoniy va lisoniy omillar ishtirok etganligi bilan bog‘liq.

Enantiosemiya borasidagi tadqiqotlardan ma’lumki, so‘zda qarama-qarshi ma’nolarning paydo bo‘lishiga qadim so‘zlar aksar qismining g‘oyat qorishiq va umumiy ma’noliligi sabab bo‘lgan[59]. Ba’zi ishlarda esa enantiosemiya qadim so‘zlarga xos umumiy va noaniq ma’nodan muayyan kontekstda yuzaga chiqadigan oraliq uchinchi ma’noning natijasi, deb tushuntiriladi[60]. Yoki so‘zda dastlab farqlanmagan qorishiq qarama-qarshi ma’nolar vaqt o‘tishi bilan asta-sekin farqlana borgan: enantiosemiya ana shu farqlanishning mahsulidir[61]. Umuman, tadqiqotlarda enantiosemiyaning vujudga kelishi borasida qadim so‘zning qorishiq va g‘oyat umumiy ma’noli bo‘lganligi dastlabki bosh omil sifatida ko‘rsatiladi. Bu mavzuga doir barcha ishlarda ma’qullanadi[62].

Ba’zi tilshunoslar esa qadim so‘zlarda qarama-qarshi ma’noning yuzaga kelishini o‘sha davr tafakkur tarzi bilan bog‘laydilar. Masalan, rus tilshunoslaridan biri, antonimlik qadimgi tafakkurning zaruriy belgisi bo‘lmagani, qadimgi kishilarning o‘zlarini o‘rab turgan olam, undagi narsa-hodisalar mohiyatini farqlay bilmagani sababli o‘zaro qarama-qarshi tushunchalar bir so‘z bilan ifodalanavergan, deb aytadi[63]. Ye.V.Shelestyuk ham arxaik tafakkurning qorishiq idrok qilishga xoslanganini ta’kidlaydi va qiziq faktni keltiradi. Uning fikricha, qadimgi indeyslar uchun trubka tutatish ham “tinchlik”, ham “urush” timsoli bo‘lib xizmat qilgan[64].

Bizningcha ham, qarama-qarshi tushunchalarni bir so‘z bilan atash arxaik tafakkur tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan, ammo arxaik tafakkur sohiblarini borliqdagi

---

[59] Шерцль В.И. Кўрсатилган мақола. – Б. 261.
[60] Булаховский Л.А. Кўрсатилган асар. – Б. 78.
[61] Новиков Л.А. Кўрсатилган асар. – Б. 231-240.
[62] Маркова Е.М. О причинах и появлениях энантиосемии в русском языке в межславянском аспекте / Вестник Нижегородского ун-та, 2010. – № 4. – С. 631-635; Шелестюк Е.В. Диахронический аспект энантиосемии. http://shelestiuk.narod.ru/Publications.htm.
[63] Иқтибос ушбу манбадан олинди: Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – М., 1953. – Б. 40-41.
[64] Шелестюк Е.В. Диахронический аспект энантиосемии. http: // shelestiuk.narod.ru/Publications.htm. Бу ҳақда яна *қаранг*: Wheelwright P. The archetypal symbol. //Perspectives in literary symbolism. V.I. The Pensylvania State University Press. University Park; London, 1968.

barcha narsa-hodisalarni ajratmay, qorishiq idrok etavergan deb qarash u qadar to‘g‘ri ham emas. Negaki arxaik tafakkur sohiblari ham hamisha o‘zlarini o‘rab turgan olam va undagi narsa-hodisalar mohiyatini bilishga intilganlar. Shu bois tabiat va undagi narsa-hodisalarning qanday paydo bo‘lgani, ularning vujudga kelishi bilan bog‘liq omillar xususida dastlabki mifologik dunyoqarash shakllangan. Buni R.A.Budagovning quyidagi fikri ham tasdiqlaydi: Agar arxaik tafakkur egalari borliqdagi narsa-hodisalarni farqlamay, qorishiq idrok etavergan degan qarashi to‘g‘ri bo‘lganda edi, hozirgi tillarda antonimlarning mavjudligi masalasini tushunib bo‘lmas edi. Faqat arxaik tafakkur sohiblari borliqdagi narsa-hodisalarni hozirgi zamon kishisidan biroz farqli tarzda ajratganlar, ya’ni har xil turdagi narsa-hodisalarni ajrata bilganlari holda, ba’zi bir turdagi hayvon, qush, o‘simlik va boshqa abstrakt tushunchalarni farqlay olmaganlar[65].

O‘zak ma’nosining qorishiqligi qadimgi turkiy tildagi so‘zlarga ham xos bo‘lgan. Masalan, *čïqïš* so‘zida o‘zaro zid “foyda, naf, manfaat” va “chiqim, xarajat” (QTL. – B. 151) ma’nolari bo‘lgan[66]. Ko‘rinadiki, ikki zid ma’no bir so‘z bilan ifodalangan. Hozirgi o‘zbek tilida bu tushunchalar alohida birliklar – *kirim* va *chiqim* so‘zlari bilan ifoda etiladi. *Tegit* (tegin) so‘zi ham “qullar” va “shahzodalar” ma’nosini anglatgan[67].

Turkiy tilning avvalgi davrlarida so‘zning qarama-qarshi tushunchalarni anglatishi turkiy xalqlarning mo‘tabar manbasi bo‘lgan “Devonu lug‘otit turk” asaridagi ba’zi so‘zlarda uchraydi. Masalan, “Devon”da *öt* so‘zining “dori, davo” (*öt ichtim* – dori ichdim) va “og‘u, zahar” (*Beg aŋar öt berdi* – Bek unga zahar berdi) ma’nolarini anglatishi aytiladi (DLT. 1-jild. B.71). “Devon”dagi so‘z ma’nolariga xos bu xususiyatni atoqli tilshunos A.Nurmonov ham ta’kidlaydi[68].

---

[65] Будагов Р.А. Кўрсатилган асар, 1953. – Б. 40-41.

[66] Древнетюркский словарь. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургское отделение изд-во “Наука”, 1969. – С. 151. Кейинги ўринларда саҳифа ичида ҚТЛ тарзида берилади.

[67] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-жилд. – Тошкент.: Фан, 1960. – Б. 337, 391. Кейинги ўринларда саҳифа ичида ДЛТ тарзида берилади.

[68] Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Камолат-қатортол, 2000. – Б. 40.

Biz ham enantiosemiyaning paydo bo‘lishi borasidagi yuqoridagi qarashga qo‘shilamiz. Darhaqiqat, qadim so‘zlarga xos umumiy va qorishiq ma’nolilik ajdodlarimizning olam va undagi narsa-hodisalarni anglash va farqlash darajasi bilan bog‘liq. So‘z semantik strukturasining qorishiq tabiatli ekanligi enantiosemiya yuzaga kelishining dastlabki omilidir.

Nemis tilshunosi K.Abel misr va bir qator Hind-yevropa oilasi tillari misolida *boshlang‘ich enantiosemiya* faraziyasini ilgari surar ekan, uning yuzaga kelishi, V.I.Shersl aytganidek, tafakkurning qoloqligi va tilning qashshoqligidan emas, balki narsa-hodisalarning qiyoslanishi natijasi ekanligini aytadi: agar olam faqat *yorug‘lik*dan iborat bo‘lganida edi, *zulmat* tushunchasi bo‘lmas va bu tushunchalar farqlanmas ham edi. Yoki *fazilat* bo‘lmaganda, *illat* tushunchasi farqlanmagan, uni ifodalovchi so‘zga ehtiyoj ham bo‘lmasdi. So‘zda qarama-qarshi ma’nolarning mavjudligi tilning qashshoqligi yoki shu til mansub xalqning rivojlanganlik darajasi bilan bog‘liq emas. Agar shunday bo‘lganida qadimdayoq dunyo tamadduni rivojiga sezilarli ta’sir o‘tkazib kelgan misrliklarning yoki bugungi rivojlangan xalqlarning tilida enantiosemik so‘zlar bo‘lmas edi. Vaholanki, miloddan avvalgi davrlarda misrliklar tilidagi *ken* co‘zi “kuchli” va “zaif” ma’nolarini anglatgan. Ular bu kabi ma’nolarni farqlashda turli mimika hamda grafik belgilardan foydalanganlar. Masalan, tayoq ko‘tarib turgan kishining tasviri “kuchli”, o‘tirgan kishi tasviri esa “zaif” ma’nolarini bildirgan. Ammo leksikadagi bu jihat misrliklar tafakkur tarzining qoloqligini ko‘rsatmaydi[69]. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ba’zi tilshunoslarning enantiosemiya rivojlanmagan, qashshoq tillarda ko‘plab kuzatiladi degan qarashi shubhali.

Tilshunos Sami Ali ham arab tilida enantiosemik so‘zlarning ko‘p ekanligini va bu shu xalq tilining qashshoqligidan emas, balki boyligidan dalolat berishini ta’kidlaydi[70]. Shuningdek, arab tilshunosi Abu Bakr ibn al-Anbariy tomonidan

[69] Abel C. Кўрсатилган асар. – Б. 4.
[70] Sami Ali. Langue arabe et langue mystique. Les mots aux sens oppose et le concept d’inconscient. – P. 188.

enantiosemik so‘zlar lug‘ati – “Kitab al-azdad” tuzilgani ham bunday so‘zlar tilning o‘ziga xos boyligi ekanini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, til taraqqiy etib borgani sayin lisoniy birliklarda ham turli ma’noviy o‘zgarishlar, xususan, ma’no taraqqiyoti yuz beradi. Bu lisoniy qonuniyatning, avvalo, metaforik ma’no taraqqiyoti asosida bo‘lishini o‘z vaqtida A.A.Potebnya, V.G.Gak kabilar alohida ta’kidlaganlar[71]. Enantiosemiyaning yuzaga kelishida ham ayni omil ishtirok etadi, ya’ni lisoniy birlikning zid ma’no kasb etishi ayni universal qonuniyatga asoslanadi. Bunda “so‘zning mavjud ma’nosi saqlangan holda unga qarama-qarshi ma’no yuzaga keladi yoki so‘zdagi mavjud bir ma’noning iste’moldan chiqishi evaziga unga zid boshqa bir ma’no paydo bo‘ladi”[72].

Metaforik ma’no taraqqiyoti – so‘zdagi mavjud ma’no saqlangan holda unga zid ma’noning yuzaga kelishini eski o‘zbek tilidagi *jur’akash, qadahkash* so‘zlaridagi “may quyuvchi kishi” va “may ichuvchi kishi” ma’nolari misolida ko‘rsatish mumkin (O‘KAAQL – B. 115; NAL. – B. 236; ANATIL. I jild. B. 600). Mazkur so‘zlar dastlab “may quyuvchi kishi” ma’nosiga ega bo‘lgan va ma’no taraqqiyoti natijasida “may ichuvchi kishi” ma’nosini kasb etgan. Qiyoslang: *Ey nigori mahvashim, ey harifi jur’akashim, Tut qadahki, behad erur ishq tobidin otashim* (Alisher Navoiy, “Muhokamat ul- lug‘atayn”); *Bukun Farhod ozodavashdur Ki yo‘qluq bodasidin jur’akashdur* (Alisher Navoiy, “Farhod va Shirin”).

Yana qiyoslang: *Bir qadahkash mug‘bacha ko‘nglum olibtur dayr aro, Dinu taqvo jonibidin, ey xayoli xom, ket* (Alisher Navoiy, “Favoyid ul-kibar”); *Ul kunga deginchakim parivash, Bo‘ldi ajal ilgidin qadahkash* (Alisher Navoiy, “Layli va Majnun”).

Enantiosemik ma’nolarning paydo bo‘lishi. Hozirgi o‘zbek tilida ham bir qator so‘zlar metaforik ma’no taraqqiyoti natijasida enantiosemiklik kasb etgan.

[71] Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М., 1976. – С. 434; Гак В.Г. Метафора в языке и тексте. – М., 1988. – С. 11-18.
[72] Прохорова В.Н. Кўрсатилган мақола, 1976. – Б. 157.

Bular sirasiga *avlod* so‘zining “o‘zidan keyingi nasl” va “o‘zidan oldingi nasl” ma’nolarini kiritish mumkin. O‘TILidagi ma’lumotga ko‘ra, mazkur so‘z dastlab “ota-bobodan qolgan nasl” ma’nosiga ega bo‘lgan, keyinchalik dastlabki ma’no saqlangani holda “ota-bobo va uning nasli”, “sulola”, “zot” ma’nolari yuzaga kelgan.

So‘zdagi mavjud bir ma’noning eskirishi evaziga unga zid boshqa bir ma’no paydo bo‘lishi eski o‘zbek tilidagi *zomin* so‘zida kuzatiladi. Mazkur so‘z dastlab “birovga kafil”, “kafillik” ma’nosini anglatgan[73]: *Majiduddin Muhammadki, olam mashhuridur, ta’rifg‘a ehtiyoj emas. Podshoh ani yozg‘urg‘onda andin itloqig‘a zomin tilagandur* (Alisher Navoiy, “Xamsat ul-mutahayyirin”). Yoki *Zulf aro asra Navoiy ko‘nglin eldin istama, Telbani band ichra zoming‘a kishi topshurmamish* (Alisher Navoiy, “Navodir ush-shabob”). Keyinchalik bu so‘zning semantik strukturasida “yuz bergan ko‘ngilsiz ishga sababchi, aybdor” ma’nosining hosil bo‘lishi bilan avvalgi ma’no iste’moldan chiqib ketgan: *Bunda qutulmog‘im mushkuldir gumon, O‘n mahramga bo‘ldim oxiri zomin* (“Bahrom va Gulandom”). Ko‘rinadiki, *zomin* so‘zidagi “birovning kafilligini olmoq” ma’nosining eskirishi evaziga zid ma’no yuzaga kelgan.

Savol tug‘iladi: so‘zda bu kabi qarama-qarshi ma’noli so‘zlarning Alisher Navoiy asarlari yoki hozirgi o‘zbek tilida mavjudligini narsa-hodisalarning yetarlicha farqlanmaganlik natijasi deb izohlash mumkinmi? Albatta, yo‘q. Negaki qorishiq idrok etish arxaik tafakkur davri uchun xos bo‘lgan va kishilik taraqqiyotining keyingi bosqichlarida tushunchalar sezilarli farqlangan edi. Shunday ekan, bu holat so‘z ma’no taraqqiyotining mahsulidir.

Enantiosemiya yuzaga kelishining yana bir omili so‘zlovchining subyektiv munosabati asosida lisoniy birlikning zid ma’noda namoyon bo‘lishidir. Faqat nutqqa xos bu holat, ko‘p hollarda, lisoniy birlikning uzual va okkazional

[73] Шамсиев П, Иброҳимов С. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1953. – Б. 127. Кейинги ўринларда саҳифа ичида ЎКААҚЛ тарзида берилади; Шамсиев П, Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 256. Кейинги ўринларда саҳифа ичида НАЛ тарзида берилади; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент.: Фан, 1983. – Б. 645. Кейинги ўринларда саҳифа ичида АНАТИЛ тарзида берилади.

ma’nolari o‘rtasida yuzaga keladi. Masalan, *Maqsud shoshilib, lekin shovqinsiz yurib kelib, o‘zini ravonga urdi* (Xurshid Do‘stmuhammad, “Kuza”); *Zaynabning qaytganidan xabar topgan ayollar yo‘qlab chiqishdi. So‘ng “bozorga birrovgina o‘tgan” ammasi “shoshilib” yetib keldi* (Tohir Malik, “Shaytanat”) misollaridagi *shoshilib* so‘zining uzual “oshiqmoq, ildamlik bilan harakat qilmoq” va okkazional “oshiqmasdan, bemalol harakat qilmoq” ma’nolari o‘rtasidagi zidlik shunday tipdagi enantiosemiyadir. Bunday enantiosemiya yuzaga kelganda har doim so‘zning okkazional ma’nosi uzual ma’noga zidlanadi, so‘zlovchining subyektiv bahosi ham okkazional ma’noda bo‘ladi.

N.Mahmudov ham baholash jarayoni haqida to‘xtalar ekan, u yoki bu narsa-hodisani “yaxshi-yomon” tarzida baholash dunyodagi barcha tillarga xos universal kategoriya ekanligini ta’kidlaydi[74]. Mazkur tip enantiosemiya ham ana shu universal kategoriyaning o‘ziga xos ifodalanish shakli bo‘lib, u muayyan subyektiv munosabat natijasidir. Masalan, *Ssenariy muallifi bo‘lmish Farhod Ramazon “shu xontaxta”chi yaltiroq bolani qo‘yinglar”, deb boshida oyoq tiragan edi, dastlabki videosinovni nazardan o‘tkazgach, ko‘nmay iloji qolmadi: butunlay boshqa qiyofaga kirib, ko‘ngildagi qahramonning o‘zi bo‘lib ketibdi, kasofat!* (Erkin A’zam, “Shovqin”) misolidagi *kasofat* so‘zining ma’nosi – *Ishqilib, shu... dumaloq xat o‘lgur bir kuni o‘zingizni ham dumalatib ketmasa go‘rga edi!... – Ho‘, nafasingni issiq qil, kasofat!* (H.Toshmatov, O‘zAS) parchasida qo‘llangan *kasofat* so‘zidagi ma’nodan ijobiy bahoga egaligi bilan farq qiladi.

Enantiosemiyaning affiksatsiya natijasida yuzaga kelishi va mazkur omilning rus, ingliz, nemis va boshqa bir qator flektiv tillarda unumli hodisa ekanligi tilshunoslar tomonidan e’tirof etilgan[75], ammo o‘zbek tilida ushbu omil asosida enantiosemiya yuzaga keladi, deb bo‘lmaydi. Umuman, tadqiqotchilarning affiksatsiya orqali enantiosemiya hosil bo‘lishi haqidagi qarashlarini tushunish qiyin. Negaki asosga yasovchi qo‘shimcha qo‘shilar ekan, bir vaqtning o‘zida

[74] Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 1. – Б. 6.
[75] Булаховский Л.А. Кўрсатилган асар. – Б. 75-80; Новиков Л.А. Кўрсатилган асар. – Б. 229-232.

yasalmada ikki qarama-qarshi yoki qarama-qarshi bo‘lmagan ma’noning hosil bo‘lishi tilda kuzatilmaydigan hodisa. Bizningcha, tadqiqotchilar affiksatsiya natijasi deb hisoblayotgan enantiosemik ma’nolar, aslida, so‘z ma’no taraqqiyotning mahsulidir, ya’ni yasovchi qo‘shimcha yordamida hosil bo‘lgan yasalma ma’no taraqqiyoti natijasida yangi, ayni paytda zid ma’no kasb etadi. Masalan, o‘zbek tilidagi *bahosiz* so‘zida shunday ma’no taraqqiyoti ro‘y bergan. Dastlab *baho* so‘ziga *-siz* qo‘shimchasining qo‘shilishi natijasida “qadri, qiymati yo‘q” ma’nosi yuzaga kelgan. Masalan, “Hibat ul-haqoyiq”dan olingan quyidagi parchada buni ko‘rish mumkin: *Baholik dinar ul biliklik kishi, Bu johil biliksiz* ***bahosiz*** *kishi* (Bilimli kishi (qimmat) baholik dinordir, ilmsiz, johil kishi qimmatsiz yemishdir (mevadir)[76]. Keyinchalik tilning o‘ziga xos tabiiy tendensiyasi mahsuli o‘laroq, ayni so‘zda “qadri, qiymati baland” ma’nosi hosil bo‘lgan. Qiyoslang: *E-e nimasini aytasan, bahosiz odam edi-ku!* (S.Anorboev, “Oqsoy”); *Ajab dunyo ekan, bu ishq dunyosi, ayo do‘stlar, Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku* (Cho‘lpon, “Yana oldim sozimni”).

Hozirgi o‘zbek tilidagi *gumondor* so‘zining “u yoki bu ishda gumon qilinayotgan shaxs” (– *Gumondoring bormi desa-chi? – Gumondorim ham yo‘q deyman* (Habibulla Qodiriy, “Eski Toshkantda”) va “biror kimsa yoki narsadan gumon, shubha qilayotgan, kimdadir gumoni bor shaxs” (*Asadbekdan bekorga gumondor bo‘lasiz. U bunaqa mayda ishlarni o‘ziga ep bilmaydi* (Tohir Malik, “Shaytanat”) qarama-qarshi ma’nolari ham ma’no taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan.

Enantiosemiya sintaktik qurshovga ko‘ra ham yuzaga keladi. Masalan, hozirgi o‘zbek tilidagi *chiqmoq* so‘zi orqali voqelanadigan zid ma’nolar chiqish va jo‘nalish kelishiklarining o‘ziga xos kombinatsiyasi bilan shakllangan enantiosemiyadir, ya’ni *chiqmoq* so‘zi semantik strukturasidagi potensial zid ma’nolarni sintaktik qurshov (-dan chiqmoq; -ga chiqmoq) yuzaga chiqargan.

[76] Адабиёт. Академик лицейларнинг биринчи босқич ўқувчилари учун мажмуа. – Тошкент: Чўлпон нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. – Б. 94.

Qiyoslang: *Keyin boshimda tura-tura, meni gapga sololmagach, u asta burilib xonadan chiqadi* (Erkin A'zam, "Shovqin") – "ichkaridan tashqariga harakatlanmoq"; *Indini kechqurun boshqa navbatchi – to'rvadek kampir Antonina Mixaylovna halloslab Farhodning xonasiga chiqib keldi* (Erkin A'zam, "Shovqin") – "tashqaridan ichkariga harakatlanmoq". Qarshilangan ma'nolarning bu tarzda shakllanishi uchun ham, albatta, muvofiq nutqiy vaziyat zarur.

Shuningdek, *hali* so'zining "nutqiy jarayondan oldin" va "nutqiy jarayondan keyin" ma'nolari o'rtasidagi enantiosemiya ham grammatik omillar, ya'ni zamon shakllarining o'zgarishi bilan hosil bo'lgan. Qiyoslang: *So'ng bor kuchini ko'ziga to'plab, bir-bir tikilib chiqdi-da, Shoyim Shaydulovning hali aytgan gaplarini esladi* (Sh.Xolmirzaev, "Bitikli tosh"); *Jahon shaharlarini uning atrofiga marjonday tizib qo'ygumizdur hali!* (Muhammad Ali, "Ulug' saltanat. Umarshayx Mirzo"). Ko'rinadiki, *hali* so'zi kesimi o'tgan zamondagi fe'l bilan ifodalangan jumlada "nutqiy jarayondan oldin" ma'nosini, kesimi kelasi zamondagi fe'l bilan ifodalangan jumlada "nutqiy jarayondan keyin" ma'nosini namoyon etmoqda.

Enantiosemiya yuzaga kelishining yana bir omili sifatida adabiy til va umumxalq tili (sheva) munosabatini ko'rsatish mumkin. Mazkur munosabat bilan enantiosemik ma'nolar yuzaga kelganda so'zning adabiy tildagi ma'nosi bilan shevaga xos ma'nosi o'rtasida qarama-qarshilik voqelanadi. Jumladan, adabiy tilda ijobiy baholi ma'no ifodalaydigan *ustakor* so'zi Qo'qon va atrof tuman shevalarida adabiy tildagidek "ustoz", "ishbilarmon" ma'nolarini emas (...*Ketmon chopyapti, qilich siltayapti, o'roq o'ryapti, otda uchyapti... – hammasi shundoq ustakorona* (Mirtemir, "Raqs"), "mug'ombir, makkor" kabi salbiy baholarni anglatadi: *Lutpixon ja ustakor xotin, uni qo'lidan osonlikcha qutulmaydi*[77].

Ta'kidlash lozimki, hozirgi o'zbek tilida *usta* so'zi asosida hosil bo'lgan ba'zi so'zlar semantikasida ijobiylikdan salbiylikka tomon siljish ro'y bergan. Bu esa, avvalo, *usta* so'zi semantikasining salbiy bahoni ham ifodalayotgani bilan

[77] Тўрақулов О. Қўқон группа шевалари лексикаси: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 1971. – Б. 61.

izohlanadi. Masalan, *Mening o‘g‘lim to‘g‘ri bola. Unaqa ustalikni bilmaydi* (Abbos Said, “Ko‘chada qolgan odam”).

Shuningdek, hozirgi o‘zbek adabiy tilida “birqancha”, “ancha” ma’nosini anglatadigan *birmuncha* so‘zi (*Elmurod shu ko‘yi birmuncha yurgach to‘xtadi-da, yo‘l chetidagi bir toshga o‘tirdi* (Parda Tursun, “O‘qituvchi”) Qashqadaryo shevasida “miqdori ko‘zda tutilgandan ancha oz”, “ozgina” ma’nosini anglatadi[78].

Yoki adabiy tilda “tutgan yerini kesadigan”, “o‘jar” ma’nolarini anglatadigan *qaysar* so‘zi Qorabuloq shevasida “landovur, bir ishni yolchitib qilolmaydigan” ma’nosida qo‘llanadi[79].

Bizningcha, adabiy tildagi ma’noga zid bo‘lgan shevadagi ma’no shu so‘zning dastlabki ma’nolaridan biri bo‘lishi mumkin. Negaki so‘zning semantik taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan keyingi ma’no dastlabki, ayni paytda, zid ma’noni adabiy tildan siqib chiqargani holda ba’zi shevalarda saqlanib qoladi. Yuqorida keltirilgan *birmuncha* so‘zining shevaga xos “miqdori ko‘zda tutilgandan ancha oz”, “ozgina” ma’nosi haqida ham shunday deyish mumkin. Eskirgan ma’nolarning xalq shevalarida saqlanib qolishini va adabiy tili ko‘plab dialektlarga asoslangan tillarda anchagina miqdorni tashkil etishini M.M.Makovskiy, T.M.Nikolaeva kabi tilshunoslar ham ta’kidlaydilar[80]. Tabiiy, til qancha ko‘p dialektli bo‘lsa, undagi enantiosemik so‘zlarning miqdori ham shuncha ko‘p bo‘ladi.

Adabiy til va sheva o‘rtasidagi enantiosemiya sifatida *kuchala* so‘zini ham ko‘rsatish mumkin. Mazkur so‘z hozirgi o‘zbek tilida “zahar” ma’nosini bildiradi[81]. Masalan: – *Buni bir balo qilmasak, tinchlik yo‘q, akaxonlar, - dedi shopir. – O‘zim o‘ldiraman! Kuchala topsam, bas!* (Erkin A’zam, “Aralashqo‘rg‘on”). O‘zbek tilining ba’zi shevalarida esa bu so‘z “dori, davo”

[78] Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – Б. 43.
[79] Бегалиев М. Ўзбек тили Қорабулоқ шеваси лексикаси: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ 2001. – Б. 121.
[80] Маковский М.М. Английская диалектология. Современные английские территориальные диалекты Великобритании. – М.: Высшая школа, 1980. – С. 79; Николаева Т.М. Из наблюдений над явлениями межъязыковой омонимии и энантиосемии // Вестник ВолГУ. Серия 2: Языкознание. 2005. – № 4. – С. 116.
[81] Мазкур сўз ҳозирги ўзбек тилида “заҳар” маъносида қўлланса ҳам, негадир ЎТИЛда қайд этилмаган.

ma’nosini ham bildiradi. *Kuchala* so‘zining “dori, davo” ma’nosini bildirishini J.Mamatov ham qayd etadi[82]. *Kuchala*ning ayni ma’nosi *kuchala non* birikmasida ham aks etgan.

Ba’zan muayyan so‘zning adabiy tildagi ma’nosi bilan argo sifatidagi ma’nosi zid kelib qoladi. Masalan, *kurort* so‘zi adabiy tilda “dam olish va davolanish muassasasi” ma’nosini anglatadi: – *Hamma kurortga, chet elga boradi, bizning nimamiz kam ulardan?* (Sh.Xolmirzaev, “Farzand”). Qamoqxona mahbuslari yoki ularning hamtovoqlari nutqida esa “qamoq, turma” ma’nosida qo‘llanadi: *Nadya Zelixonning ro‘parasiga o‘tirib, ikki qo‘lini jag‘iga tirab, unga tikildi. – Ko‘rinishing binoyi. “Kurort” yoqibdi, – dedi jilmayib* (Tohir Malik, “Shaytanat”).

So‘zda qarama-qarshi ma’no boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Bunda so‘z manba tildagi mavjud ma’nolari bilan birgalikda o‘zlashadi yoki mavjud ma’nolaridan biri olinadi va o‘zlashgan tilda yangi bir ma’no kasb etadi. Ba’zan ana shu yangi ma’no bilan so‘zning manba tildagi ma’nosi o‘zaro zid kelib qoladi. Masalan, arab tilidan o‘zlashgan *kunpayakun* so‘zida shunday holat yuz bergan. Bu so‘z arab tilida “butun borliq, mavjudot” va “yaratilish” ma’nolarini anglatgan. O‘zbek tiliga o‘zlashgandan so‘ng unda “yaratilish” ma’nosiga zid “buzilib, yanchilib, yo‘q bo‘lib ketmoq” ma’nosi paydo bo‘lgan: *Shahar o‘rtasidagi ikkita katta bino ham kunpayakun bo‘ldi* (Mirmuhsin, “Ona”) (O‘TIL)[83].

Sh.Safarovning fikricha ham, tilda muayyan narsa, belgi va harakat-holatlar haqidagi tushunchalar har doim ham umumiy xarakterda bo‘lmaydi. Masalan, islom va xristian dinlariga sig‘inuvchilar uchun “oxirgi dunyo” (kones sveta) tushunchasi yaxshi tanish. And vohasi hindularidan bo‘lmish kechua qabilasi

[82] Маматов Ж. Ўзбекнинг ўз сўзлари // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2012. – № 12. – Б. 30.
[83] Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Ўзбек тили диний-маърифий атамаларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2012. – Б. 49.

vakillari uchun *Pacha kuti* tushunchasi esa “dunyoning tugashini” emas, balki “dunyoning qayta yaratilishini” anglatadi. Tushunchalarning bu tarzda zidlanishi yoki farqlanishi shu millat vakillari tomonidan olamning o‘ziga xos idrok etilishidir[84].

Ba’zan so‘z enantiosemik ma’nolari bilan birgalikda o‘zlashadi. Masalan, *xaker* so‘zi rus tilidan hozirgi o‘zbek tiliga “kompyuter dasturlarini buzuvchi kishi” (*So‘nggi yillarda odatdagi xakerlar bilan bir qatorda kibernetik terrorchilarning xurujlari ham qayd etilyapti*) va “kompyuter dasturlarini yaratuvchi kishi” (O‘TIL) qarama-qarshi ma’nolari bilan o‘zlashgan. *Binom* so‘zi ham “ikki algebraik ifodaning yig‘indisi yoki ayirmasi” ma’nolari bilan o‘zlashgan (O‘TIL).

Tadqiqotlarda tillararo enantiosemiya ham farqlanadi[85] hamda u *tillararo enantiosemiya, tillararo omonimiya, tarjimonning yolg‘onchi do‘stlari* kabi terminlar bilan ataladi. Bizningcha, bu tip ma’noviy qarama-qarshilikni *tillararo enantiosemiya* termini aniq va to‘liq ko‘rsatib bera oladi. Mazkur hodisa qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar o‘rtasida hosil bo‘ladi. Tillararo enantiosemiyaning bu ko‘rinishlari o‘zbek tili bilan istalgan boshqa turkiy til yoki o‘zbek tili bilan qarindosh bo‘lmagan arab, fors-tojik tillari o‘rtasida kuzatilishi mumkin.

O‘zaro qarindosh tillar o‘rtasida so‘zlarning qarama-qarshi ma’nolarni namoyon etishi, avvalo, shu xalqlarning turmush sharoiti, qolaversa, voqelikni o‘ziga xos idrok etish va baholash tarzi, ya’ni ayni millatning dunyoni lisoniy bilish manzarasi bilan bog‘liq. Har bir millat vakillarining turlicha, aniqrog‘i, o‘ziga xos dunyoni lisoniy anglash tarzining mavjudligi sababli ham, aslida, kelib chiqishi bir, genetik ma’nosi bir so‘zning yangi, ayni paytda, qarama-qarshi

---

[84] Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2013. – Б. 89-90.

[85] Гросбарт З. О русских и польских словах, близких по звучанию и разных по значению (“межъязычные омонимы”) // Материалы третьего международного семинара преподавателей русского языка. – М., 1962. С.228-238; Акуленко В.В. О «ложных друзьях переводчика». Англо-русский и русско-английский словарь «ложных друзей переводчика. – М., 1969. – С. 3-14; Балалыкина Э.А. О словах с противоположными значениями в русском и польском языках. Beitrage zur Slavistik XXVII Innerslavischer und slavisch — deutscher Sprachvergleich — Peter Lang, Frankfurt am Mein, 1995. – С. 211-218.

ma’nolar kasb etishiga olib keladi. Masalan, A.Ishaev hozirgi o‘zbek tilidagi “qari odam” ma’nosidagi *chol* so‘zi tuva tilida *chalыы* shakli bilan “yosh, yosh yigit” ma’nosini anglatishini aytib o‘tgan[86].

Qadimgi turkiy tildan tarqalgan hozirgi o‘zbek va turk tillari o‘rtasida enantiosemiya mavjud. Xususan, hozirgi o‘zbek tilida “orqaga sudramoq, kechiktirmoq, paysalga solmoq” ma’nosini bildiruvchi *cho‘zmoq* (O‘TIL) so‘zi turk tilida ham polisemantik so‘z bo‘lib, uning bir ma’nosi biror masalani “hal qilmoq, yechmoq”dir[87]. Ayni ma’no o‘zbek tilidagi “orqaga sudramoq, kechiktirmoq, paysalga solmoq” ma’nosiga nisbatan zid. “Qadimgi turkiy lug‘at”da mazkur ma’nolar berilmagan. Demak, enantiosemiyani yuzaga keltirayotgan ma’nolar har ikki tildagi o‘ziga xos ma’no taraqqiyotining mahsulidir.

O‘zbek va arab tili o‘rtasidagi enantiosemiyani *kunpayakun* so‘zi misolida ko‘rish mumkin. Mazkur so‘z arab tilida “butun borliq, mavjudot” va “yaratilish” ma’nolarini anglatadi[88]. O‘zbek tiliga o‘zlashgandan keyin arab tilidagi ma’nosini yo‘qotib, unga zid “buzilib, yanchilib, yo‘q bo‘lib ketmoq” ma’nosini kasb etgan: *Shahar o‘rtasidagi ikkita katta bino ham kunpayakun bo‘ldi* (Mirmuhsin, “Ona”).

Demak, so‘zning zid ma’nolar kasb etishi, avvalo, borliqdagi narsa-hodisalarning azaliy dialektik ziddiyatdaligi sabab kishi tafakkur tarzining ham dualistik xarakterli ekanligi, qolaversa, kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarning ham qarama-qarshiliklar asosiga qurilganligi va boshqa bir qator nolisoniy va lisoniy omillar bilan bog‘liq. Jumladan, kishilarning borliqdagi narsa-hodisalar mohiyatini anglash va farqlay bilish darajasi, so‘zning semantik taraqqiyoti, so‘zlovchining kommunikativ-situativ maqsadi va subyektiv munosabatini nolisoniy omillari, so‘zlarning leksik-sintaktik aloqasi hamda sintaktik qurshovi, adabiy til va sheva munosabatini enantiosemiya yuzaga kelishining lisoniy omillari sifatida ko‘rsatish mumkin.

---

[86] Ишаев А. Шаклдош антонимларга оид этюдлар // Ўзбек тил ва адабиёти, 1967. – № 1. – Б. 16.
[87] Юсуф Б. Туркча-ўзбекча “алдоқчи сўзлар” луғати. – Тошкент: Ворис-нашриёт, 2009. – Б. 443.
[88] Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Б. 322; ЎТИЛ. II жилд. – Б. 431.

Enantiosemiyaning leksik sathdagi o‘rni. Mavjud lingvistik tadqiqotlarda leksik sathning omonimiya, antonimiya, polisemiya singari hodisalari va ularning lisoniy tabiati, o‘zaro munosabati yetarlicha tadqiq qilingan[89]. Enantiosemiya polisemiyaning maxsus ko‘rinishi sifatida mazkur sathning ayni hodisalari bilan ba’zi o‘xshash jihatlarga ega bo‘lsa ham, ulardan keskin farqlanadi. Shu bois ular bilan enantiosemiya o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlab olish enantiosemiyaning lisoniy maqomi va mohiyatini belgilashda muhim. Odatda, leksik hodisalarning mohiyatini ochishda ularning ikki jihati nazarda tutiladi, ya’ni shakl va ma’no munosabatidan kelib chiqib baho beriladi, shu asosda omonim, antonim, sinonim va polisemantik birliklarga ajratiladi. Enantiosemik birlikning sinonimik va omonimik birliklarga bo‘lgan munosabati shu birliklarning bir-biri bilan bo‘lgan munosabatidan tamomila farq qiladi, ya’ni enantiosemiyaning mohiyatini belgilashda uning shakliga emas, balki ma’nosiga diqqat qilinadi[90]. Ma’lumki, tadqiqotlarda enantiosemiyaga turlicha rakursdan turib yondashiladi. Bunga ko‘ra enantiosemiya polisemiya, omonimiya va antonimiya kabi hodisalarning alohida, o‘ziga xos bir ko‘rinishi, omonimiya va antonimiya, polisemiya va antonimiya hamda polisemiya va omonimiyaning o‘rtasidagi hodisa yoki omonimiya, antonimiya, polisemiya va sinonimiyaning o‘rtasidagi hodisadir[91]. Ba’zi ishlarda esa enantiosemiya alohida hodisa deb talqin qilinadi[92]. Ko‘rinadiki, uning lisoniy maqomi borasidagi qarashlar turli xil. Enantiosemiyaning lisoniy maqomini to‘g‘ri belgilab olish mazkur hodisa borasidagi munozarali fikrlar (Hozirgi kunga qadar enantiosemiyaning lisoniy

---

89 Миртожиев М. Ўзбек тилида лексик омонимларнинг вужудга келиши. Филол. фан ном. ... дисс: – Тошкент, ЎзР ФА ТАИ, 1963. – 174 б; Новиков Л.А. Кўрсатилган асар, 2001; Шукуров Р. Кўрсатилган диссертация; Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975. – 140 б.

90 Соколов О.М. Энантиосемия в кругу смежных явлений // Филологические науки, 1980 (а). – № 6. – С. 36.

91 Балкански Т. Кўрсатилган диссертация.

92 Жаркова Е.Х. Энантиосемия лексико-грамматического и словообразовательного типа в кругу смежных явлений: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва: Ун-т дружба народов имени Патриса Лумумбы, 1988; Махмутова Л.Р. Кўрсатилган автореферат.

maqomi va mohiyati hamda tilning qaysi davri (qadimgi yoki hozirgi) uchun xos ekanligi haqida tilshunoslar bir fikrga kela olganlari yo‘q)ni hal etishga yordam beradi.

Avvalo, enantiosemiyaning omonimiya bilan bo‘lgan munosabatiga aniqlik kiritish lozim. Tilshunoslikda enantiosemiyaning omonimiyaga aloqador hodisa yoki omonimiyaning bir turi deb talqin qilinishi haqida yuqorida qisman aytib o‘tildi. Uni rus, nemis tilshunosliklarida omonimiyaning bir turi deb baholanishi, aslida, enantiosemiyaning mohiyatini xato tushunishdan hamda hodisaning har bir tilda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishidan kelib chiqadi. Uning omonimiyaga aloqadorligi masalasi, asosan, bu tillarda so‘zga old qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida bir qator qarama-qarshi ma’noli so‘zlarning yuzaga kelishini nazarda tutib aytiladi. Yasovchi old qo‘shimchalarning qo‘shilishi bilan alohida mustaqil so‘zlar hosil bo‘lishi esa fanda e’tirof etilgan. Masalan, rus tilida *za-* yasovchisi yordamida qarama-qarshi ma’noli so‘zlar yasalishi mumkin: *zapet* – “aytaverib siyqasini chiqarmoq” va “kuylay boshlamoq”[93]. Nemis tilida ham *ab-* old qo‘shimchasi yordamida yasalgan bir qator qarama-qarshi ma’noli so‘zlar bor. Masalan: *abfedern* I – “ta’minlamoq yoki bermoq” va *abfedern* II – “yulib olmoq yoki olib qo‘ymoq”[94]. Ushbu yasovchi qo‘shimchaning qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan enantiosemik so‘zlar shu tillarning lug‘atlarida ham omonim so‘zlar sifatida qayd etilgan[95].

Shuningdek, so‘zda konversiya natijasida qarama-qarshi ma’nolarning yuzaga kelish holatlari ham enantiosemiyani omonimiyaga daxldor deb baholanishiga sabab bo‘lgan[96]. Masalan, L.E.Bessonova *verno* so‘zidagi “aniq”, “to‘g‘ri, rost, chin” (sifat) va “bo‘lsa kerak”, “ehtimol, shekilli” (modal so‘z), *naverno* so‘zidagi “shubhasiz, albatta” (ravish) va “balki, ehtimol, aftidan, chog‘i” (modal so‘z) ma’nolaridagi zidlikka asoslanib, enantiosemiya omonimiya doirasida

[93] Словарь русского языка. – Ташкент, 1981. – С. 518.
[94] Горелов И.Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 87-88.
[95] Большой немецко-русский словарь. – М., 1969. – С. 40.
[96] Шанский Н.М. Кўрсатилган асар, 1972. – Б. 64.

o‘rganilishi lozim deydi[97]. Hozirgi o‘zbek tilidagi *ko‘r* so‘zining “ko‘rmoq” (fe’l) va “so‘qir” (sifat) ma’nolarida ham ma’noviy zidlik mavjud. Ammo ular ikki xil so‘z turkumiga mansub. Enantiosemiya mohiyat-e’tibori bilan bir so‘zdagi ma’noviy qarama-qarshilik bo‘lgandan keyin uning tabiatini bir so‘z doirasida o‘rganish joiz.

Ukrain olimasi ko‘rsatib o‘tgan faktlar antisemiya atrofida o‘rganiladigan ziddiyatdir. Qolaversa, bir-ikki so‘z tabiatidan kelib chiqib, muayyan hodisaga baho berib bo‘lmaydi. Ana shu va yuqoridagi holatlar enantiosemiyani omonimiyaning bir turi deb baholanishiga olib kelgan. Bizningcha, enantiosemiyaning lisoniy maqomini tayin etishda uning bitta so‘z ekanligi asosiy mezon bo‘lishi lozim.

O‘z navbatida, affiksatsiya orqali zid ma’noli so‘zning yuzaga kelishi bir narsaga aniqlik kiritishni taqozo etadi, ya’ni qarama-qarshi ma’noni yuzaga keltirish old qo‘shimchaning tabiatiga xosmi yoki asos so‘zga? Agar muayyan yasovchi qo‘shimchada qarama-qarshi ma’no namoyon etish xususiyati mavjud bo‘lsa, nega shu qo‘shimcha qo‘shilgan boshqa so‘zlarda ham enantiosemiklik yuzaga kelmaydi? Yoki yasovchi qo‘shimcha birikayotgan asosga bog‘liq bo‘lsa, nega boshqa yasovchilarning qo‘shilishi bilan qarama-qarshi ma’no namoyon bo‘lavermaydi? Bu munozarali masala mazkur omil asosida enantiosemik so‘z yasalishini unumli deb aytgan tadqiqotchilarning ishlarida ham sohaning hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalaridan biri ekanligi aytilgan. Hozircha bu masalaga, o‘zbek tili nuqtai nazaridan, affiksatsiya natijasida enantiosemiya hosil bo‘lmaydi, balki yasovchi qo‘shimcha bilan hosil bo‘lgan yasalmada ma’no taraqqiyoti ro‘y beradi hamda dastlabki ma’no bilan ma’no taraqqiyoti mahsuli bo‘lgan ma’no zid bo‘lib qoladi, deb javob berish mumkin.

Enantiosemiyani omonimiyaga mansub deb bilishning yana bir nomuvofiqligi shundaki, omonimiya kamida ikki til birligi o‘rtasida yuzaga keladi,

[97] Бессонова Л.Е. Энантиосемия как особый тип в системе лексических противопоставлений // Проблемы лексической и категориальной семантики. Вып. 2. – Симферополь, Изд-во СГУ, 1982. – С. 27-31.

ular ifodalagan ma’nolar o‘rtasida esa ma’noviy bog‘liqlik mavjud bo‘lmaydi. Quyida ba’zi omonim va enantiosemik so‘zlarni qiyoslash orqali ularning farqli jihatlarini ko‘rsatib o‘tamiz. Masalan, shakldosh *ot* so‘zlarining ma’nolari o‘rtasida semantik umumiylik yo‘q, ular bir shakldagi alohida so‘zlarning muayyan omillar sabab mos kelib qolishidir.



1. 1-chizma.

Vaj so‘zi enantiosemik so‘z bo‘lib, u “biror narsa, hodisa va sh.k.ni keltirib chiqaruvchi haqiqiy asos, sabab” (*Humoyunning qo‘shini bir necha kun ichida ikki barobar kamayib ketganini shoh Husayn arg‘un bilar, shu vajdan ham oshkora tahdid qilmoqda edi* (P.Qodirov. Avlodlar dovoni) va “biror narsa, hodisa va sh.k.ning kelib chiqishini asoslash uchun keltirilgan soxta dalil, bahona” (*Dangasaning vaji ko‘p, ohangsizning – avji* (Maqol) ma’nolarini anglatadi. Mazkur ma’nolar qarama-qarshi munosabatni bildirsa ham, ular bir umumiy mavzu – ma’noviy munosabat ostida birlashadi. Bu jihat enantiosemik ma’nolarning o‘zaro bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur zidlikni quyidagi chizmada ham ko‘rish mumkin. **1.2-chizma.**



Xullas, enantiosemiya o‘zbek tilida omonimiyaga aloqador emas. Uning omonimiyadan farqi quyidagilarda ko‘rinadi: enantiosemiya mohiyatan bir so‘zda, omonimiya esa so‘zlarda yuzaga keladi; enantiosemik birlik tabiatini aniqlashda, asosan, so‘zning semantik jihati hisobga olinsa, omonim so‘zlarni belgilashda asosan shakliy va semantik jihatlar nazarda tutiladi; enantiosemik birlik ma’nolari o‘rtasida umumiy semantik munosabat mavjud, omonim so‘zlarda esa bunday munosabat yo‘q; enantiosemik so‘z ma’nolari faqat bir turkumda, omonimlar esa bir so‘z turkumida ham, turli so‘z turkumida bo‘ladi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, so‘nggi yillarda tilshunoslikda sintaktik omonimiyaga ham e’tibor qaratilmoqda[98].

Ma’noviy munosabatiga ko‘ra enantiosemiya va antonimiyada o‘zaro o‘xshashlik bor. Bu antonimiya va enantiosemiyaning omonimiya va sinonimiyadan farqli tarzda ma’nolar zidlanishiga asoslanishida, qolaversa, shakl-ma’no munosabatidan kelib chiqib emas, ma’nolar nuqtai nazaridan o‘rganilishida ham ko‘rinadi. Shu va boshqa jihatlar enantiosemiyani antonimiyaning bir turi yoki ko‘rinishi sifatida bir yoqlama talqin qilinishiga olib keldi. Masalan, S.Usmonov “antonimlar bir so‘z orqali ifodalanadimi, ko‘p so‘z orqali ifodalanadimi – bundan qat’i nazar – baribir antonimlar deb qaralishi kerak”, – deydi[99]. Boshqa qarashga asosan, antonimlarni faqat har xil o‘zakli so‘zlar deb tushunish narsa-hodisaning haqiqiy mohiyatini aks ettirmaydi, antonimiya bir so‘z doirasida ham bo‘lishi mumkin[100]. Bizningcha, har ikki qarashda ham antonimiya va enantiosemiya qorishtirilgan.

L.E.Bessonova enantiosemiyani antonimiyaga tenglashtirgan tilshunoslarning qarashlariga tanqidiy munosabat bildirar ekan, so‘zning u yoki bu enantiosemik ma’noda qo‘llanganini kontekstsiz bilib bo‘lmasligini, antonimik ma’no esa alohida so‘zlarda bo‘lgani bois kontekstsiz anglashilishini aytadi va

[98] Лутфуллаева Д., Сайидраҳимова Н. Ўзбек тили синтактик омонимларининг шаклланиши хуусида // TDPU илмий ахборотлари, 2015. № 1. – Б. 39-42.
[99] Усмонов С. Кўрсатилган мақола. – Б. 35.
[100] Шмелев Д.Н. Кўрсатилган асар. – Б. 203.

enantiosemiyani “yashirin qutblanish natijasi” deb ta’kidlaydi[101]. Biz ham olimaning fikriga qo‘shilgan holda bu hodisalarni antonimlar atamasi ostida birlashtirish to‘g‘ri emasligini quyidagi o‘xshash va farqli jihatlarda ko‘rsatishga harakat qilamiz:

1. Enantiosemiya ham, antonimiya ham ma’nolar qarshilanishiga asoslanadi, ammo enantiosemiya so‘z (frazeologik birlik)da, antonimiya so‘z (frazeologizm)larda voqelanadi. Antonimiyadan anglashiladigan zidlikni kontekst voqelantirmaydi, ammo enantiosemik ma’nolardan qaysi biri namoyon bo‘layotganini kontekst ko‘rsatadi.

2. Enantiosemiya ham, antonimiya ham (omonimiyadan farqli holda) bir narsa-hodisa, belgi yoki harakat-holatning ikki zid tomonini ko‘rsatadi, ammo bu zidlik antonimiyada qarama-qarshi ma’nolarning har doim o‘zaro teng va uzual bo‘lishi bilan, enantiosemiyada o‘zaro zid ma’nolarning har doim ham teng va uzual bo‘lavermasligi bilan farq qiladi.

3. Antonimik ma’nolardan biri assotsiativ tarzda ikkinchisiga ishora qiladi, ya’ni *yaxshi* deyilishi bilan ongimizda *yomon* aks etadi, enantiosemiyada esa unday emas. Enantiosemik birliklar til xotirasida tayyor holda mavjud, lekin ma’nolarning kontekst bilan bog‘liqligi tufayli bir ma’no assotsiativ tarzda ikkinchisini yodga tushirmaydi.

4. Antonimiya va enantiosemiyadagi zidlik so‘zning bosh ma’nolari o‘rtasida ham, hosila ma’nolari o‘rtasida ham yuzaga chiqadi. Ammo antonimlik *sovuq–iliq, iliq–muzday* ma’noli so‘zlar o‘rtasidagi munosabat emas, balki *sovuq–issiq* ma’noli so‘zlardagi munosabatdir. Biroq muayyan belgi ko‘lamining notengligiga asoslanadigan *sovuq–iliq, iliq–muzday* tipli ma’nolar zidligi ham enantiosemik munosabat bo‘lishi mumkin.

Enantiosemiya bilan polisemiyaning o‘zaro munosabati ham o‘ziga xos, semasiologiyaning muhim nazariy masalalaridan biri. Chunki u polisemiya

[101] Бессонова Л.Е. Кўрсатилган автореферат. – Б. 7.

zamirida yuzaga keladi va muayyan ma’nolar o‘rtasidagi munosabatga asoslanadi. Enantiosemiya ham polisemiya, faqat bu polisemantiklik zid ma’no taraqqiyotining natijasi, polisemiya esa zid bo‘lmagan ma’no taraqqiyoti mahsuli hamdir. Masalan, *tosh* so‘zi “yaxlit massa yoki bo‘lak-bo‘lak holda uchraydigan, suv kor qilmaydigan, qattiq, mo‘rt tog‘ jinslarining umumiy nomi”, “shunday tog‘ jinslarining ziynat buyumlari yasash yoki ularni bezatish uchun ishlatiladigan navlarining umumiy nomi” ma’nolarini anglatadi (O‘TIL). Ayni ma’nolar alohida narsalarni bildirsa ham, toshga xos “qattiqlik” semasi ularni birlashtirib turadi.

Enantiosemik so‘z ma’nolari ham polisemantik so‘z ma’nolari singari o‘zaro bog‘liq, ammo bu ma’nolar muayyan narsa-hodisa, belgi va harakat-holatni qarama-qarshi tomondan ataydi. Masalan, *o‘r* so‘zidagi “tepalik” va “chuqurlik” (O‘TIL) zid ma’nolari so‘zning ma’no taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan. Qiyoslang: *O‘ziga qolsa, shahar deb, qir oshib, o‘r oshib o‘tirmasdi-yu* (N.Norqobilov, “Bekatdagi oq uycha”); *–Bular qarorgohni halqaday o‘rab, ko‘ringan qorani, qilt etgan narsani ko‘potarlaridan o‘qqa tutib, qisib borishyapti. O‘r ham, jar ham qolmayapti* (Murod Mansur. Judolik diyori”). Mazkur so‘zdagi ma’noviy umumiylik muayyan o‘rin-joyning yer sathiga bo‘lgan u yoki bu holatini anglatishida ko‘rinadi, biroq ayni holatlarning qarama-qarshi ekanligini ifodalashi bilan farqlanadi. Polisemiya va enantiosemiyaning farqini chizmalarda ham ko‘rsatish mumkin:





Ko‘pincha, so‘zda ko‘pma’nolik yuzaga kelar ekan, bir ma’no boshqa bir ma’noni siqib chiqarmaydi yoki hosila ma’no asos ma’noning iste’moldan chiqishi evaziga vujudga kelmaydi, balki so‘z semantik strukturasini boyitib, uning teng huquqli a’zolari sifatida yashaydi. Masalan, *opa* so‘zining “bir ota-onadan tug‘ilgan farzandlar ichida o‘zidan kichiklarga nisbatan katta qiz” ma’nosidagi “katta”, “qiz” semalari asosida “bir ota-onadan tug‘ilmagan, har qanday katta yoshdagi ayollarga nisbatan ishlatiladigan murojaat shakli” ma’nosi vujudga kelgan. Enantiosemiklik ham shunday lisoniy jarayon mahsuli sifatida, ba’zan esa bir ma’noning ikkinchi bir ma’noni siqib chiqarishi hisobiga ham yuzaga keladi. Masalan, hozirgi o‘zbek tilidagi *ko‘tarafurush* so‘zidagi “ko‘tarasiga sotuvchi” va “ko‘tarasiga sotib oluvchi” (O‘TIL) ma’nolari birining ikkinchisini siqib chiqarishi evaziga vujudga kelmagan. *Sergakla(n)moq* (sergäklä(n)mak) so‘zida esa unday bo‘lmagan, chunki mazkur so‘z avval “mastlikdan egilmoq, qiyshaymoq” ma’nosini anglatgan: *Äsrÿk sergäklädi* – mast gandirakladi, sollandi (Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘otit turk”). Keyinchalik ayni ma’noning o‘rniga

“hushyor tortmoq” ma’nosi vujudga kelgan: *Muhammadjon eshik og‘asi bunda qandaydir ma’no borligini sezib, sergaklandi* (P.Qodirov, “Yulduzli tunlar”).

Demak, enantiosemiya polisemiya singari ma’no taraqqiyoti mahsuli bo‘lsa ham, har qanday polisemiya enantiosemiyani yuzaga keltirmaydi. Enantiosemiya polisemiyaning maxsus ko‘rinishidir.

Demak, enantiosemiya o‘zbek tilida polisemiyaning maxsus ko‘rinishidir, chunki u lisoniy birlikning zid ma’no taraqqiyoti natijasida yuzaga keladi, bir lisoniy birlikning ma’nolari sifatida uning semantik strukturasidan joy oladi. Shu sababli uning lisoniy maqomi ham bir til birligi doirasida belgilanadi. Semasiologiyaning bu o‘ziga xos hodisasini tadqiq etish bilan tilshunoslikdagi muhim nazariy masalalar: shakl va mazmunning o‘zaro munosabati, ziddiyat kategoriyasi yana bir tipining lisoniy tabiati, namoyon bo‘lish yo‘llari kabi masalalarga aniqlik kiritiladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Til va etnos ta’sirlashuvi haqida fikringiz?
2. Idioetniklik terminini izohlang.
3. Tilning idioetnik tabiati nimalarni qamrab oladi?
4. O‘zbek tilining etnomadaniy xususiyatlari qaysi birliklar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi?
5. Enantiosemik ma’nolarning paydo bo‘lishida etnik omillarning o‘rni bormi?
6. Enantiosemiya hodisasining qanday paydo bo‘lish omillari mavjud?
7. Adabiy va sheva o‘rtasida zid ma’nolilik kuzatiladimi?
8. Grammatik qurshovga ko‘ra zid ma’nolar yuzaga kelishi mumkinmi?
9. Enantiosemiyaning leksik maqomi haqidagi fikringizni ayting.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Асқаров А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий-методологик масалалари / Ўзбек халқининг келиб чиқиши: илмий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих» мавзусидаги илмий-назарий семинар материаллари. – Тошкент, 2004.
2. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.
3. Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли / От Руси до России. – М., 1994.
4. Никитин О.В. К 150-летию Словаря В.И. Даля // Русская реч,2006. № 6.
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
6. Прохоров Б.Б. Этнос / Экология человека. Понятийно-терминологический словар. Ростов-на-Дону, 2005.
7. Rahimov G‘. Ingliz tili O‘zbekistonda: sotsiolingvistik va pragmatik ko‘rsatkichlar. – Toshkent: Tamaddun, 2017.
8. Сепир Э. Избранные труды по языкознание. – М., 1993.
9. Трубеской Н.С. К проблеме русское самопознание. Собр.стат. ¬– Париж: Издателство Евразийское книгоиздателство, 1927.
10. Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
11. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: “Sharq”nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI



1-AMALIY MASHG‘ULOT: TIL SATHLARI VA ULARNING LISONIY ZIDDIYATGA MUNOSABATI. ZIDDIYATNING NUTQIY NAMOYON BO‘LISHI

REJA:

1. ***Ziddiyat kategoriyasining mohiyati***
2. ***Ziddiyat kategoriyasining til birliklari orqali namoyon bo‘lishi***
3. ***Enantiosemiya va lisoniy asimmetriya***
4. ***Enantiosemiyaning leksik sathdagi o‘rni***

Tayanch iboralar: *ziddiyat, lisoniy ziddiyat, leksikologiya, semasiologiya, ma’no (semema), antonimiya, antisemiya, enantiosemiya, lisoniy asimmetriya.*

Ziddiyat kategoriyasining mohiyati. Fanda tushunchalar ziddiyati masalasining o‘rganilishi insoniyat tarixining qadim davrlaridan boshlanadi. Ziddiyat bilishning muhim vositasi sifatida dastlab antik davr mutafakkirlarining e’tiborini tortgan. Ular qarama-qarshilik tushunchasini falsafa, keyinroq mantiq fani doirasida o‘rgana boshlaganlar. Xususan, Suqrotning fikricha, ziddiyatga sabab bo‘luvchi, uni ifodalovchi tushunchalar biri ikkinchisidan kelib chiqqan yoki birining borligi uchun boshqasi mavjud. Masalan, *katta* tushunchasi *kichik* tushunchasidan yoki aksincha, *kichik* tushunchasi *katta* tushunchasidan kelib chiqqan, ya’ni *katta* bo‘lmaganda *kichik* ham bo‘lmasdi. Olamdagi barcha narsalar o‘z zidiga ega bo‘lib, ziddiyat a’zolari kishi ongida bir juft holida turadi, bir tushunchaning faqat bitta zidi bo‘ladi[102], ya’ni *yaxshi*ning *yomon*dan, *baland*ning *past*dan boshqa zidi yo‘q.

[102] Бу ҳақда қаранг: Платон. Сочинения в трех томах. М.: Мысль, 1968. т. 1. – С. 217.

Sharqda esa ziddiyat masalasi Forobiy, Beruniyning falsafiy qarashlarida, xitoy mutafakkirlarining mantiqqa oid asarlarida uchraydi. Shuningdek, u bilishning umumiy qonuniyatini aks ettirib, mohiyatan yagona butunlikning inkor etuvchi qismlaridir. Ushbu qonun til sistemasida faol amal qiladi. Lisoniy qarama-qarshilik masalasi kishilik tarixining bir muncha keyingi davrlarida o‘rganila boshlangan. Shunday ishlarning birida tilda ziddiyatning yoki zid ma’noli so‘zlarning yuzaga kelishi inson bilimlarining qiyosi natijasi deyiladi. Olamning kun va tundan, yorug‘lik va qorong‘ulikdan iborat ekani hamda *kun*ni *tun* bilan, *yorug‘lik*ni *qorong‘ilik* bilan qiyoslanishi o‘zaro zid tushunchalarni farqlanishiga olib kelgan[103]. Boshqa qarashga ko‘ra, ziddiyatning mavjudligi inson aqlining unga bo‘lgan tabiiy moyilligidir[104].

Metafora asosida muayyan so‘zda yangi bir ma’no yuzaga kelar ekan, bu so‘zning semantik strukturasida dastlab ma’lum darajada ziddiyat, qarama-qarshilik, ya’ni til egasining ongida avvaldan muqimlashgan birlamchi ma’no bilan metafora natijasi o‘laroq voqelangan “yangi” ma’no o‘rtasida muayyan nomuvofiqlik seziladi. Ziddiyat, qarama-qarshilik fenomeni to‘g‘risida falsafa va mantiq ilmida juda ko‘p yozilgan, bu tushunchaning har qanday rivojlanishdagi favqulodda o‘rni e’tirof etilgan. Bu haqda gap ketganda ko‘pincha F.Gegelning “...Ziddiyat esa har qanday harakat va hayotiylikning manbaidir; nimadir faqat o‘z ichida ziddiyat bo‘lganligi uchungina harakatlanadi, nimagadir undaydi, faol bo‘ladi” degan fikrlari havola qilinadi, ziddiyat dialektikada rivojlanishning asosiy manbai ekanligi haqidagi haqiqat ta’kidlanadi.[105]

Ziddiyat kategoriyasining til birliklari orqali namoyon bo‘lishi.

Ziddiyat tilning barcha sathlari va birliklariga aloqador, ya’ni tilning har bir sathida o‘ziga xos qarama-qarshilik munosabati mavjud. Bu borada amalga oshirilgan

[103] Бу ҳақда қаранг: Ганеев Б.Т. Первоначальная энантиосемия и диффузность языка // Вестник ОГУ, 2003. № 4. – С. 9.
[104] Балли Ш. Французкая стилистика. – М., 1961. – С. 139.
[105] Ополев П.В. Противоречие в диалектике и синергетике // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2010. №1 (5). – С.110.12

ishlarning aksariyati leksik sath birliklari bilan namoyon bo‘ladigan zidlikka bag‘ishlangan va lisoniy ziddiyatning markaziy masalasi sifatida, asosan, antonimiya nazarda tutilgan. O‘zbek tilshunosligida ham yaqin vaqtga qadar leksik birliklardagi ziddiyat sifatida, asosan, antonimiya tushunilgan hamda mazkur hodisa yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.[106] Faqat keyingi yillarda lisoniy ziddiyat masalasi keng planda, antisemiya maqomi ostida tadqiq qilindi[107].

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilshunosligida lisoniy ziddiyat masalasi antonimik va antisemik birliklar doirasida o‘rganilgan. Biroq tilda, jumladan, uning leksik sathida yana bir ziddiyat turi mavjudki, bunda qarama-qarshi munosabat, antonimik va antisemik birliklardan farqli tarzda, bir til birligi doirasida yuzaga chiqadi. Mazkur ziddiyat turi tilda juda qadimiy bo‘lib, ta’bir joiz bo‘lsa, uni antonimik birliklardagi ziddiyatdan ham avvalroq so‘zda mavjud bo‘lgan deyish mumkin. Negaki mazkur tip qarama-qarshilikning yuzaga kelishi arxaik tafakkur davri bilan belgilanadi. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, arxaik tafakkur davrida ko‘plab so‘zlar semantikasiga sinkretiklik (qorishiqlik) xos bo‘lgan. Shu bois o‘zaro zid tushunchalar bir so‘z bilan ham ifodalanavergan[108].

Tilshunos olimlar so‘zning mazkur xususiyati haqida gapirganda, Sitseronning Rim imperatori Oktavian to‘g‘risida aytgan quyidagi jumlasini esga oladilar: “tollendum esse Octavium”. Bu jumla *tollendum* so‘zidagi qarama-qarshi ma’nolar hisobiga “Oktavianni yanada (martabaga) ko‘tarish kerak” tarzida ham, “Oktavianni martabasidan tushirish kerak” mazmunida ham qo‘llanadi[109]. Yunon allomasi Sitseron va uning zamondoshlari, ba’zi notiqlar so‘zning bunday imkoniyatidan o‘sha davr siyosiy doiralariga munosabat bildirishda keng foydalanganlar. Hozirgi kunda ham G‘arb matbuotida u yoki bu shaxs faoliyatiga so‘zning ironik ma’nosidan foydalangan holda munosabat bildirish keng tarqalgan

[106] Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. Филол.фан.номз. ..дисс.– Т., 1973; Исабеков М. Ҳозирги ўзбек тилида лексик антонимлар. Филол.фан.номз. ...дисс. – Т., 1973.
[107] Абдуллаева Д. Ўзбек тилида антисемия. Филол.фан.номз...дисс.– Т., 2010.
[108] Новиков Л.А. Новиков Л.А. Антонимия в русском языке (Семантический анализ противоположности в лексике). – М.: Изд-во Моск-го ун-та, 1973. – С.184.
[109] Новиков Л.А. Кўрсатилган асар, 1973. – Б. 182.

va bu borada alohida tadqiqot ishlari ham yuzaga kelgan[110].

So‘z semantik strukturasiga xos bu jihat – qorishiq zid ma’nolilik ko‘plab tillar qatori turkiy tillarga ham xos. Turkiy tilning qadim davrlarida ko‘plab so‘zlar semantik strukturasida nafaqat turli xil, balki zid ma’nolar ham bo‘lgan. Masalan, “Qadimgi turkiy lug‘at”da *chiq-* so‘ziga izoh berilar ekan, uning “foyda, naf, manfaat” va “chiqim, xarajat” ma’nolarini ham anglatishi ko‘rsatiladi[111]. Hozirgi o‘zbek tilida bu zid tushunchalar alohida birliklar – *kirim* va *chiqim* so‘zlari bilan ifodalanadi. Ma’lumki, tilni insondan, insonni esa tildan ajratilgan holda tasavvur qilib ham, o‘rganib ham bo‘lmaydi. Shu bois muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov “...o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir” deb ta’kidlaydi[112]. Darhaqiqat, o‘zida millat ruhini, uning o‘tmishi, buguni va ertasini aks ettirgan ona tilimiz ifoda imkoniyatining namunasi hisoblanadigan bunday til birliklari (semantikasida o‘zaro zid ma’nolar mavjud so‘z va iboralar)ni tadqiq etish ma’noviy zidlikning maxsus turi, uning lisoniy mexanizmi, namoyon bo‘lish manbalari va qonuniyatlarini aniqlash, umuman, ma’no taraqqiyoti haqida yangi xulosalar chiqarish imkonini beradi.

So‘zning qarama-qarshi ma’nolarga ega bo‘lishi hodisasi – enantiosemiya ko‘pdan beri tilshunoslarning e’tiborini tortib kelayotgan masalalardan biri. Uning tadqiqi borasida qator ishlar mavjud va ularda mazkur hodisa turli aspektlarda o‘rganilgan. Masalan, ayrim ishlarda enantiosemiyaning grammatik tomonlariga e’tibor qaratilgan bo‘lsa[113], ayrim tadqiqotlar paradigmatik va sintagmatik

---

[110] Костина К.В. Аксиологический аспект языковой репрезентации образа России в современном немецком медиадискурсе. Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – Иркутск, 2011.

[111] Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 151. Кейинги ўринларда саҳифа ичида ҚТЛ тарзида берилади.

[112] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 83.

[113] Бессонова Л.Е. Глагольная префиксальная энантиосемия в русском языке. Дисс. ...канд.филол.наук. – Днепропетровск, 1983.

aspektlarda olib borilgan[114].

Enantiosemiya va lisoniy asimmetriya

Til sistemasining turli sathlarida bo‘lgani singari uning leksik sathida ham shakl va ma’no o‘rtasidagi nomuvofiqlik, ya’ni lisoniy belgi asimmetriyasi kuzatiladi. “Shakl va mazmunning o‘zaro munosabati masalasi, shubhasiz, har qanday fanning eng muhim masalasi”[115]dir. Jeneva lingvistik maktabining asoschilaridan biri S.O.Karsevskiy lisoniy asimmetriya mohiyatini shunday tushuntiradi: “Belgi va ma’no har doim ham bir-biriga to‘liq mos bo‘lmaydi. Shuningdek, ularning chegaralari barcha nuqtalarda ham muvofiq kelavermaydi: muayyan bir belgi bir necha vazifaga ega, muayyan bir ma’no bir necha belgi bilan ifodalanadi. Har qanday belgi bir paytning o‘zida potensial “omonim” va “sinonim”dir, ya’ni u fikriy hodisalar mazkur ikki qatorining chatishuvi natijasida yuzaga kelgan”[116]. Ko‘rinadiki, lisoniy asimmetriya mohiyati muayyan til birligining shakliy va mazmuniy nomuvofiqligidan iborat. Lisoniy belgi asimmetriyasi nafaqat leksik, shuningdek, sintaktik va boshqa sath birliklari uchun ham xos bo‘lib, hodisaning mazkur tomoni yetarlicha tadqiq etilgan[117].

Turkologiyada, shu jumladan, o‘zbek tilshunosligida ilk bor lisoniy asimmetriya masalasini til sistemasining yuqori sathi bo‘lgan sintaksis va uning birliklari misolida monografik planda tadqiq etgan N.Mahmudovning e’tirof etishicha, shakl va mazmunning o‘zaro munosabati juda murakkab, ko‘p hollarda ziddiyatli, u til sistemasining har bir sathida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi[118]. Demak, lisoniy belgi asimmetriyasini tilning ma’lum bir sathigagina tegishli

---

[114] Кравцова В.Ю. Энантиосемия лексических и фразеологических единиц. Дисс. ...канд.филол.наук. – Ростов-на-Дону, 2006.

[115] Махмудов Н.М. Семантико-синтактическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1984. – С. 4.

[116] Карцевский С.О. Об асимметричном дуализме лингвистического знака // История языкознания XIX – XX веков в очерках и извлечениях. – М.: Просвещение, 1965. Ч. 2. – С. 85-90.

[117] Скаличка В. Асимметричный дуализм языковых единиц // Пражский лингвистических кружок. Сб. статьей. М.: Прогресс, 1967. – С. 119-127; Колосова Т.А. Русское сложное предложение асимметричной структуры. – Воронеж: Изд-во Воронежского ун-та, 1980; Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент, 1984; Миртожиев М. Ўзбек тилидаги гап бўлакларида семантик-синтактик номутаносиблик. – Тошкент: Университет, 2008. – 200 б.

[118] Маҳмудов Н.М. Кўрсатилган диссертация. – Б. 4.

hodisa sifatida emas, balki til universaliyasi sifatida tushunish va o‘rganish lozim. D.Aytbaev asimmetriya masalasining o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqi borasida fikr yuritib, o‘zbek tilshunoslari N.Mahmudov va M.Mirtojievlarning bu boradagi qarashlari bir xil emasligini, bu hozirgacha sintaktik birliklarning semantik tuzilishi tushunchasining noaniqligi, mazkur muammo bo‘yicha turli yo‘nalishlarning maydonga kelgani bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi[119]. Bunga shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, N.Mahmudov asimmetriyani belgi va ma’no o‘rtasidagi sof nomuvofiqlik fonida tadqiq etgan bo‘lsa, M.Mirtojiev til birliklarining odatdagi sintaktik vazifasiga nomutanosib tarzda boshqa vazifada ham kelishi masalasiga, ya’ni predikat, odatda, gap kesimi bilan ifodalanishi lozim bo‘lgani holda boshqa bo‘laklar bilan ifodalanishi kabi tomonlariga diqqat qaratgan[120].

Muayyan leksik sath birliklarida ko‘pma’nolilik xususiyatining mavjudligi ularning shakl va ma’no tomonidan asimmetriyasiga sabab bo‘ladi[121]. Bu birliklarning shakl va ma’no munosabati o‘rtasidagi nomuvofiqlik polisemiyada ifodalovchining bitta, ifodalanuvchining bir necha bo‘lganida, sinonimiyada esa ifodalanuvchining bitta, ifodalovchining birdan ortiq ekanligida namoyon bo‘ladi. E’tibor qilinsa, polisemiyadagi shakl-ma’no munosabati bilan sinonimiyadagi shakl-ma’no munosabati o‘rtasida o‘ziga xos qarama-qarshi xususiyat ko‘zga tashlanadi. Bu polisemiyada ifodalovchining bir shaklga egaligi, ifodalanuvchining esa birdan ortiq ekanligi, sinonimiyada ifodalovchining birdan ortiq, ifodalanuvchining esa bitta ekanligidan iborat. Ayni holat lisoniy asimmetriya leksik sath birliklarining har birida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi, degan fikrni yana bir bor tasdiqlaydi.

---

[119] Айтбаев Д. Шакл ва мазмун асимметрияси тадқиқига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 6. – Б. 40.
[120] Махмудов Н. Кўрсатилган диссертация. Миртожиев М. Кўрсатилган асар, 2008. – 200 б.
[121] Москальская О.И. Проблемы системного описания синтаксиса. – М.: Высшая школа, 1981. – С. 13.

Tilshunoslar tomonidan omonimiyada asimmetriyaning mavjudligi ko‘p bor ta’kidlanadi[122], bunda omonimik birliklarning bitta shakliy ifoda bilan bir necha ma’no anglatishi nazarda tutiladi. Bizningcha, bu biroz munozarali. Omonimik birliklarning lisoniy asimmetriyaga munosabati o‘ziga xos bo‘lib, uni ikki xil yo‘sinda talqin etish mumkin. Omonimik birliklardagi ma’nolarni bir shakliy ifoda bilan ifodalanadi, deb bilish mazkur birliklarda asimmetriyaning mavjudligini ko‘rsatsa, omonimik birliklarni faqatgina shakli bir xil bo‘lgan yoki turli sabablarga ko‘ra shaklan teng kelib qolgan alohida-alohida birlik sifatida baholash bu birliklarda asimmetrik munosabat emas, simmetrik munosabat mavjudligini ko‘rsatadi. Negaki bir xil shakliy ifoda deb qaralayotgan til birliklari faqat shaklan bir xillikka ega bo‘lgan alohida-alohida so‘zlar sifatida talqin etiladi. Shundan kelib chiqib, omonimik birliklardagi har bir ma’no faqat shaklan bir xil boshqa-boshqa so‘zlar orqali ifodalangan deyish mumkin.

Enantiosemiyaning leksik sathdagi o‘rni. Mavjud lingvistik tadqiqotlarda leksik sathning omonimiya, antonimiya, polisemiya singari hodisalari va ularning lisoniy tabiati, o‘zaro munosabati yetarlicha tadqiq qilingan[123]. Enantiosemiya polisemiyaning maxsus ko‘rinishi sifatida mazkur sathning ayni hodisalari bilan ba’zi o‘xshash jihatlarga ega bo‘lsa ham, ulardan keskin farqlanadi. Shu bois ular bilan enantiosemiya o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlab olish enantiosemiyaning lisoniy maqomi va mohiyatini belgilashda muhim. Odatda, leksik hodisalarning mohiyatini ochishda ularning ikki jihati nazarda tutiladi, ya’ni shakl va ma’no munosabatidan kelib chiqib baho beriladi, shu asosda omonim, antonim, sinonim va polisemantik birliklarga ajratiladi. Enantiosemik birlikning sinonimik va omonimik birliklarga bo‘lgan munosabati shu birliklarning bir-biri bilan bo‘lgan munosabatidan tamomila farq qiladi, ya’ni

[122] Карцевский С.О. Кўрсатилган мақола. – Б. 85-90.

[123] Миртожиев М. Ўзбек тилида лексик омонимларнинг вужудга келиши. Филол. фан ном. ... дисс: – Тошкент, ЎзР ФА ТАИ, 1963. – 174 б; Новиков Л.А. Кўрсатилган асар, 2001; Шукуров Р. Кўрсатилган диссертация; Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975. – 140 б.

enantiosemiyaning mohiyatini belgilashda uning shakliga emas, balki ma’nosiga diqqat qilinadi[124]. Ma’lumki, tadqiqotlarda enantiosemiyaga turlicha rakursdan turib yondashiladi. Bunga ko‘ra enantiosemiya polisemiya, omonimiya va antonimiya kabi hodisalarning alohida, o‘ziga xos bir ko‘rinishi, omonimiya va antonimiya, polisemiya va antonimiya hamda polisemiya va omonimiyaning o‘rtasidagi hodisa yoki omonimiya, antonimiya, polisemiya va sinonimiyaning o‘rtasidagi hodisadir[125]. Ba’zi ishlarda esa enantiosemiya alohida hodisa deb talqin qilinadi[126]. Ko‘rinadiki, uning lisoniy maqomi borasidagi qarashlar turli xil. Enantiosemiyaning lisoniy maqomini to‘g‘ri belgilab olish mazkur hodisa borasidagi munozarali fikrlar (Hozirgi kunga qadar enantiosemiyaning lisoniy maqomi va mohiyati hamda tilning qaysi davri (qadimgi yoki hozirgi) uchun xos ekanligi haqida tilshunoslar bir fikrga kela olganlari yo‘q)ni hal etishga yordam beradi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Ziddiyat deganda nimani tushunasiz?
2. Olamdagi voqea-hodisalarni zidlab anglash mumkinmi?
3. Ziddiyat kategoriyasi haqida qanday qarashlar bor?
4. Qarama-qarshilik til birliklarida qanday namoyon bo‘ladi?
5. Antonimiya hodisasi haqida fikringiz?
6. Antisemiya haqida fikringiz?
7. Enantiosemiya haqida fikringiz?
8. Lisoniy asimmetriya deganda nimani tushunasiz?

---

[124] Соколов О.М. Энантиосемия в кругу смежных явлений // Филологические науки, 1980 (а). – № 6. – С. 36.

[125] Балкански Т. Кўрсатилган диссертация.

[126] Жаркова Е.Х. Энантиосемия лексико-грамматического и словообразовательного типа в кругу смежных явлений: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва: Ун-т дружба народов имени Патриса Лумумбы, 1988; Махмутова Л.Р. Кўрсатилган автореферат.

9. Til birliklarining shakli va ma’nosi (mazmuni) o‘rtasida nomuvofiqlikning mavjudligi lisoniy faoliyat uchun qanchalar zarur?
10. Ko‘p ma’noli so‘zlarning asimmetrik tabiati haqida tushuntiring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva D. O‘zbek tilida antisemiya. Filol.fan.nomz...diss.– T., 2010.
2. Батищев Г.С. Противоречие как категория диалектической логики. – М.: Высшая школа, 1963. – 120 с.
3. Бессонова Л.Э. Глаголная префиксалная энантиосемия в русском языке. Дисс. ...канд.филол.наук. – Днепропетровск, 1983.
4. Гегел Г.В.Ф. Наука логики. т. 1. – Москва: Мысл, 1970. – 570 с.
5. Исабеков М. Ҳозирги ўзбек тилида лексик антонимлар: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 1973.
6. Кодухов В.И. Введение в языковедение. – М.: Просвещение, 1979. – С.82 – 84.
7. Mahmudov N., Odilov Yo. So‘z ma’no taraqqiyotida ziddiyat. O‘zbek tili enantiosemik so‘zlarining izohli lug‘ati. T.: Akademnashr, 2014. – 288 b.
8. Новиков Л.А. Новиков Л.А. Антонимия в русском языке (Семантический анализ противоположности в лексике). – М.: Изд-во Моск-го ун-та, 1973. – С.184.
9. Ополев П.В. Противоречие в диалектике и синергетике // Исторические, фило¬софские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2010. №1 (5). – С.110.
10. Платон. Сочинения в трех томах. – М.: Мысл, 1968. Т. 1.
11. Шерсл В.И. О словах с противоположными значениями (или о так называе¬мой энантиосемии) // Хрестоматия по истории русского языка. – М.: Высшая школа, 1973. – С.259 – 264.

2-AMALIY MASHG‘ULOT:

O‘ZBEK TILIDA LEKSIK ENANTIOSEMIYANING TURLARI, TUSHUNCHANI QARAMA-QARSHI TOMONDAN ATASH VA BAHOLASH. ZID MA’NOLILIKKA SINXRONIK VA DIAXRONIK YONDASHUV

REJA:

1. ***Lisoniy va nutqiy enantiosemiya***
2. ***Nomlovchi va baholovchi enantiosemiya***
3. ***To‘liq va qisman enantiosemiya***
4. ***Sinxronik va diaxronik enantiosemiya***

Tayanch iboralar: *leksik enantiosemiya, lisoniy va nutqiy enantiosemiya, nomlovchi va baholovchi enantiosemiya, to‘liq va qisman enantiosemiya, sinxronik va diaxronik enantiosemiya, lingvistik va paralingvistik enantiosemiya, lug‘aviy va grammmatik enantiosemiya.*

Lisoniy va nutqiy enantiosemiya. Enantiosemik birlik semantik strukturasidagi ma’nolarning lisoniy va oppozitiv tabiati, maqomi, sinxroniya va diaxroniyaga munosabati, barqarorligi kabi qator xususiyatlari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Bu xususiyatlarning voqelanishi leksik birliklarda va ularga qaraganda murakkabroq bo‘lgan frazeologik birliklarda farq qiladi, shuning uchun ularni alohida-alohida o‘rganish maqsadga muvofiq. Fikrimizcha, o‘zbek tilida leksik enantiosemiyani quyidagi turlarga ajratib tadqiq etish maqsadga muvofiq: 1) lisoniy va nutqiy; 2) nominativ va subyektiv-baholovchi; 3) simmetrik va asimmetrik; 4) lug‘aviy va grammatik; 5) sinxronik va diaxronik. Mazkur

xususiyatlarning namoyon bo‘lishiga ko‘ra leksik enantiosemiyaning bir qator turlari farqlanadi

Lisoniy enantiosemiya. Lisoniy enantiosemiya o‘z mohiyatiga ko‘ra muayyan tilda so‘zlashuvchilarning lisoniy xotirasida tayyor holda mavjud bo‘lgan, faqat uzual ma’nolar asosida yuzaga keladigan ma’noviy zidlanishdir. Hozirgi o‘zbek tilida lisoniy enantiosemiya shaxs, narsa, belgi, payt, o‘rin, miqdor, harakat tushunchasi bilan bog‘liq zidlanishlarda kuzatiladi.

I. Shaxs tushunchali lisoniy enantiosemiyada uzual ma’nolar “ajdod – avlod”, “do‘st – dushman”, “aka – uka”, “opa – singil”, “sotuvchi – xaridor”, “kreditor – debitor” tarzida qarshilanadi.

“Ajdod – avlod” tarzidagi zidlanish *zot, zurriyod, avlod, ajdod, nasl* kabi bir necha enantiosemik so‘z ma’nolari bilan namoyon bo‘ladi. Qiyoslang: **Zot**. 1. Ajdod, nasl-nasab: *Aytib berar uning otini, Aytib berar asli, zotini* (Hamid Olimjon, “Zaynab va Omon”). 2. Avlod, keyingi nasl: *Senday qonxo‘r zolimdan Qolmasin deb biror zot, Bosh ko‘tardik, zulmdan Bo‘lmoqchi edik ozod* (Hamid Olimjon, “Oygul bilan Baxtiyor”). **Zurriyot**. 1. Ajdod, nasl-nasab: *Nima yeydi dilbar oting, Bayon ayla zurriyoting* (“Murodxon” dostoni). 2. Avlod, keyingi nasl: *Bu – yashamoq qonuni, zurriyot qoldirishga bo‘lgan tabiiy va tug‘ma ehtiyoj qonunidir* (Sh.Xolmirzaev, “Cho‘loq turna”).

“Do‘st – dushman” tarzidagi zidlanish *tarafkash* so‘zining “tarafini oluvchi, tarafdor” va “qarshi chiquvchi, raqib” uzual ma’nolari o‘rtasida mavjud. Qiyoslang: *Qolgan ikkitasi bularni himoya qilib turdi va tarafkashlar paydo bo‘lganda, atigi bir musht bilan urib yiqitishdi* (Nusrat Rahmat, “Jadid”); *Burgutning yigitlari hali kurashda yelkasi yer ko‘rmagan polvonlar. Hozir bu polvonlarga Farg‘ona tomonda tarafkash yo‘q, – dedi yigit* (Said Ahmad. Cho‘l burguti”).

Harif so‘zi semantik strukturasida ham ayni ma’noviy munosabatdagi enantiosemik ma’nolar bor. Qiyoslang: 1. Raqib: *Mahmadana xijolat bo‘ldi.*

Chorshanbievga o‘qrayib qaradi, lekin qattiq gapirolmadi, qolaversa, ustozi tufayli ulug‘ davralarning ham hadisini ko‘rgan, uncha-muncha hariflarga javob aytishga qurbi yetardi (Murod Muhammad Do‘st, “Lolazor”); 2. Do‘st, ulfat: *Tashbehlar noo‘rin, deb o‘yladi Yaxshiboev, qiyoslaganda buning raqiblari tugul, og‘iz-burun o‘pishgan hariflari ham farishtaga aylanib qoladi* (Murod Muhammad Do‘st, “Lolazor”).

Harif so‘zi eski o‘zbek tili davrida ham enantiosemik ma’nolarga ega bo‘lgan. Sh.Rahmatullaev bu so‘zning arab tilidan o‘zlashgani va manba tilda “jo‘ra”, “o‘yinda sherik” va “qarshi taraf kishisi” (O‘TEL) ma’nolarini anglatganini qayd qiladi. Eski o‘zbek tilida ham “do‘st, ulfat” ma’nosini bildirgan: *Dedi: “K-ey borchangiz ko‘nglumga munis, Kecha-kunduz harifu yori majlis”* (Alisher Navoiy. Farhod va Shirin”). XVIII – XIX asr eski o‘zbek tilida, xususan, Turdi Farog‘iy asarida (*Hukm jori, so‘z qabuli, bir duri dar go‘sh (quloqda) edim, Ahli davlatlar bilan yoru harif, hamdo‘sh edim* (Turdi Farog‘iy, “Muxammas”), Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida ham “do‘st, ulfat” ma’nosida qo‘llangan: *Holo, bu turg‘onlaring navola do‘stlari, piyola hariflari, taom yemakka hozir, maslahatga aqli qosir*.

“Aka – uka” tarzidagi zidlanish *amaki*, *tog‘a* so‘zlari sememalaridagi “aka” va “uka” semalari orqali namoyon bo‘ladi. Masalan: amaki. 1. Otaning akasi: *Otam kenjaligi tufayli otasidan qolgan uyda turar, amakilarim esa shu uyning ikki qanotidan o‘zlariga hovli-joy qilib olishgan edi* (O‘.Umarbekov, “Qaytar dunyo”). 2. Otaning ukasi: *Akbar oxirgi marta shu maqbara oldida ko‘zi ko‘r amakisi Komron mirzo bilan qanday uchrashganini o‘g‘illariga aytib berdi* (P.Qodirov. Avlodlar dovoni). Tog‘a. 1. Onaning akasi: *U oyimning tug‘ishgan akasi, rahmatli G‘ani tog‘amning qizi edi* (O‘.Umarbekov, “Mening o‘g‘ilbola jiyanim”). 2. Onaning ukasi: *Ayniqsa, onasining sevimli ukasi bo‘lmish kichik tog‘asini ko‘p ko‘rgisi kelardi* (Tohir Malik. Falak”).

“Opa – singil” tarzidagi zidlanish *amma, xola* so‘zlari sememalaridagi “opa” va “singil” semalari o‘rtasida kuzatiladi. Masalan: amma. 1. Otaning opasi: *Bola ammasini birinchi marta ko‘rayotgan bo‘lsa ham, bu istarasi issiq ayolni ko‘pdan beri biladigandek begonasiramas edi. Xonzoda begim bolaning lo‘ppi yuziga yuzini qo‘yib erkalatganda Humoyun buni yoqtirib kulimsiradi* (P.Qodirov, “Yulduzli tunlar”). 2. Otaning singlisi: *Akbar ammasini [Gulbadanbegimni] shunday kitob yozgani uchun astoydil bir quvontirgisi kelib, Kashmirga ataylab olib kelgan edi* (P.Qodirov. Avlodlar dovoni). Xola. 1. Onaning opasi: *O‘zim, – dedi polvon og‘ir xo‘rsinib, – tinchlik, xola. Kelganimdan maqsad, bir gumon gapni aniqlamoqchiman. Onamning, sizning opangizning hayotida biror iflos sir bormi?* (A.Ayizov, “Polvon yig‘lagan tun”). 2. Onaning singlisi: – *Axir men onaginangni singlisiman. Xolaginam o‘likmi, tirikmi deb biror marta xabar olmaysan!* (Said Ahmad. Qishdan qolgan qarg‘alar”). Mazkur sememalardagi “aka” – “uka”, “opa” – “singil” semalari kattalik-kichiklik tushunchasi asosida zidlanadi.

“Sotuvchi – xaridor” tarzidagi zidlanish *bozorchi* so‘zining “bozorda savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi” (*Biroq o‘sha shahardan bir bozorchi Turdiqul yashaydigan shaharning bozoriga borib qolib, buning ertak emas, aynan haqiqat ekanligini jiddiy tarzda turib aytdi* (Sh.Bo‘taev, “Haykal”) va “savdo-sotiq ehtiyoji bilan bozorga kelgan kishi”, ya’ni “xaridor” *Avvalgi baxmal bayroqlarni qishloqdan kelgan bozorchilarga sotishar edi* (Said Ahmad. Umrim bayoni”), *mijoz* so‘zining “sotuvchiga nisbatan doimiy xaridor” (– *Ayting uningizga, kafesini ham, mijozlarini ham pishirib yesin!* (Tohir Malik. Samum”) va “xaridorga nisbatan doimiy sotuvchi” (– *Yana kimga qiziqib qopti? – Anuv eski mijoziz bo‘lardi-ku, Ilhom sutchi. O‘shanga* (Murod Mansur. Judolik diyori”) ma’nolari o‘rtasida yuzaga chiqadi.

“Kreditor – debitor” tarzidagi zidlanish *bo‘nakchi* so‘zidagi “bo‘nak (qarz) berib odam ishlatuvchi shaxs” va “bo‘nak olgan shaxs, qarzdor” (O‘TIL)

ma’nolari o‘rtasida namoyon bo‘ladi. Qiyoslang: *Mendan bo‘lak bo‘nakchining qo‘liga tushganingizda, birini ikki qilib olardi* (N.Safarov, “Sulton bo‘zchining nevaralari”); *Bitta menmas, bechora-bekas Bo‘nakchilar boydan norozi* (Muhammad Ali, “Boqiy dunyo”).

II. Narsa tushunchali lisoniy enantiosemiyada ma’nolar “davo vositasi – og‘u”, “kattalik – kichiklik”, “ifloslik – tozalik” tarzida qarshilanadi.

Nutqiy enantiosemiya nouzual enantiosemiya bo‘lib, uzual va okkazional ma’nolar o‘rtasida yuzaga keladi. Nutqiy enantiosemiya so‘zning kontekstdagi boshqa so‘zlar bilan bo‘lgan leksik-sintaktik aloqasi, so‘zlovchining kommunikativ-situativ maqsadi, subyektiv munosabati natijasida vujudga keladi va ayni jihati bilan lisoniy enantiosemiyaga qarshilanadi hamda subyektiv-baholovchi enantiosemiyani ham, grammatik enantiosemiyani ham qamrab oladi. Tadqiqotlarda belgi bildiruvchi so‘zlarning nutqiy enantiosemiklik kasb etishi unumli hodisa, deyiladi[127]. Ammo o‘zbek tili materiallari tilimizdagi boshqa turkum so‘zlarining, xususan, ot turkumiga mansub so‘zlarning ham enantiosemik voqelanish imkoniyatlari belgi bildiruvchi so‘zlarning ayni imkoniyatidan kam emasligini ko‘rsatdi. Masalan, “O‘zbek tili enantiosemik so‘zlarining izohli lug‘ati”[128]dagi nutqiy enantiosemik so‘zlarning 46 tasi ot, 40 tasi sifat, 11 tasi fe’l, 4 tasi ravish, 1 tasi olmosh so‘z turkumiga oid birliklardir. Shuning uchun enantiosemiyaning voqelanish imkoniyatini turkumlik belgisiga asosan emas, balki ularning ma’noviy munosabatlariga ko‘ra tasniflash joiz.

Nutqiy enantiosemiya turli mazmuniy munosabatdagi ma’nolar o‘rtasida voqelanadi, chunki muvofiq nutqiy vaziyat taqozosi va so‘zlovchining kommunikativ-situativ maqsadi asosida istalgan so‘z qarama-qarshi ma’noda namoyon bo‘lishi mumkin. Hozirgi o‘zbek tilida nutqiy enantiosemiya shaxs, narsa, belgi, payt, o‘rin, miqdor, harakat tushunchasi bilan bog‘liq zidlanishlarda kuzatiladi. Nutqiy enantiosemiyani ironiya harakatlantirib turadi.

---

[127] Смоленская С.С., Давыдов М.В. Интонация как показатель энантиосемии слов и словосочетаний // Вестник Московского университета. Филологические науки, 1972. – № 3. – С. 65-71.
[128] Маҳмудов Н., Одилов Ё. Кўрсатилган асар.

Nomlovchi va baholovchi enantiosemiya. I. Shaxs tushunchali nutqiy enantiosemiyada uzual va okkazional ma’nolar “do‘st – dushman”, “yigit – chol” tarzida qarshilanadi.

“Do‘st – dushman” tarzidagi zidlanishda ma’nolar “do‘stlik” va “dushmanlik” belgilariga ko‘ra qarshilanadi. Masalan, *do‘st* so‘zining uzual “har jihatdan yaqin kishi, chin o‘rtoq” va okkazional “dushman, raqib” ma’nolari o‘rtasida shunday qarshilanish yuzaga keladi. Qiyoslang: *Biz do‘stlar bilan ... gurunglashib o‘tirganimizda o‘tib qolardingiz* (O.Yoqubov, “Matluba”); *O‘sha paytda biron jo‘yali gap topolmagan ba’zi “do‘stlarimiz” “Girdob”ni o‘zi yozmagan deganga o‘xshash bema’ni gaplarni ham tarqatdilar* (N.Fozilov, “Boqiy umr”).

O‘z navbatida, muvofiq nutqiy vaziyatda *dushman* so‘zining uzual “g‘anim, raqib” va okkazional “har jihatdan yaqin kishi, chin o‘rtoq” ma’nolari (*Mas’ul xodim ham mas’ul idorasida mas’uliyatli qog‘ozlarni titkilab o‘tiraverib zerikkan ekan, bu xonimga elakishib, rosa biti to‘kildi. Allaqachonlar xokiturob bo‘lib ketgan **“dushman”** shoirning nima qizig‘i bor unga, bilqillagan jiyani turganda!* (Erkin A’zam. Shoirning to‘yi”) o‘rtasida ham shunday enantiosemiya namoyon bo‘ladi. Umuman, “do‘st – dushman”, “yigit – chol” tarzidagi zidlanish “dushman – do‘st”, “chol – yigit” tarzida aks qarshilanishni yuzaga keltirishi mumkin. Aks qarshilanish nutqiy enantiosemiyaning boshqa ma’noviy munosabat asosidagi ko‘rinishlariga ham xosdir.

“Yigit – chol” tarzidagi zidlanishda so‘zning uzual va okkazional ma’nolari shaxsning “yoshlik” va “qarilik belgisi asosida qarshilanadi. Buni *yigit* so‘zining uzual “balog‘atga yetgan, yoshi ulug‘ bo‘lmagan erkak” va okkazional “yoshi ulug‘ erkak, chol” (*Kutilmaganda chol rusiyalik yoqimtoy qizning yanoqlaridan ushlab o‘ziga qaratdi-da, peshonasidan cho‘lp etib o‘pib oldi. Ushbu manzarani kuzatib turgan Anvarning keng peshonasi tirishib, sho‘x*

“yigit”ga xo‘mrayib qaradi (A.Abdullaev, “Dard”) ma’nolari o‘rtasidagi munosabatda ko‘rish mumkin.

To‘liq va qisman enantiosemiya. Frazeologik birliklarda ham simmetrik va asimmetrik enantiosemiya mavjud bo‘lib, uning mezonlari so‘zdagi shunday enantiosemiyaga o‘xshash. Bunday frazeologik enantiosemiya ma’noviy qarshilanishning to‘liq yoki noto‘liqligi, bir yoki ikki mavzu ostidagi ma’noviy zidlikni ko‘rsatishi, sememalardagi integral va differensial semalarning o‘zaro mos kelishi yoki kelmasligi, bevosita yoki bilvosita zidlanishiga ko‘ra farqlanadi .

To‘liq enantiosemiya. Ma’lumki, frazeologizmlarning katta qismini somatik frazeologizmlar tashkil etadi. Tadqiqotlarda qayd qilinganidek, somatik frazeologizmlar u yoki bu tana a’zolari asosida yuzaga kelgan frazeologizmlardir . Shuningdek, somatik frazeologizmlarga kishi tana a’zolaridan tashqari “qon”, “suyak”, “teri” tushunchalari bilan bog‘liq leksemalar bilan shakllangan birliklar ham kiritiladi . Bizningcha ham, bu kabi turg‘un birikmalarni somatik frazeologizmlar sirasiga kiritish lozim. Negaki ular bevosita kishi tana a’zosi hisoblanmasa ham, biroq inson organizmi uchun tana a’zolaridek xizmat qiladi va frazeologizm tarkibida tana a’zolari nomlari singari mavqeda bo‘ladi.

Frazeologizm ma’nolari to‘liq enantiosemiyani namoyon etishi uchun semantik qarshilanish to‘liq, bir ma’noviy munosabat ostidagi zidlanishni ko‘rsatishi, integral va differensial semalarda mos bo‘lishi, bevosita zidlanib, leksik qurshovi o‘xshash bo‘lishi lozim. Masalan, hozirgi o‘zbek tilidagi ko‘zi yonmoq frazeologizmi “asabiylashmoq, jahli chiqmoq” va “juda xursand bo‘lmoq” (O‘TIL) ma’nolarini anglatadi. Qiyoslang: Qushbegining ko‘zi yondi. Manglay etlari tirishib, so‘l qo‘li bilan soqolini tutamlab, fikrga ketdi (Abdulla Qodiriy. O‘tgan kunlar); Quvonchdan Bektemirning ko‘zlari yonib ketdi (Oybek. Quyosh qoraymas). Mazkur frazeologizmdagi enantiosemik ma’nolar komponent tahlil qilinsa, “muayyan harakat-holatdan jahli chiqmoq” va “muayyan harakat-holatdan xursand bo‘lmoq” sememalari quyidagi integral va differensial semalarga ajraladi:

“muayyan”, “harakat-holat” – integral, “jahli chiqmoq”, “xursand bo‘lmoq” – differensial semalardir, zidlik shu semalarga asoslanadi.

Ayni ma’noviy zidlikning to‘liq ekanligi shundaki, qarama-qarshi sememalarning integral semalari bir xil, differensial semalardagi zidlanish ham o‘zaro teng va to‘liq. Integral semalar zidlikning bir mavzuiy munosabat ostida ekanini, ya’ni “muayyan paytdagi kishi ruhiy holatining ifodasini” ko‘rsatsa, differensial semalar muvofiq qarshilanishni namoyon etadi. Mazkur sememalar istalgan leksik-sintaktik qurshovda namoyon bo‘lishi mumkin. Yana qiyoslang: Badianing ko‘zlari yonar, titrab turgan qo‘lidagi o‘tkir xanjar yarqirar edi (Mirmuhsin. Me’mor); Tal’atning onasi Mashkuralarning ko‘chasini bir necha bor supurdi. Ikki yil mobaynida “Tal’at” desa ko‘zi yonuvchi Mashkura birdaniga o‘zgardi-qoldi. Sovchilar quruq qaytishaverdi (Tohir Malik. Davron).

Hozirgi o‘zbek tilidagi qo‘li bog‘lanib qolmoq somatik frazeologizmi ham “biror yumush (yumush ko‘pligi) tufayli qo‘li band bo‘lib bo‘lib qolmoq” va “ishsiz, biror yumushsiz bekor qolmoq, ish qilolmay qolmoq” (O‘TIL) ma’nolari bilan to‘liq enantiosemiyani namoyon etadi. Quyidagi misolda mazkur frazeologizmning keyingi ma’nosi ifodalangan: Sen bu yerning shimoldan keladigan shamolu bo‘ronlarini bilasanmi? U kranlarni, yuksakdagi payvandchilarni, beton ishlarini xavf ostida qoldirib, qishda oylab qo‘lni bog‘laydi (Asqad Muxtor. Bo‘ronlarda bordek halovat). Har ikki sememadagi “band bo‘lib qolmoq” semalari umumiy semalar bo‘lib, ular mazkur zidlikning bir umumiy mavzu ostida ekanligini ko‘rsatadi, frazeologizm leksik qurshovining muvofiq bo‘lishini ta’minlaydi. “Ishning ko‘pligi” va “ishning yo‘qligi” semalari farqli semalar bo‘lib, zidlik shu semalar hisobiga voqelanadi.

Qisman enantiosemiya qarshilanayotgan ma’nolarning frazeologizm semantik markaziga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra ham aniqlanadi, ya’ni bunda zid ma’nolardan biri frazeologizm semantik markaziga yaqin, ikkinchisi uzoqroq joylashgan bo‘ladi. Ko‘pincha, bunda frazeologizmning nisbatan neytral

xususiyatga ega bo‘lgan ma’nosi frazeologizm semantik markaziga yaqin turadi. Masalan, O‘TILda qo‘l ko‘tarmoq frazeologik birligining uch ma’nosi qayd etilib, ular “rozilik, xohish ifodasi sifatida qo‘lni ko‘tarmoq”, “taslim bo‘lmoq” hamda “birovni urish, zarba berish uchun xezlanmoq” ma’nolaridir (V jild. B.403). Bunda frazeologik birlikning ikkinchi va uchinchi ma’nolari o‘rtasida semantik zidlanish kuzatiladi: “taslim bo‘lmoq” – “birovni urish, zarba berish uchun xezlanmoq”. Qiyoslang: *Qurshovda qolgan dushman qismi qarshilikni to‘xtatib, qo‘l ko‘tardi* (O‘TIL); – *Ular qo‘l ko‘targandan keyin qo‘l ko‘tarsak, kech qolamiz, og‘aynilar – dedi u. Orqalaridan quvib borib, birdaniga soldirmasak bo‘lmaydi* (Cho‘lpon. Kecha va kunduz).

Sinxronik va diaxronik enantiosemiya. O‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklarni sinxron va diaxron aspektda tadqiq etish A.Isayevning tadqiqotida amalga oshirilgan. Mazkur dissertasiyada ta’kidlanishicha, qadimgi turkiy tildagi mavjud 2330dan ortiq umumturkiy frazeologizmning aksar qismi hozirgi turkiy tillarda qo‘llanmaydi, ba’zilari esa umumturkiy frazeologizmlar sifatida hozirgi turkiy tillarda ham mavjud. 132 umumturkiy somatik frazeologizm esa tuzilishi yoki semantikasida turlicha o‘zgarishlar bilan uchraydi. Hozirgi o‘zbek tilida ham shunday somatik frazeologizmlar saqlanib qolgan .

Frazeologik enantiosemiyaning lisoniy tabiatini to‘liq tavsiflash uchun uning sinxron va diaxron jihatlarini o‘rganish lozim. O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan enantiosemik frazeologizmlarning barchasi ma’noviy zidlikni sinxron yoki diaxron nuqtai nazardan ifodalashiga ko‘ra farqlanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, tadqiqotlarda enantiosemik ma’nolarning til taraqqiyotining muayyan bir davrida mavjud bo‘lishi sinxronik enantiosemiyani, ikki davrida mavjudligi esa diaxronik enantiosemiyani yuzaga keltiradi .

Sinxronik enantiosemiya. Ma’lumki, frazeologik birlikning semantik strukturasida nominativ ma’no bilan birga ayni ma’noning obrazli ifodasi ham bo‘ladi. Frazeologizm ana shu obrazli nominasiya bilan so‘zdan farqlanadi. Ammo

so‘z ham, frazeologizm ham, birinchi navbatda, biror narsa yoki harakat-holatni nomlash taqozosi bilan hosil bo‘ladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ba’zi tilshunoslar frazeologizm ma’nosini uni so‘zga qiyoslamasdan turib ochib bo‘lmasligini ta’kidlaydilar. Shundan kelib chiqib, frazeologizmdagi enantiosemik munosabatni ham leksik antonimlik mezoni asosida belgilash mumkin. Yu.D.Apresyan antonimik munosabat turlarini ko‘rsatar ekan, “biror joyga kirmoq” va “biror joydan chiqmoq” zidligini antonimiyaning tipik ko‘rinishi deb ataydi .

Bunday ma’noviy zidlik hozirgi o‘zbek tilidagi enantiosemik frazeologizmlar bilan ham ifodalanadi. Masalan, ostona hatlamoq frazeologizmining “biron joyga (uy, xona va shu kabi) kirmoq” va “biron joydan chiqmoq” (O‘TIL) ma’nolari o‘rtasida sinxronik enantiosemiya kuzatiladi. Qiyoslang: – *Assalomu alaykum, xolamoyi, – men ostona hatlab, qo‘lim ko‘ksimda, mushtdek bo‘lib o‘tirgan kampirga yelkamni tutib bordim* (Murod Mansur. Judolik diyori); – *Lekin birov o‘shandan beri ostona hatlab, ko‘chaga chiqqanini ko‘rgan emas, bolam* (Murod Mansur. Judolik diyori). Yana qiyoslang: – *Hay, mayli, nimayam qilardik... Endi kelin, – ostona hatlab yo‘lakka kirgan Toshtemir aka atrofga alangladi* (A.Yo‘ldoshev. Qishloqilar); *Axir ostona hatlab chiqolmay qoldum, Kattabog‘ga gap tarqab ketupti!* (Murod Mansur. Judolik diyori).

Shunday holatlar bo‘ladiki, u yoki bu til birligi orqali ifodalanayotgan enantiosemik ma’no bir nutqiy vaziyatdan anglashiladi. Masalan, quyidagi misolda qo‘llangan ostona hatlamoq frazeologizmini “Tavakkal atalmish kishini ostonadan ichkariga kiritmaslik” ma’nosida ham, “uni uy ostonasidan tashqariga chiqarmaslik” ma’nosida ham kelgan deb tushunish mumkin. – *Tushunolmadim, – deb yana yolg‘ondakam ishshaydi Tavakkal. – Akamni ostonadan hatlatmang, demoqchimisiz?* (Sh.Xolmirzayev. Bulut to‘sgan oy). Bu, bir qarashda, adresat uchun nutqiy vaziyatni tushunishda murakkablik tug‘diradigandek tuyuladi, ammo

ayni kontekst bog‘liq bo‘lgan matn qaysi ma’no nazarda tutilayotganini ko‘rsatib turadi. Shunday ekan, hozirgi o‘zbek tili sohibi uchun ayni nutqiy vaziyatni idrok etishda murakkablik bo‘lmaydi.

Ma’lumki, eski o‘zbek tilida oyoq so‘zi asosida o‘ttizga yaqin frazeologizm yaratilgan. Shulardan biri *oyoq uzatmoq* frazeologizmi bo‘lib, u Alisher Navoiy asarlarida “oyoqni cho‘zib yashamoq, yurmoq” ma’nosini anglatgan: *G‘am za’fida dasht uzra yotsang, Qum bistar ekin ayog‘ uzatsang* (Alisher Navoiy. Layli va Majnun). Hozirgi vaqtda ham *oyoq uzatmoq // oyoq cho‘zmoq* frazeologizmi polisemantik frazeologizm sifatida tilimizda faol qo‘llanadi. Uning dastlabki ma’nosi “ko‘ngli tinchimoq, g‘am-tashvishdan holi bo‘lmoq”, keyingi ma’nosi esa “o‘lmoq, jon bermoq” (O‘TIL)dir. Sh.Rahmatullayevning lug‘atida esa bu frazeologizmning faqat “qazo qilmoq” ma’nosi berilgan (O‘TFL). Diqqat qilinsa, frazeologizmning “tinch, g‘am-tashvishdan holi yashamoq” va “o‘lmoq, jon bermoq” ma’nosi o‘rtasida enantiosemiklik mavjud. Qiyoslang: *U dunyoda... kampiri nozik ta’b bilan boqmaydi. Silab-siypalamaydi. Shu bois u dunyoda o‘lsa bo‘ladi! U dunyoda oyoq uzatib yotsa bo‘ladi!* (Tog‘ay Murod. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi); *Kampir timirskilanib, Mirvalining yelkasiga qo‘l tashlab ko‘rishgan bo‘ldi. – Voy, nimasini aytasan, bolam, g‘oyibim hozir bo‘lib, uyim to‘lib qoldi. Endi oyog‘imni uzatib ketaversam ham bo‘ladi* (Said Ahmad. Jimjitlik).

Ko‘rinadiki, hozirgi o‘zbek tilida bir qator enantiosemik frazeologizmlar mavjud. Ulardan ba’zilarining semantik strukturasida faqat qarama-qarshi ma’nolar bo‘lsa, ayrimlarining semantik strukturasida enantiosemik ma’nolar bilan birga boshqa ma’nolar ham mavjud. Masalan, yuqorida tahlilga tortilgan ostona hatlamoq frazeologizmining semantik strukturasi qarama-qarshi ma’nolardangina iborat. Ammo joni xalqumiga kelmoq frazemasi semantikasida “nihoyatda qattiq g‘azablanmoq”, “nihoyatda qattiq qo‘rqmoq” (O‘TIFL. B.102) enantiosemik ma’nolari bilan birga, “o‘lar holatga yetmoq”, “chidami tugab, yashashdan ham bezor bo‘lib ketmoq” (O‘TIFL. B. 101) ma’nolari ham bor.

Demak, sinxron frazeologik enantiosemiya til taraqqiyotining aniq bir davrida frazeologizm semantik strukturasidagi ma’noviy qarama-qarshilikdir. Shunday xususiyatga ega bo‘lgan frazeologik enantiosemiyaning boshqa turlari ham sinxron frazeologik enantiosemiya maqomidadir .

Diaxronik enantiosemiya. Turkiy tillarning avvalgi davrlariga oid frazeologik birliklar borasida ham turkologiyada bir qator ishlar amalga oshirilgan. Bu borada E.Umarovning eski o‘zbek tili, xususan, Alisher Navoiy asarlarida ishlatilgan frazeologizmlar yuzasidan olib borgan ishlarini ham ko‘rsatish lozim .

Frazeologizmdagi diaxron enantiosemiklik ham muayyan frazeologizmning tilning ikki taraqqiyot davridagi qarama-qarshi ma’nolari o‘rtasida yuzaga keladi . Masalan, qadimgi turkiy va hozirgi o‘zbek tili, eski turkiy va eski o‘zbek tili, eski o‘zbek tili hamda hozirgi o‘zbek tili o‘rtasidagi enantiosemiklik kabi.

Eski turkiy tildagi eliq tort frazeologizmida ham zid ma’no taraqqiyoti yuz bergan. Mazkur frazeologizm avval “biror ish yoki harakatni boshlamoq” ma’nosini anglatgan. Masalan, *Sav altun bila tartsa beqlar eliq* (So‘z, oltin bilan beklar ish boshlasa) (Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig). “Qadimgi turkiy lug‘at”da ham shunga yaqin “ishga solish”, “qo‘llash”, “harakatga keltirish” ma’nolarini anglatgani aytiladi (B. 228). Mazkur frazeologizm hozirgi o‘zbek tiliga eliq so‘zining sinonimi sanalgan qo‘l so‘ziga almashib (qo‘l tortmoq) yetib kelgan. Bu frazeologizm hozirgi o‘zbek tilida eski turkiy tildagi ma’nosiga zid bo‘lgan “biror ish yoki harakatdan to‘xtamoq” ma’nosida qo‘llanadi. Ko‘rinadiki, eski turkiy tildagi “biror ish yoki harakatni boshlamoq” va hozirgi o‘zbek tilidagi “biror ish yoki harakatdan to‘xtamoq” ma’nolari o‘rtasida diaxronik enantiosemiya bor.

Diaxronik enantiosemiyaning o‘ziga xos jihatlaridan biri qarama-qarshi ma’nolardan birining tilning hozirgi davrida bo‘lmasligidir. Bunda enantiosemik ma’noning biri, asosan, dastlabkisi til taraqqiyotining hozirgi davriga qadar yetib kelmagan, iste’moldan chiqib ketgan bo‘ladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Leksik enantiosemiyaning qanday turlari bor?
2. Nutqiy enantiosemiya deganda nimani tushunasiz?
3. Lisoniy enantiosemiyaning o‘ziga xos jihatlarini aytib bering?
4. Nomlovchi va baholovchi enantiosemiyaning farqli xususiyatlarini izohlang?
5. Baholashning olamni bilishdagi ahamiyatini aytib bera olasizmi??
6. To‘liq va qisman enantiosemiyaga ta’rif bering?
7. Tilning bir taraqqiyot davriga xos ma’noviy zidlik qanday enantiosemiyani yuzaga keltiradi?
8. Tilning ikki taraqqiyot davriga xos ma’noviy zidlik qanday enantiosemiyani yuzaga keltiradi?
9. Nominativ ma’no va nomlovchi enantiosemiya tushunchalarini izohlang.
10. Subyektiv baho va baholovchi enantiosemiya tushunchalarini izohlang.
11. So‘zdagi zid ma’nolarning uzual va nouzualligiga qanday enantiosemiyani yuzaga keltiradi?
12. Qarindoshlik terminlari ma’nolarida zid semalar bormi? Fikringizni misollar asosida dalillang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жаркова Е.Х. Энантиосемия лексико-грамматического и словообразовательного типа в кругу смежных явлений: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва: Ун-т дружба народов имени Патриса Лумумбы, 1988. – 15 с.
2. Жеребило Т.В. Словар лингвистических терминов. Изд-е 5-е.
3. Назран: ООО “Пилигрим”, 2010. – 486 с.
4. Закирова Р. Антонимы в татарском языке: Лексико-грамматические, семантические и стилистические особенности употребления: Дисс. … канд. филол. наук. – Казан: Казанский гос. ун-т., 2001. – 193 с.

5. Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодаланишининг усул ҳамда воситалари: Филол. фан. ном. … дисс.
6. Фарғона: ФарДУ, 2001. – 118 б.
7. Иванова В.А. Антонимия в системе языка. Штинса. – Кишинев, 1982. – 163 с.
8. Исабеков Б. Ҳозирги ўзбек тилида лексик антонимия: Филол. фан. ном. … дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 1973. – 118 б.
12. Климова Л.И. Антонимичные значения полисемантичных слов в современном русском языке: Автореф. дисс. ... канд. Филол. наук. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский гос. пед. инс-т. им. Герсена, 1975. – 22 с.
13. Колесникова С.М. Фунционално-семантическая категория градуалности в современном русском языке. – М.: Высшая школа, 2010.

3-AMALIY MASHG‘ULOT:

TILDA MILLIY-MADANIY KONNOTATSIYANING AK SETISHI. O‘ZBEK TILIDA FRAZEOLOGIK ENANTIOSEMIYANING TURLARI

REJA:

1. ***Frazeologik enantiosemiya va uni tasniflash mezonlari***
2. ***Frazeologik birlikda lisoniy va nutqiy enantiosemiya***
3. ***Frazeologik birlikda nomlovchi va baholovchi enantiosemiya***
4. ***Frazeologik birlikda to‘liq va qisman enantiosemiya***
5. ***Frazeologik birlikda sinxronik va diaxronik enantiosemiya***

Tayanch iboralar: *frazeologik birlik, frazeologik enantiosemiya, obrazlilik, subyektiv baho, frazeologik enantiosemiya turlari.*

Frazeologik enantiosemiya va uni tasniflash mezonlari.O‘tgan asrning so‘nggi choragidan boshlab tilshunoslikda yangi yo‘nalish – tilni o‘z egasi bilan birgalikda o‘rganadigan antropotsentrik paradigma shakllandi. N.Mahmudov antropotsentrik paradigma va shu paradigma doirasidagi tahlillarning bevosita tilning mohiyatiga dahldor ekanligini ta’kidlar ekan, uning maqsadu mohiyatini quyidagicha tushuntiradi: “Tilning ana shu obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi”[129].

Ma’lumki, bu paradigma o‘z ichiga sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik kabi til sohalarini qamrab oladi. O‘zbek tilshunosligida ham antropotsentrik yo‘nalishdagi ishlar olib

[129] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 6.

borilmoqda. Bunday ishlar sirasida D.Xudayberganovaning monografik tadqiqotini keltirish o‘rinli. Unda matn yaratilishining kognitiv-semantik, lingvokulturologik va psixolingvistik omillari o‘zbek tili manbalari asosida tadqiq etilgan[130].

Til o‘z sohibi bilan birgalikda o‘rganilar ekan, uning maqbul tavsifi ham o‘zi mansub millat madaniyati va mentaliteti bilan birga olib qaralgandagina beriladi. Ana shu jihat, ya’ni til va milliy-madaniy jipslik lingvokulturologik tadqiqotlarning markazida turadi[131]. Albatta, tildagi aksar birliklar u yoki bu darajada milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni namoyon etadi, ammo shunday til birliklari borki, ular milliy-madaniy o‘ziga xosliklarning benihoya betakror timsolidir. Shu ma’noda frazeologizmlar millat mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi hamda uzoq yillik kuzatuvlarining qabariq ifodasidir.

Lingvokulturologiya borasida tadqiqotlar olib borgan V.A.Maslovaning ta’kidlashicha, frazeologizmlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki assotsiativ tarzda u yoki bu xalqning dunyo, jamiyat haqidagi axborotlarini madaniy-milliy prizma orqali yetkazadi, shu xalq dunyoqarashining xarakterli xususiyatlarini ko‘rsatadi, ayni paytda, uning dunyoqarashini ham belgilaydi[132].

O‘zbek tili frazeologik tizimi ham o‘zbek xalqining tarixi, milliy-madaniy xususiyatlari va dunyoqarashini ko‘satuvchi muhim manbadir. Zotan, tilimizdagi *zuvalasi pishiq, zig‘ir yog‘day ko‘ngliga urmoq, kavushini to‘g‘rilab qo‘ymoq, og‘ziga so‘k solmoq* kabi frazeologizmlarning yaratilishi ham shu millatning uzoq yillik turmush tajribasi, olamni o‘ziga xos lisoniy idrok etish tarzining mahsulidir. Frazeologik birliklar millat mentaliteti va dahosining ko‘zgusi ekan, ularni har tomonlama o‘rganish, xususan, uning enantiosemik xususiyatlarini lingvokulturologik, etnolingvistik, sotsiolingvistik jihatlari bilan mushtaraklikda tadqiq etish g‘oyat muhim.

---

[130] Худайберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.

[131] Тилшунослар лингвокультурологиянинг тилшуносликнинг алоҳида йўналиши сифатида шаклланишини машҳур рус тилшуноси В.Н.Телия номи билан боғлайдилар.

[132] Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 86.

Frazeologik birlikda lisoniy va nutqiy enantiosemiya.Ma’lumki, frazeologik birliklar ham so‘zlar singari yo tilning uzual qatlamiga, yoki individual nutqqa tegishli bo‘ladi. Shu bois ularni ham til-nutq kesimida tadqiqqa tortish, bu orqali ularga xos lisoniy va nutqiy jihatlarni aniqlash lozim. Ana shu zaruratga muvofiq tarzda frazeologik enantiosemiyani til-nutq kesimida tahlil qilish orqali muhim natijalarga erishish mumkin. Frazeologik enantiosemiya faqat uzual yoki uzual va okkazional ma’nolarning o‘rtasida yuzaga kelishiga ko‘ra lisoniy va nutqiy enantiosemiyaga ajraladi.

Lisoniy frazeologik enantiosemiya. Nutqqa qadar frazeologizm semantik strukturasida mavjud uzual ma’nolar qarshilanishi lisoniy frazeologik enantiosemiyadir. Ma’noviy zidlikning nutqqa qadar mavjudligi uning uzusda mavjudligini ko‘rsatadi. Hozirgi o‘zbek tilida lisoniy frazeologik enantiosemiya shaxs, payt, harakat tushunchasi bilan bog‘liq zidlanishlarda kuzatiladi. Ta’kidlash joizki, “frazeologizmlarning asosiy qismini fe’l frazeologizmlar tashkil qilgani” (O‘TIFL.B. 11) bois hozirgi o‘zbek tilida harakat tushunchali lisoniy enantiosemiyalar miqdor jihatidan ko‘p.

I. Shaxs tushunchali lisoniy frazeologik enantiosemiyada uzual ma’nolar “er – xotin”, “ajdod – avlod” tarzida qarshilanadi:

1.1. **“Er – xotin” tarzidagi zidlanish** *ko‘z ochib ko‘rgan* frazeologizmining “xotinga nisbatan birinchi er” – “erga nisbatan birinchi xotin” ma’nolari o‘rtasida namoyon bo‘ladi. Qiyoslang: *Oralaringizdan ola mushuk o‘tmaganmidi? – Ola mushuk? U kishi... bolalarimning otasi... ko‘z ochib ko‘rganim* (Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar); *Ag‘darilib yotgan simyog‘ochlar, pachoqlangan yengil mashinalar oralab yugurib borayotgan Shavkat tinmay pichirlardi: – Botirjon, bolam!.. Surayyo, jonim!.. Ko‘z ochib ko‘rganim!* (Sh.Boshbekov. Falakning gardishi).

Shu o‘rinda jinsga ko‘ra farqlanishning ziddiyat sifatida baholanishi mumkinmi, yo‘qmi, degan savolga to‘xtalib o‘tish lozim. Antonimiyaning lisoniy

tabiatini birinchilardan bo‘lib tadqiq etgan S.Usmonovning fikricha, insonga xos jinsiy farqlanishga (masalan, erkak-ayol) antonim deb qarash lozim, chunki mazkur so‘zlar anglatadigan ma’nolar nafaqat erkak-ayollik belgisiga ko‘ra, balki ijtimoiy jihatlariga asosan ham farqlanadi. Ammo insondan boshqa narsalarga nisbatan qo‘llanadigan so‘zlardagi jinsga ko‘ra farqlanishni antonim deb bo‘lmaydi[133]. Bizningcha ham, bir til birligining (shaxs tushunchasi asosidagi) jinsga ko‘ra farqli ma’nolarini zid ma’nolar tarzida baholash ma’qul.

“Ajdod – avlod” tarzidagi zidlanish ye*tti pusht* frazeologizmining “kishining o‘zidan oldingi ajdodlari” va “kishining o‘zidan keyingi avlodlari” ma’nolari o‘rtasida mavjud.

II. Payt tushunchali lisoniy frazeologik enantiosemiyada uzual ma’nolar “goho-goho – har doim, hamisha” tarzida zidlanadi. Hozirgi o‘zbek tilidagi *u dunyo-bu dunyo* frazeologizmining ma’nolari o‘rtasida paytga xos qarshilanish mavjud bo‘lib, u frazeologizmning “har doim” va “hech qachon, aslo” ma’nolari o‘rtasida yuzaga keladi. Qiyoslang: *Dovyurakligi yoqib qolmaganda, bu uloq jinnisiga u dunyo-bu dunyo turmushga chiqmasdim* (Tohir Malik. Davron); *I m o m. Sizga ham rahmat, uka. Onaizorining ruhini shod etgan farzand, u dunyo-bu dunyo Ollohning inoyatiga sazovor bo‘lgusidir* (O.Yoqubov. Bir koshona sirlari).

III. Harakat tushunchali lisoniy frazeologik enantiosemiyada uzual ma’nolar 1) “ijobiy ish qilmoq – salbiy ish qilmoq”, 2) “maqtalmoq – yomonlanmoq”, 3) “kutib olmoq – kuzatib qo‘ymoq”, 4) “harakatni boshlamoq – harakatni to‘xtatmoq”, 5) “g‘azablanmoq – qo‘rqmoq” tarzida qarshilanadi.

“Ijobiy ish qilmoq – salbiy ish qilmoq” tarzidagi zidlanish *hunar ko‘rsatmoq, ish ko‘rsatmoq, ish chiqarmoq* frazeologizmlarining ma’nolari o‘rtasida kuzatiladi. Masalan, *hunar ko‘rsatmoq* frazeologizmining “mahoratini namoyish qilib, hamma qoyil qoladigan ish qilmoq” va “bo‘lmag‘ur, kishining ko‘ngli qoladigan ish qilmoq, nojo‘ya qiliq qilmoq” ma’nolari ayni ma’noviy

[133] Бу ҳақда қаранг: Усмонов С. Кўрсатилган мақола. – Б. 33-40.

munosabat asosida qarshilanadi. Qiyoslang: – *Mantini tugib bo‘ldingmi? Ha, durust. Hunaringni bir ko‘rsatasan, Sanginova* (Said Ahmad. G‘ildirak); – *Kecha nima hunar ko‘rsatdingiz? – dedi chimirilib. Endi og‘iz ochmoqchi edim, jerkib berdi: – O‘n besh sutka o‘tirishni xohlamasangiz, manavi jarimani to‘lab keling* (O‘.Hoshimov. Telpak). Ayni paytda mazkur qarama-qarshi ma’nolar o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning barchasi uchun uzual xarakterli.

Bizningcha, mazkur zidlik hunar ko‘rsatmoq frazeologizmida yuz bergan ma’no taraqqiyotining mahsuli bo‘lib, dastlab “mahoratini namoyish qilib, hamma qoyil qoladigan ish qilmoq” ma’nosi bo‘lgan. Keyinchalik *hunar* so‘zi semantikasining o‘zgarishi (kishining biror nobop qilmishini ham ifodalashi), kinoya bilan aytilishi natijasida *hunar ko‘rsatmoq* frazeologizmi “bo‘lmag‘ur, kishining ko‘ngli qoladigan ish qilmoq, nojo‘ya qiliq qilmoq” ma’nosini kasb etgan. *Hunar ko‘rsatmoq* keyingi ma’noda qo‘llanganda kontekstda salbiy munosabatni konkretlashtiradigan, namoyon etishga yo‘naltiradigan so‘zlar bo‘ladi. Masalan, yuqoridagi jumlada qo‘llangan *chimirilib*, *jerkib berdi* kabi so‘zlar salbiy munosabatning semantik mustahkamlovchisidir. Yana qiyoslang: *Lekin endigi ko‘rgazmaga tomosha qilgani emas, hunarimni ko‘rsatgani boraman* (Abdulla Qahhor. Kartina); *Hammaga ma’lumdir echkining fe’li, Qozonga tushguncha tinch tura olmas. Doim egri bo‘lgay tanlagan yo‘li, Hunar ko‘rsatmasa, jim yura olmas* (A.Oripov. Echki).

Hozirgi o‘zbek tilidagi *ish ko‘rsatmoq* frazeologizmining semantik strukturasida ham *hunar ko‘rsatmoq*qa yaqin ma’nodagi enantiosemiklik mavjud. Mazkur frazeologik birlikdagi “namunali, qoyil qoladigan ish qilmoq” va “yoqimsiz (ko‘ngilsiz) ish qilmoq”, “nojo‘ya qiliq qilmoq” uzual ma’nolari o‘rtasidagi zidlik ham lisoniy enantiosemiyadir. Qiyoslang: *Duchor kelganini ko‘kka otarman, ish ko‘rsatib yorim olib ketarman* (Alpomish); *Hali bu taraflarda ham ish ko‘rsatib yuribman, degin. Nima qilasan o‘zingga dushman orttirib* (Said Ahmad. Qirq besh kun).

Shuni ham aytish lozimki, zidlik nafaqat “namunali ish qilmoq – nojo‘ya qiliq qilmoq” ma’nolari o‘rtasida, shu bilan birga, mazkur ma’nolardan anglashiladigan ijobiy va salbiy baholar o‘rtasida ham bor. Diqqat qilinsa, birinchi ma’noda ijobiy, ikkinchi ma’noda salbiy baho mavjud, biroq u ayni ma’nolardagi lisoniy enantiosemiklikka soya solmaydi, balki yanada aniq ko‘rsatishga xizmat qiladi. Yana qiyoslang: *Oqsoqol birdan bo‘shashdi, ammo zahrini oxirigacha sochmay qo‘ymadi: – Mana shunday sasib yotaver! Yigit emish! Yigit degani biror ish ko‘rsatmasa, yigit ekanmi?!* (Erkin A’zam. Jannat o‘zi qaydadir); *Agar bu yerda qolib, – yuziga tund avzo berib gapirdi ota, – dangalchiligingga borib yana bir ish ko‘rsatsang, ularni battar o‘chashtirib (o‘chakishtirib) qo‘yishing mumkin* (Qamchibek Kenja. Palaxmon toshlari).

Shuningdek, *ish chiqarmoq* frazeologizmining “ko‘zlangan biror (yaxshi) natijaga erishmoq” hamda “kutilmaganda noma’qul, nojo‘ya ish qilib qo‘ymoq” (O‘TIL) ma’nolari o‘rtasidagi zidlanish ham lisoniy enantiosemiyani yuzaga keltiradi.

Frazeologizmlarning enantiosemik jihati ba’zan ularni omonim frazeologizmlar sifatida ajratilishiga ham sabab bo‘ladi. Masalan, *hunar ko‘rsatmoq* frazeologizmi Sh.Rahmatullaevning lug‘atida *hunar(i)ni ko‘rsatmoq* I (ijobiy baholi) va *hunar ko‘rsatmoq* II (salbiy baholi) omonim frazeologizmlar sifatida izohlanadi (O‘TFL). O‘TILda esa bu frazeologizm va uning sinonimi *ish ko‘rsatmoq* ham polisemantik frazeologizm deb ko‘rsatilgan. Bizningcha ham, ular ikki qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lgan bitta enantiosemik frazeologizmdir.

“Maqtalmoq – yomonlanmoq” tarzidagi zidlanish *og‘izga tushmoq*, *til(i)ga tushmoq* kabi frazeologik birliklarning “ma’lum-mashhur bo‘lmoq” va “gap-so‘z bo‘lmoq” ma’nolari o‘rtasida namoyon bo‘ladi. Mazkur frazeologizmlarning “ko‘pchilik orasida gap-so‘z bo‘lmoq” va “ma’lum-mashhur bo‘lmoq” ma’nolariga egaligi Sh.Rahmatullaevning lug‘atida qayd etilgan. Qiyoslang: *Bo‘ladigan bo‘lsa, ochiq-oydin qilish kerak edi, ertaga elning* ***og‘ziga***

tushadi**, unda nima degan odam bo‘lamiz, xalq nima deydi?* (Said Ahmad. Lochin); *Shu davr ichida kasallarni davolashdagi ba’zi ishlari xalq **og‘ziga tushib**, shuhrati ham ortgan edi* (N.Nazarov. Zamon) (O‘TIFL. B.200, 229). Yana qiyoslang: *Kuzga yaqin tumanda katta majlis bo‘lgani, majlisda Zuhra va uning maktabi **og‘izga tushgani**, xunuk-xunuk gaplar aytilgani to‘g‘risida mish-mish tarqaldi* (Abdulla Qahhor. Nurli cho‘qqilar); *Shahrimiz o‘zining ulug‘vorligi bilan emas, ko‘rkam va sarishtaligi tufayli **og‘izga tushgan (Anvar Obidjon. Oltin yurakli avtobola).

Yoki: *Kechagi qirg‘in-qiyomatning xabari bir kechada odamlarning **tiliga tushibdi**. Uchragan odam: “Ha-a, yomon bo‘pti-yu! Kattabog‘lilar oblochining g‘azabiga uchrabdi-yu! Xudoning o‘zi asrasin”, dermish* (Murod Mansur. Judolik diyori); *Elliginchi yillar qaytishida – Otashqalb oqlanib, nomi **tilga tusha** boshlagan chog‘larda bir kuni uni yo‘qlab yozuvchilar idorasiga kelgani Oqsoqolning yodida* (Erkin A’zam. Shoirning to‘yi).

“Kutib olmoq – kuzatib qo‘ymoq” tarzidagi zidlanish *xush kelibsiz, xush ko‘rdik* birliklarining uzual ma’nolari o‘rtasida yuzaga keladi. Mazkur ibora ma’nolari o‘rtasidagi ziddiyat ham ayni til birligi semantik taraqqiyotining o‘ziga xos natijasi bo‘lib, zid ma’no taraqqiyoti quyidagicha bo‘lgan: dastlab “yaxshi yetib keldingizmi” ma’nosini anglatgan va mehmonni kutib olish paytida tashrif buyurgan kishi (lar)ga nisbatan qo‘llangan: *Kesakpolvon bilan so‘rashib o‘tirgach, fotiha o‘qidi. So‘ng o‘rnidan turib yengil ta’zim qilganicha “xush keldingiz”, deb kalta soqolini silab qo‘ydi* (Tohir Malik. Shaytanat). O‘TILda ham mazkur iboraning mehmon kelganda hurmat yuzasidan aytilishi qayd etilgan, ammo hozirgi o‘zbek tilida mehmon ketayotgan paytda ham hurmat yuzasidan “yaxshi yetib boring” ma’nosida qo‘llanadi: *– Bizga endi ruxsat berasiz, xolaposhsha. – Mayli, ishqilib, hammanglar to‘y ko‘ringlar, g‘am ko‘rmanglar. Yana bir marta xush ko‘rdik, xush kelibsizlar, – dedi* (Abbos Said. Ko‘chada qolgan odam), ya’ni

bu ma’noda ham uzuallik kasb etgan. Shu bois mazkur ma’nolar o‘rtasidagi qarshilanishni lisoniy enantiosemiya deyish mumkin.

Xush kelibsiz iborasi bilan ma’nodosh bo‘lgan *xush ko‘rdik* birligining ma’nolari o‘rtasida ham “kutib olmoq – kuzatib qo‘ymoq” tarzidagi qarshilanish mavjud. Masalan, – *Xush ko‘rdik, kollega! – dedi. – Tanishinglar, mening rafiqam Yelena Lvovna* (P.Qodirov. Erk) kontekstida “yaxshi keldingizmi” ma’nosini, – *Xush ko‘rdik! Sizlarga ming-ming rahmat, O‘rmonjon! – dedi Botir cho‘pon. U kishi hamma bilan qo‘l berib xayrlashdi-da, menga qolganda, burilib ketdi* (Sh.Xolmirzaev. O‘zbek xarakteri) kontekstida esa “yaxshi yetib boring” ma’nosida namoyon bo‘lgan.

Ko‘rinadiki, mazkur birliklarning keyingi ma’nolari dastlab okkazional tarzda paydo bo‘lgan va keyinchalik uzuallik kasb etgan.

“Harakatni boshlamoq – harakatni to‘xtatmoq” zidlanishida frazeologizmning uzual ma’nolari muayyan harakat-holatning boshlanishi va yakunlanishini ifodalashiga ko‘ra enantiosemik munosabatga kirishadi. Mazkur ma’noviy munosabatdagi enantiosemiklik tilning avvalgi muayyan bir davrida ham mavjud bo‘lishi, ya’ni o‘sha davr uchungina uzual xarakterli hisoblanishi mumkin. Ma’lumki, *chekmak* so‘zi eski o‘zbek tilida eng faol so‘zlardan biri bo‘lgan. Ilmiy adabiyotlarda bu so‘zning yigirmadan ortiq ma’nosi keltiriladi (NAL, ANATIL). Bu fe’l asosida bir necha frazeologizmlar ham yuzaga kelgan bo‘lib, ulardan biri *til chekmak*dir. Mazkur frazeologizm eski o‘zbek tilida enantiosemik ma’nolarga ega bo‘lgan (NAL): 1) so‘zlamoq (so‘zlashni boshlamoq) – *Til chekti demak uchun tarona, Ul nav’ki o‘t chekar zabona* (Alisher Navoiy. Layli va Majnun); 2) tilni tortmoq, so‘zlashdan tiyilmoq: *Boshin tutub o‘ldi bir zamon gech, So‘z demadi yaxshi yo yomon hech. Chun yaxshi taammul etti laxte, Til chekti nechukki sho‘r baxte* (Alisher Navoiy. Layli va Majnun).

“G‘azablanmoq – qo‘rqmoq” tarzidagi zidlanish *joni chiqmoq, joni chiqib ketmoq, jon-poni chiqib ketmoq, joni xalqumiga kelmoq*

frazeologizmlarining ma’nolari o‘rtasida voqelanadi. Masalan, qiyoslang: *She’riy nayza Bayramxonni xoru zor qilib alamdan chiqayotgan Pirmuhammad atkaning qulog‘iga yetganda uning* ***joni chiqib ketdi****: – Bu – qarg‘ish-ku! – dedi atka* (P.Qodirov. Avlodlar dovoni); *Dastlab, Xongirey bostirib kirayotganda u qo‘rqdi. Ayniqsa, Mamatbey ichkariga o‘tganda nabiralaridan xavotirlanib,* ***joni chiqib ketay*** *dedi, tili gapga aylanmay ham qoldi* (Tohir Malik. Shaytanat).

Bir xil odamlarga o‘xshab bu ham baqirsa, ko‘z oldidagini ko‘rmay qoladi, shekilli, Saidbovoning pusibgina ancha beri kelib qolganini sezmadi, payqagandan keyin ***jon-poni chiqib ketdi****: – Iya, yana kelyaptimi bu boboy!? O‘v, kimga aytayapman?! Soqolim bor deb… He, o‘sha pechkangizniyam!..* (Ahmad A’zam. Qatag‘on yili) – g‘azablanmoq; *Hech qancha uxlamadim. Bir mahal tom tepasida nimadir qasirlab ketdi. Osmon qoq ikkiga bo‘linib uzilib tushayotganday,* ***jon-ponim chiqib****, turib o‘tirib olibman* (Murod Mansur. Judolik diyori) – qo‘rqmoq.

Demak, lisoniy frazeologik enantiosemiya – uzual ma’nolar o‘rtasidagi qarshilanish. Shunday xususiyatli enantiosemiyaning boshqa turlari ham lisoniy enantiosemiya maqomida bo‘ladi.

Nutqiy frazeologik enantiosemiya. Hozirgi o‘zbek tilidagi muayyan frazeologizmning uzual va okkazional ma’nolari o‘rtasidagi qarshilanish nutqiy frazeologik enantiosemiyani voqelantiradi. Mazkur ma’noviy zidlik a’zolaridan birining nutqiy, okkazional tabiatli ekanligi sababli bunday enantiosemiya muvofiq nutqiy vaziyatdagina yuzaga chiqadi, ya’ni zid ma’nolardan biri nutqqa qadar frazeologizm semantik strukturasida mavjud bo‘lmaydi. Nutqiy enantiosemiyaning muhim belgilaridan biri ham uning muayyan kontekst bilan jips bog‘langanligidir.

O‘zbek tilida nutqiy frazeologik enantiosemiya belgi, miqdor, harakat tushunchasi bilan bog‘liq ma’noviy munosabatlar asosida vujudga keladi.

I. Belgi tushunchali nutqiy enantiosemiyada frazeologizmning uzual va okkazional ma’nolari “sirni saqlay oladigan – sirni saqlay olmaydigan”, “rahmdil - berahm”, “beozor – dilozor”, “iffati bor – iffati yo‘q” tarzida zidlanadi.

“Sirni saqlay oladigan – sirni saqlay olmaydigan” tarzidagi zidlanish *og‘zi mahkam* frazeologizmining uzual “birovning gapini birovga aytmaydigan, sir saqlay oladigan” va okkazional “birovning gapini birovga aytadigan, og‘zi bo‘sh” ma’nolari o‘rtasida voqelanadi. Qiyoslang: *Uning Qo‘qonga borganini, bu yerda Osipov bilan aloqada bo‘lib turganini juda oz odam bilardi. Biladiganlarning ham og‘zi mahkam edi* (Tohir Malik. Savohil); *Matluba ba’zan “gap shu yerda qolsin”, deb keliniga qattiq tayinlaydi. Kelinning “og‘zi mahkam”. Matluba ketguniga qadar bu gap ostona hatlamaydi. Matluba tushgan avtobus shaharni tark etmay, sir saqlanmog‘i lozim bo‘lgan yangilik ozgina qo‘shilgan, bezalgan holda “xotinlar telegrafi”ga ulanadi* (Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar).

“Rahmdil – berahm” tarzidagi zidlanish *ko‘ngli bo‘sh* frazeologizmining uzual “ko‘ngilchan, rahm-shafqati bor” va okkazional “beshafqat, rahm-shafqati yo‘q” ma’nolari orqali yuzaga chiqadi. Qiyoslang: *Kesakpolvon ham afsuslangan odam kabi iyagini kafti bilan silab: – Bek, xafa bo‘lmagin-u, Mahmud bo‘sh qo‘yvordi. Mayli, yer yetkazmasin-u, lekigin, ko‘ngli bo‘sh bo‘lib qoluvdi ukaxonning. Bir ish buyursang, oxiriga yetkazmasdi* (Tohir Malik. Shaytanat); *Agar Sharif hozir tiz cho‘ksa, faqirga lozim bo‘lgan ishlarni bajarsa, bu “ko‘ngli bo‘sh” azamat yigit yo‘q demasdi. Har holda bu yigitning o‘zi hukmdor bo‘lmasada, qarashlari va aytar so‘zi shohona edi* (Tohir Malik. Shaytanat).

“Beozor – dilozor” tarzidagi zidlanish *qo‘y og‘idan cho‘p olmagan* frazeologizmining uzual “nihoyat darajada beozor, mo‘min” (O‘TIFL. B. 295) ma’nosi va okkazional “nihoyat darajada dilozor, battol” ma’nosi o‘rtasida namoyon bo‘ladi. Qiyoslang: *Aslini olganda, Jahongirov chindan beozor, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan toza odam edi* (Said Ahmad. Kiprikda qolgan tong); *– Sen anuv chopib xizmat qib yurganlarni tanivotsanmi? Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan “pokiza”larni? Olim akam kim choy tashib, kim parmuda somsa tarqatib yurgan yigitlarning yuzlariga bir-bir tikilarkan, ajablanganini yashirolmadi. –*

Chindanam, “pokiza”lar-ku. – Ha, ha, Parpi bebaxtning yigitlari (Murod Mansur. Judolik diyori).

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Frazeologik enantiosemiyaning qanday turlari bor?
2. Frazeologik nutqiy enantiosemiya deganda nimani tushunasiz?
3. Frazeologik lisoniy enantiosemiyaning o‘ziga xos jihatlarini aytib bering?
4. Nomlovchi va baholovchi frazeologik enantiosemiyaning farqli xususiyatlarini izohlang?
5. Frazeologik birliklarga xos obrazlilik enantiosemiklikni yuzaga keltirishda ishtirok etadimi?
6. To‘liq va noto‘liq frazeologik enantiosemiyaga ta’rif bering?
7. Tilning bir taraqqiyot davriga xos ma’noviy zidlik qanday frazeologik enantiosemiyani yuzaga keltiradi?
8. Tilning ikki taraqqiyot davriga xos ma’noviy zidlik qanday frazeologik enantiosemiyani yuzaga keltiradi?
9. Nominativ ma’no va nomlovchi frazeologik enantiosemiya tushunchalarini izohlang.
10. Subyektiv baho va baholovchi frazeologik enantiosemiya tushunchalarini izohlang.
11. Frazeologizmdagi zid ma’nolarning uzual va nouzualligiga qanday frazeologik enantiosemiyani yuzaga keltiradi?
12. Xush kelibsiz, xush ko‘rdik birliklari ma’nolariga e’tibor berganmisiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жаркова Е.Х. Энантиосемия лексико-грамматического и словообразователного типа в кругу смежных явлений: Автореф. дисс. ...

канд. филол. наук. – Москва: Ун-т дружба народов имени Патриса Лумумбы, 1988. – 15 с.

2. Жеребило Т.В. Словар лингвистических терминов. Изд-е 5-е. Назран: ООО “Пилигрим”, 2010. – 486 с.
3. Закирова Р. Антонимы в татарском языке: Лексико-грамматические, семантические и стилистические особенности употребления: Дисс. … канд. филол. наук. – Казан: Казанский гос. ун-т., 2001. – 193 с.
4. Ibragimova E. O‘zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari: Filol. fan. nom. … diss. Farg‘ona: FarDU, 2001. – 118 b.
5. Иванова В.А. Антонимия в системе языка. Штинса. – Кишинев, 1982. – 163 с.
6. Исабеков Б. Ҳозирги ўзбек тилида лексик антонимия: Филол. фан. ном. … дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 1973. – 118 б.
7. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Дисс. … канд. филол. наук. –Ташкент: 1979. – 196 с.
8. Ишаев А. Шаклдош антонимларга оид этюдлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1967. – № 1. – Б. 16.
9. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. –176 б.
10. Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri. ... diss. – Toshkent: O‘zR FA TAI, 1993. – 297 b.
11. Yo‘ldoshev B. O‘zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari. – Samarqand: SamDU nashri, 2002.
12. Yo‘ldoshev B. Frazeologizmlarning matndagi pragmatik imkoniyatlarini o‘rganish haqida / O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. – Andijon, 2011. – B. 12-15.

13. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari. Toshkent: Muharrir, 2013. – 300 b.
14. Карсевский С.О. Об асимметричном дуализме лингвистического знака / История языкознания XИX–XX веков в очерках и извлечениях. М.: Просвещение, 1965. ч. 2. – С. 85-90.
15. Климова Л.И. Антонимичные значения полисемантичных слов в современном русском языке: Автореф. дисс. ... канд. Филол. наук. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский гос. пед. инс-т. им. Герсена, 1975. – 22 с.
16. Колесникова С.М. Фунционально-семантическая категория градуалности в современном русском языке. – М.: Высшая школа, 2010.

4-AMALIY MASHG‘ULOT:

TIL RIVOJINI TA’MINLOVCHI OMILLAR. TILLAR ARO TA’SIRLASHUV. QARINDOSH VA NOQARINDOSH TILLARDA ENANTIOSEMIYA TILLARARO ENANTIOSEMIYANI TAVSIFLOVCHI TERMINLARGA SHARH

REJA:

1. ***Til va uning rivojini ta’minlovchi omillar: muammoga an’anaviy va antropotsentrik yondashuv***
2. ***Tillararo ta’sirlashuvning bosh manbalari***
3. ***Qarindosh tillar o‘rtasida enantiosemiyaning yuzaga kelishi***
4. ***Noqarindosh tillar o‘rtasida enantiosemiyaning yuzaga kelishi***

Tayanch iboralar: *til, til rivoji, tashqi omillar, ichki omillar, sistem-struktur va antropotsentrik yondashuv, tillararo ta’sirlashuv, so‘z o‘zlashtirish, qarindosh tillar, noqarindosh tillar, tillararo enantiosemiya,bobo til, ma’no taraqqiyoti.*

Til va uning rivojini ta’minlovchi omillar: muammoga an’anaviy va antropotsentrik yondashuv. Til va xalq o‘zaro jips bog‘liq tushunchalar sifatida biri ikkinchisidan kuch olib yashaydi va rivojlanadi, shu bois ularning takomilida o‘zaro ta’sir etish qonuniyati faol amal qiladi. Obrazli aytganda, xalq o‘zining topgan-tutganlarini tilga, til o‘zida borini xalqqa ilinib turadi. Shu ma’noda jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarida yuz bergan o‘zgarishlarning tilga ta’sirini nainki sezmaslik, balki til rivojini bunday

ta’sirlashuvsiz tasavvur etish mumkin emaski, bu tilsiz xalq, xalqsiz til bo‘lmasligidek oydin haqiqatning isbotidir.

Tilni “o‘zida va o‘zi uchun” maqomida o‘rganish, uni immanent hodisa sifatida tadqiq va taqdim qilishni ustuvor usul deb bilgan sistem-struktur tilshunoslik metodlarining o‘zbek tilini o‘rganishga tatbiq etilishi natijasida bir qator yutuqlarga erishilgani bor gap. Xususan, til va nutqning farqlanishi, shunga monand til va nutq birliklarining ajratilishi va tavsiflanishi, so‘z semantik strukturasini aniqlashga semik tahlilning joriy etilishi kabi ko‘plab yaxshi gaplarni keltirish mumkin. Ammo mazkur paradigma doirasidagi tadqiqotlar asosan tilni sistema sifatida o‘rganishga yo‘naltirilganligi sababli bunday tadqiq tamoyilida, tabiiyki, xalqning ma’naviy-ruhiy dunyosini, etnik tarixi va madaniyatini, etnografik va demografik xususiyatlarini, tilning etik-estetik qimmatini boricha ko‘rsatib bo‘lmas edi. Buning natijasida tilni immanent hodisa sifatida taqdim qilish, tilni sohibidan ayirgan holda tushunish va tushuntirishga zo‘r berilgani holda til va milliy o‘zlik, til va milliy iftixor, til va milliy ruhiyat, til va etnos, til va jamiyat munosabatidagi injaliklarni tadqiq qiluvchi etnolingvistika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya kabi sohalar rivoj topmadi.

XX asrning so‘nggi choragida sobiq ittifoq hududida yashovchi xalqlarning milliy o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurni yangilashga bo‘lgan ehtiyoji natijasida milliy tilshunosliklarda til va millat masalasi kun tartibiga chiqdi. Keyinroq “...o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhi” ekanligi baralla aytildi[134]. Shu jihatdan o‘zida millat ruhi, o‘tmishi, buguni va ertasini aks ettiradigan tilni, uning turkona tiynatiga tegishli muammolarni tadqiq etish, tilni tirik va tabiiy hodisa sifatida

[134] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 83-бет.

tushunish-tushuntirish, tilning yashash shakli bo‘lgan vazifaviy uslublardagi yasharish-yangilanish tendensiyalarini aniqlash orqali ona tilimizning hadsiz ifoda imkoniyatlarini ochib berish o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biridir.

Tilning lug‘at tarkibi doimiy o‘zgarish va boyishda bo‘lganidek vazifaviy uslublardagi yangirish jarayonlari ham muntazam. Bu muntazamlik natijasi o‘laroq tildagi o‘zgarishlar vazifaviy uslublarda, ayniqsa, publitsistik uslubda tezroq va yaqqolroq aks etadi, ayni paytda, bu uslubning o‘zi shunday o‘zgarishlarga zamin hozirlaydi. Publitsistik uslub hayot bilan hamqadam, jamiyat bilan jadal rivojlanadigan, shuning barobarida tilning tirik holatini “mana men” deb ko‘rsatadigan uslubdir. U mohiyat e’tibori bilan ijtimoiylikka doxilligi bois ko‘pincha publitsistik matnlarda davlat va jamiyatning ayni damdagi hayoti aks etadi, keng aholi ommasi yangiliklardan xabardor qilinadi, publitsistik uslubda ijtimoiylik ruhining kuchliligi aslida shundan. Zotan, *publicus* so‘zining lug‘aviy ma’nosi ham “ijtimoiy”, “jamiyatga oid”dir.

Publitsistik matnlar davrning dolzarb masalalariga bag‘ishlanib, bir qarashdayoq o‘quvchi diqqatini tortadigan, matnni o‘qib ko‘rish istagini uyg‘otadigan sarlavhalar tanlanadi. So‘z qo‘llashda ham o‘ziga xoslik, ya’ni ko‘proq ijtimoiy-siyosiy sohaga doir birliklardan, o‘rni bilan konnotativ to‘yingan so‘z va iboralardan foydalaniladi. Shu jihati bilan tilning statik holatini emas, balki dinamik holatini aks ettiradi, tilning belgilar yig‘indisidan, lingvistik qoidalarga ko‘ra so‘zlar birikuvidan iborat hodisa emasligiga shubha qoldirmaydi. Albatta, bunday lisoniy jarayonlar boshida inson omili harakatlantiruvchi kuch sifatida turadi.

Shu o‘rinda dastlab til rivojida qanday omillar ishtirok etadi, degan savolga to‘xtab o‘tish lozimki, umuman, til, xususan, publitsistik uslub tadqiqida

tilshunoslikda “lisoniy va nolisoniy omillarning nisbati”[135] deb ataluvchi jihatlarni aniqlash vazifaviy uslubiyatning ham asosiy muammolaridandir.

Tillararo ta’sirlashuvning bosh manbalari. Bugun dunyo tilshunosligida tilni insondan ajratib o‘rganib bo‘lmasligi, til hamisha insonning aqliy-ruhiy dunyosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotida amal qilishi, yashashi, shuning barobarida inson ham o‘z faoliyati davomida tilga tabiiy ta’sir o‘tkazib turishi haqidagi haqiqat barqarorlashib ulgurdi. Ammo tilshunoslikda uzoq yillardan buyon til rivojini ta’minlovchi omillarni lisoniy hamda nolisoniy omillar tarzida ko‘rsatish an’anasi mavjud va bunday qarash tilni immanent hodisa sifatida o‘rganishda ham qo‘l kelgan. Antropotsentrik tilshunoslikning taraqqiy etishi natijasida til rivojini ta’minlovchi lisoniy yoki ichki omillarning borligi borasidagi qarashlar[136] bir qadar xira tortgan bo‘lsa-da, XXI asrda lingvosinergetikada qaytadan taqdim etilmoqda. Negaki lingvosinergetikada til “o‘z-o‘zidan shakllanuvchi”, “o‘z-o‘zicha rivojlanuvchi” hodisa sifatida talqin qilinadi. Rus tilshunosi Yu.Fomenkoning “Til rivojining ichki sabablari bormi?” va o‘zbek tilshunosi N.Mahmudovning “Ma’no taraqqiyoti va ziddiyat” nomli maqolalarida ham til rivojini ta’minlovchi lisoniy yoki ichki sabab va omillarning yo‘qligi aytilgan. Chunki “tilning til rivojini ta’minlovchi lisoniy yoki ichki omillar bor” deyish uni insondan, u faoliyat ko‘rsatayotgan jamiyatdan ajratib qo‘yishdir. Til rivojini ta’minlaydigan omillarni tilning o‘zidan emas, uning egasidan, egasi bilan

---

[135] Кожина М.Н., Дускаева Л.Р., Салимовский В.А. Стилистика русского языка. Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2008. – С.33.

[136] Масалан, Б.А.Серебренников тилнинг ички ривожланиш қонунлари сифатида “талаффузни осонлаштиришга мойиллик”, “турли маъноларни турлича шаклларда ифодалашга мойиллик”, “бир хил ёки яқин маъноларни бир шакл билан ифодалашга мойиллик, яъни кўпмаънолилик”, “морфемалар ўртасида аниқ чегара қўйишга мойиллик”, муайян нутқий вазиятда “лисоний бирликларни тежашга мойиллик”, “нутқий ахборотдаги мураккабликларни чегаралашга мойиллик” ва бошқа кўплаб жиҳатларни тилнинг ички ривожланиш қонунлари, сабаблари тарзида кўрсатади. Аммо саналган жиҳатларнинг инсон ижтимоий фаолияи билан боғлиқлиги, бундай ўзгаришлар инсон таъсирисиз юз бермаслигидек исбот уларни тилнинг ички ривожланиш омиллари эмаслигини кўрсатади. Бу ҳақда яна батафсил қаранг: Общее языкознание: Формы существования, функции, история языка / Отв. ред. Б.А. Серебренников. М., 1970; Фоменко Ю.В. Мифы современной лингвистики. Монография. – Новосибирск: Изд. НГПУ, 2010.

bog‘liq jarayonlardan izlagan ma’qul. Inson aql-zakovatining mahsuli sifatida yaratilgan *esperanto, interlingva (oksidental), volapyuk, loglan, tokipona* kabi sun’iy tillarning kamida muloqot vositasi sifatida faollashmaganligining o‘zi tilning inson ta’siriga berilmasdan yasholmasligining isbotidir.

Tilning yashash shakli, tabiiy istiqomatgohi vazifaviy uslublar bo‘lganidan keyin, albatta, publitsistik uslub takomilini ham inson omilisiz, u bilan bog‘liq tashqi omillarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Mavjud tadqiqotlarda lisoniy va nolisoniy omillar stilistikaning markaziy masalalaridan biri ekanligi, ayniqsa, uslublarning boshqa til aspektlariga qaraganda nolisoniy omillar bilan jips bog‘liqligi, tilning yashash tarzi va barcha uslubiy o‘zgarishlar makon, zamon va nutq vaziyat qatnashchilari ishtirokisiz amalga oshmasligi qayd qilinadi[137].

Ayrim adabiyotlarda vazifaviy uslublarning shakllanishiga lisoniy omillarning bevosita ta’siri borligi aytiladi[138] hamda tildagi bu jarayonlarni lingvistikadan tashqarida o‘rganmaslik lozimligi, agar shunday bo‘lsa, tilshunos lingvistikaning chegarasini yo‘qotib qo‘yishi mumkin[139], deyiladi.

Shu munosabat bilan I.Moiseva va V.Remizova fransuz strukturalizmining yirik vakili Andre Martinening “tilshunosni faqat lisoniy sababiyatlar qiziqtirishi zarur” degan fikrini keltiradilar va til rivojida ichki omillarning ustuvorligini ko‘rsatmoqchi bo‘ladilar[140]. I.Arnoldning fikricha, muayyan uslubning muhim belgilarini tanlab olish muloqot jarayonida ustuvorlik qilayotgan funksiyasiga yoxud funksiyalari majmuiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ilmiy uslubning asosiy funksiyasi aqliy-kommunikativ funksiya bo‘lib, u ilmiy matn yaratish uchun zarur lisoniy vositalarni tanlab olishni ta’minlaydi[141].

---

[137] Кожина М.Н., Дускаева Л.Р., Салимовский В.А. Кўрсатилган дарслик. 120 – 121-бетлар.

[138] Мурот В.П. Функциональный стиль // Лингвистический энциклопедический словарь / Под ред. В.И.Ярцевой. – М.: Научное изд-во «Большая российская энциклопедия», 2002. – С.567.

[139] Курилович Ю.Р. О методах внутренней реконструкции / Новое в лингвистике. Вып. 4. – М., 1965. – С.404.

[140] Иқтибос ушбу манбадан олинди: Моисеева И.Ю., Ремизова В.Ф. Функциональные стили: факторы образования, классификации // https://www.science-education.ru/pdf/2015/2-3/269.pdf.

[141] Иқтибос юқоридаги манбадан олинди.

Yana tadqiqotlarda nolisoniy omillarni o‘z ichida obyektiv va subyektiv omillarga bo‘linadi hamda har qanday uslubning muayyan ijtimoiy muhitda shakllanishi, ya’ni ijtimoiylikdan begona emasligi obyektiv; so‘zlovchining jins va yoshga doir xususiyatlari, ma’lumotlilik darajasi kabilar subyektiv omillar sifatida ko‘rsatiladi hamda vazifaviy uslublarning pirovardida til rivojiga xizmat qilishi ta’kidlanadi[142].

Bizningcha, til rivojining lisoniy omillari yo‘q, hatto kichik fonetik o‘zgarishlar ham, “narsa oti+chi” tarzidagi sodda so‘z yasash jarayonlari ham insonsiz, uning aralashuvisiz bo‘lmaydi. Agar aytilgan hodisalar inson aralashuvisiz bo‘lganda – tilda o‘z-o‘zidan yasalishlar yuzaga kelaverganda, o‘lik tillar bo‘lmas edi. Shunday ekan, til rivojini ta’minlaydigan omillarni lisoniy va nolisoniy omillar (Serebrennikov aytganidek) tarzida ajratishga-da hojat qolmaydi. Aksincha, til rivojini ta’minlovchi omillar tashqi bo‘lib, u til sohibining aqliy-ruhiy, milliy-madaniy dunyosi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot shakli, til sohiblari mansub jamiyat hayot tarzi bilan bog‘liq.

Vazifaviy uslublarning taraqqiyotiga ham inson (yoki jamiyat) ta’sir qiladi, ular publitsistik matn yaratilishida faol ishtirok etadi. Masalan, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotning tashkil topishi, xalq xo‘jaligining turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar, o‘zaro tenglikka asoslangan xalqaro munosabatlar, O‘zbekistonning til siyosati va hokazo omillar bugungi publitsistik uslubning mavzusini, lisoniy materialini belgilaydi va shu uslubning rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda rejalashtirilgan iqtisoddan bozor munosabatlariga asoslangan mulkchilik shakliga o‘tilishi natijasida o‘zbek tilida bozor munosabatlariga oid yangi tushunchalarni ifodalovchi atamalar paydo bo‘ldi, ayni paytda, eskirgan iqtisodiy tushunchalar o‘z ifodalovchilari bilan birga iste’moldan chiqdi va tilning nofaol qatlamidan joy oldi. Publitsistik matnlarda bozor munosabatlari, xususiy

[142] Педагогическое речеведение. Словарь-справочник / под ред. Т.А. Ладыженской и А.К. Михальской. – М.: Флинта, Наука, 1998.

mulkchilikka doir mavzular yoritiladigan bo‘ldi. Vaholanki, sobiq ittifoq davri publitsistikasida bozor munosabatlari va xususiy mulkchilikning afzalliklari to‘g‘risida yozishning imkoni yo‘q edi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda olib borilgan til siyosati natijasida, avvalo, rasmiy va ilmiy uslublarda o‘zbek tili keng qo‘llanadigan bo‘ldi. Ayniqsa, rasmiy-idoraviy ish yuritishda, ish qog‘ozlarini shakllantirishda bu yaqqol sezildi. Publitsistik uslubning og‘zaki va yozma shakllarida avval eskirgan deb baholanib, qo‘llanishdan chiqqan so‘z, sintaktik tuzilma va iboralar qayta faollashdi. Publitsistik uslubda avval rus tilidan yoki uning vositachiligida o‘zlashgan so‘zlar ko‘p uchragan bo‘lsa, endi to‘g‘ridan-to‘g‘ri manba tildan o‘zlashgan atamalar faol ishlatila boshladi. Masalan, 1981 yilda nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da rus tilidan o‘zlashgan so‘z 1790 tani tashkil etsa, 2006-2008 yillarda chop qilingan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da rus tilidan o‘zlashgan so‘z besh jildda jami 459 ta ekanligida ham ko‘rish mumkin[143].

O‘zbekistonning xalqaro aloqalari ham publitsistik uslubga ta’sir ko‘rsatdi. Ommaviy axborot vositalarida xalqaro hamkorliklarni yoritishda foydalaniladigan terminologiya, matn tuzish qoliplari yuzaga keldi. Bunday matnlarda xalqaro munosabatlarga doir yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi atamalar (*sammit, brifing, forum, ratifikatsiyalash* kabi), qisqartmalar (EXHT, JSST, JST, XMT, ShHT), sintaktik tuzilma va qoliplashgan iboralar paydo bo‘ldi.

Hozirgi o‘zbek tilining mustaqillik davri taraqqiyoti talablari asosida o‘zbek tiliga kirib kelgan o‘zlashmalar milliy til prizmasidan o‘tib, o‘zbek tilida barqarorlashdi, ayrimlari o‘zbek tili lug‘at tarkibida uzuallasha olmadi. Diqqat qilinsa, o‘zbek tilida bunday birliklarning paydo bo‘lishi ham, barqarorlashishi ham o‘z-o‘zidan emas, til egalarining ta’siri, faol aralashuvi ostida kechgan.

Xalq xo‘jaligida olib borilayotgan islohotlarga doir tushunchalarni ifodalaydigan yangi birliklar publitsistik uslub taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

---

[143] Келтирилган статистик маълумот У.Қўзиевнинг “Ўзбек тилидаги изоҳли луғатларда ўзлашма сўзлар” мавзусидаги диссертацияси (Фарғона, 2019)дан олинди.

Masalan, birgina iqtisodiyotga oid islohotlar tufayli tilda ayni sohaning yangidan-yangi terminologik tizimi shakllandi va ular nafaqat shu soha terminologiyasidan, qolaversa, boshqa mavzulardagi publitsistik matnlardan ham joy oldi. Masalan, *investitsiya, ipoteka, kredit, bankomat, terminal* kabi iqtisodiyot va bank-moliya terminlari shundan dalolatdir.

Yoki respublikada aholini ish bilan ta'minlashga katta e'tibor berilishi natijasida bandlik mavzusida yuzlab (balki undan ham ko'p) publitsistik matnlar tuzildi, bunday matnlarda *bandlik* so'ziga yangi, ijtimoiylik ruhi yo'g'rilgan ma'no yuklandi, ya'ni "ish bilan ta'minlanganlik" ma'nosini kasb etib, publitsistik matnlarda qo'llana boshlandi. Kuzating: *Tadbirning ikkinchi yo'nalishida* ***bandlik****ka ko'maklashuvchi markazlar, banklar 4000 dan ziyod ish o'rni bilan ishtirok etyapti*. ("Ma'rifat" gazetasidan) *Tuman (shahar)* ***Bandlik****ka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan har yili 25-30 mingga yaqin ish bilan band bo'lmagan yoshlar kasb-hunarga qayta o'qitiladi* ("Darakchi" gazetasidan).

Demak, tashqi omillar ta'siri natijasida vazifaviy uslublar leksik-semantik va grammatik jihatdan taraqqiy qiladi. Tilning ichki imkoniyatlari asosida yangi birliklarni yasashda uning ichki qonuniyatlariga tayaniladi. Ammo bundan, "tilning ichki rivojlanish omillari bor ekan" degan xulosa kelib chiqmasligi kerak, chunki eng kichik yasalishlar ham inson ta'sirisiz bo'lmaydi. Shu ma'noda o'zbek publitsistikasining mustaqillik davri taraqqiyotida milliy-ma'rifiy tushunchalarni ifodalovchi so'z va sintaktik tuzilmalarni qo'llashga moyillik ham o'zbek tili sohibining ehtiyoji natijasidir. Vazifaviy uslublar rivojiga ta'sir etgan sabablarning negizida, aslida, til sohibining ehtiyoji bilan bog'liq tashqi omillar turadi, tildagi fonetik, leksik-semantik va grammatik o'zgarishlarning yuzaga kelishi va uzuallashuvida tilning kommunikativ tabiatiga mos ravishda tildan tashqaridagi omillar – inson va uning faoliyati bilan bog'liq jarayonlar ishtirok etadi.

Til rivojida tildan tashqaridagi omillarning ustuvorligi aytilganda, bir guruh tilshunoslar bunga radikal munosabatda bo‘ladilar, ya’ni tildan tashqaridagi omillarni til taraqqiyotiga mutlaqo aloqasiz sabablar deb tushunadilar, lisonda undan begona omillarning bo‘lmasligini zo‘r berib uqtiradilar. Bunday munosabat TILni juda jo‘n tasavvur qilishning oqibatidir. Til rivojida tildan tashqaridagi omillarning ustuvor bo‘lishi, aslida, insonning, u mansub jamiyatning tilga ta’sirini ko‘rsatadi va, tabiiyki, tashqi omillarning hech biri insondan, u mansub jamiyatdan tashqarida mavjud bo‘lmaydi. Tilning tashqi ta’sirlarga berilishi va shu orqali o‘zgarishlarga uchrashi haqida gapirish tilni o‘zidan begonalashtirish emas, balki tilni sohibiga yaqinlashtirish, til va inson fenomeniga yaxlit tushunish-tushuntirishdir. Bugun antropotsentrizmning tilni tadqiq etishning maqbul yo‘li o‘laroq e’tirof topishining tagida ham “tilning inson shaxsini tarkib toptirishi” turadi.

Tilning ichki qonunlari muayyan so‘z yasalish modellariga ko‘ra asos va qo‘shimchaning birikishi, so‘zlarning sintaktik munosabati yoki so‘z urg‘usining oxirgi bo‘g‘inga tushishi kabi holatlarda, sof lingvistik aspektda amal qiladi. Tabiiyki, so‘z yasash ham, sintaktik birikuvlar ham, aksentuatsiya ham til egasi yoki muloqot ishtirokchilari bilan bo‘ladi. Demakki, inson omili til rivojining mazmun-mundarijasini belgilasa, lisoniy sabablar til birliklarining shakliy tuzilishida ishtirok etadi. Buni quyidagicha tushuntirish mumkin: masalan, tilda yangi so‘z yasashga ehtiyoj bor, chunki shu til egalari turmush tarzida yangi narsa-buyum, tafakkurida esa yangi tushuncha paydo bo‘ldi. Endi til egalari oldida ikki yo‘l bor: 1) yangi narsa-buyum yoki tushuncha qaysi xalq turmush tarzidan o‘tgan bo‘lsa, o‘sha xalq tilidagi nomni aynan o‘zlashtirishi, unga o‘z tilidan joy berishi kerak; 2) yangi narsa-buyum yoki tushuncha uchun ichki imkoniyatlarni “ishga solib”, yangi so‘z yasashi, kalkalashi yoki mavjud so‘zga hosila ma’no sifatida biriktirishi lozim. Demak, tildagi biror o‘zlashma, yasalma yoki yangi ma’no til sohibining ehtiyojiga ko‘ra, uning ta’siri ostida paydo bo‘ladi. Bunday lisoniy

o‘zgarishlar, birinchi navbatda, publitsistik uslubga oid matnlarda ommalashadi, bu uslubga xos ommaviylik natijasida tilning faol fondiga o‘tadi.

Xullas, mavzu taqozosiga ko‘ra *tashqi omillar* termini qo‘llangan bo‘lsa ham, til rivojining ichki omillari bo‘lmaganidan keyin, *tashqi omillar* termini ishlatishning hojati yo‘q, balki *til rivojini ta’minlovchi omillar* deyishning o‘zi yetarli.

Tadqiqotlarda tillararo enantiosemiya ham farqlanadi[144] hamda u *tillararo enantiosemiya, tillararo omonimiya, tarjimonning yolg‘onchi do‘stlari* kabi terminlar bilan ataladi. Bizningcha, bu tip ma’noviy qarama-qarshilikni *tillararo enantiosemiya* termini aniq va to‘liq ko‘rsatib bera oladi. Mazkur hodisa qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar o‘rtasida hosil bo‘ladi. Tillararo enantiosemiyaning bu ko‘rinishlari o‘zbek tili bilan istalgan boshqa turkiy til yoki o‘zbek tili bilan qarindosh bo‘lmagan arab, fors-tojik tillari o‘rtasida kuzatilishi mumkin.

O‘zaro qarindosh tillar o‘rtasida so‘zlarning qarama-qarshi ma’nolarni namoyon etishi, avvalo, shu xalqlarning turmush sharoiti, qolaversa, voqelikni o‘ziga xos idrok etish va baholash tarzi, ya’ni ayni millatning dunyoni lisoniy bilish manzarasi bilan bog‘liq. Har bir millat vakillarining turlicha, aniqrog‘i, o‘ziga xos dunyoni lisoniy anglash tarzining mavjudligi sababli ham, aslida, kelib chiqishi bir, genetik ma’nosi bir so‘zning yangi, ayni paytda, qarama-qarshi ma’nolar kasb etishiga olib keladi. Masalan, A.Ishaev hozirgi o‘zbek tilidagi “qari odam” ma’nosidagi *chol* so‘zi tuva tilida *chalыы* shakli bilan “yosh, yosh yigit” ma’nosini anglatishini aytib o‘tgan[145].

Qarindosh va noqarindosh tillar o‘rtasida enantiosemiyaning yuzaga kelishi. Qadimgi turkiy tildan tarqalgan hozirgi o‘zbek va turk tillari o‘rtasida enantiosemiya mavjud. Xususan, hozirgi o‘zbek tilida “orqaga sudramoq,

[144] Гросбарт З. О русских и польских словах, близких по звучанию и разных по значению (“межъязычные омонимы”) // Материалы третьего международного семинара преподавателей русского языка. – М., 1962. С.228-238; Акуленко В.В. О «ложных друзьях переводчика». Англо-русский и русско-английский словарь «ложных друзей переводчика. – М., 1969. – С. 3-14; Балалыкина Э.А. О словах с противоположными значениями в русском и польском языках. Beitrage zur Slavistik XXVII Innerslavischer und slavisch — deutscher Sprachvergleich — Peter Lang, Frankfurt am Mein, 1995. – С. 211-218.

[145] Ишаев А. Шаклдош антонимларга оид этюдлар // Ўзбек тил ва адабиёти, 1967. – № 1. – Б. 16.

kechiktirmoq, paysalga solmoq” ma’nosini bildiruvchi *cho‘zmoq* (O‘TIL) so‘zi turk tilida ham polisemantik so‘z bo‘lib, uning bir ma’nosi biror masalani “hal qilmoq, yechmoq”dir[146]. Ayni ma’no o‘zbek tilidagi “orqaga sudramoq, kechiktirmoq, paysalga solmoq” ma’nosiga nisbatan zid. “Qadimgi turkiy lug‘at”da mazkur ma’nolar berilmagan. Demak, enantiosemiyani yuzaga keltirayotgan ma’nolar har ikki tildagi o‘ziga xos ma’no taraqqiyotining mahsulidir.

O‘zbek va arab tili o‘rtasidagi enantiosemiyani *kunpayakun* so‘zi misolida ko‘rish mumkin. Mazkur so‘z arab tilida “butun borliq, mavjudot” va “yaratilish” ma’nolarini anglatadi[147]. O‘zbek tiliga o‘zlashgandan keyin arab tilidagi ma’nosini yo‘qotib, unga zid “buzilib, yanchilib, yo‘q bo‘lib ketmoq” ma’nosini kasb etgan: *Shahar o‘rtasidagi ikkita katta bino ham kunpayakun bo‘ldi* (Mirmuhsin, “Ona”).

Demak, so‘zning zid ma’nolar kasb etishi, avvalo, borliqdagi narsa-hodisalarning azaliy dialektik ziddiyatdaligi sabab kishi tafakkur tarzining ham dualistik xarakterli ekanligi, qolaversa, kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarning ham qarama-qarshiliklar asosiga qurilganligi va boshqa bir qator nolisoniy va lisoniy omillar bilan bog‘liq. Jumladan, kishilarning borliqdagi narsa-hodisalar mohiyatini anglash va farqlay bilish darajasi, so‘zning semantik taraqqiyoti, so‘zlovchining kommunikativ-situativ maqsadi va subyektiv munosabatini nolisoniy omillari, so‘zlarning leksik-sintaktik aloqasi hamda sintaktik qurshovi, adabiy til va sheva munosabatini enantiosemiya yuzaga kelishining lisoniy omillari sifatida ko‘rsatish mumkin.

Shunisi ham borki, boshqa bir millat vakili yoki til sohibi bu xatti-harakatni butunlay o‘zga ma’no ifodasi sifatida ham qabul qilishi mumkin. Masalan, muayyan noverbal harakat bir xalq lingvomadaniyatida muayyan tushunchaning ifodasi sifatida mavjud bo‘lgani holda boshqa bir xalq lingvomadaniyatida umuman kuzatilmasligi ham mumkin. Ana shu tabiiy jarayon har bir millat

[146] Юсуф Б. Туркча-ўзбекча “алдоқчи сўзлар” луғати. – Тошкент: Ворис-нашриёт, 2009. – Б. 443.
[147] Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Б. 322; ЎТИЛ. II жилд. – Б. 431.

lingvomadaniyatining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Agar rus xalqida *bosh irg‘ash* faqat “tasdiq” ma’nosini yoki faqat “inkor” ma’nosini anglatsa, o‘zbek xalqida bu harakat ham “tasdiq”, ham “inkor” haqidagi tushunchani bildiradi. Shu ma’noda Ye.Baevaning keltirgan misoli o‘rinli. Unga ko‘ra Italiyaning shimoliy qismi aholisi boshni vertikal yo‘nalishda harakatlantirishni biror harakat-holatni “tasdiqlash” deb bilsa, janubida yashovchi kishilar xuddi shu *jest*ni “inkor qilish” deb tushunadilar. Shuningdek, ko‘rsatkich barmoqni boshning yon tomoniga tegizib, tepaga yoki pastga harakatlantirish nemis va boshqa bir qator millatlar lingvomadaniyatida, jumladan, o‘zbeklarda ham “jinnilik, savdoyilik” belgisini bildiradi, lekin italyan lingvomadaniyatida “ma’qullash”, “u yoki bu harakat-holatni ijobiy baholash” tarzida idrok qilinadi[148]. Bu holat paralingvistik vositalarning va ular asosida yuzaga keladigan enantiosemiyaning ham o‘ziga xos tomoni borligini – lingvokulturologik asosga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Paralingvistik vositalarni lingvokulturologik nuqtai nazardan o‘rganish ayni vositalar orqali yuzaga keladigan tillararo enantiosemiyaning o‘ziga xos xususiyatini aniqlash imkonini beradi. Ikki xalq tafakkur tarzidagi o‘xshashlik va o‘ziga xosliklarni aniqlash asosida ularning til xususiyatlari tavsiflanadi. Zotan, lingvokulturologiya yoki biror til birligining lingvokulturologik xususiyatini o‘rganish madaniyatlararo mushtaraklik hamda o‘ziga xosliklarni ham qamrab oladi.

Paralingvistik enantiosemiyaning o‘ziga xos jihati shundaki, bunda muayyan birlik orqali ifodalanayotgan zid ma’nolar bevosita shu birlik semantik strukturasida tayyor holda mavjud bo‘lmaydi, balki muvofiq kontekstlarda namoyon bo‘ladi. Boshqacha aytganda, frazeologizmdagi qarama-qarshi ma’nolarga bosh yoki qo‘l (yoki boshqa tana a’zosi)ning u yoki bu tarzdagi harakati ishora qiladi. Paralingvistik enantiosemiya ana shu jihati bilan lisoniy enantiosemiyaga zidlanadi va somatik frazeologizmlar bilan yuzaga chiqadi.

---

[148] Баева Е.И. Кўрсатилган автореферат. – Б. 7-8.

O‘zbek va qozoq tillarida leksik shakldoshlik. Turkiy dunyo vakillari jahon tamadduniga katta hissa qo‘shgan xalqlardan hisoblanadi. Bu xalqlarning ilk ona tilisi bo‘lgan qadimgi turkiy til esa hozirgi 30 ga yaqin turkiy tilning manshai – bobo tilidir. Hozirgi o‘zbek tili va hozirgi qozoq tili ham qadimgi turkiy tildan tarqalgan milliy tillar bo‘lib, o‘zining alohida rivojlanish tarixi, ichki qonuniyatlariga ega. Qadimda turkiylar deb atalgan katta xalqning keyingi tarixiy jarayonlar natijasida alohida millatlar sifatida dunyo xaritasidan joy olishi, o‘zlarining yangi tarixlarini yaratishi, 28 yillik mustaqil taraqqiyoti bu millatlarning ona tillari bo‘lgan o‘zbek va qozoq tillarida fonetik, leksik-semantik, grammatik va stilistik o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ana shunday ekstralingvistik omillar sababli qozoq va o‘zbek tillarida tillararo leksik shakldoshlikning original namunalari – yozilishi bir xil bir necha so‘zlar paydo bo‘ldi.

Lingvistikada anchadan buyon tillararo omonimiya deb ataladigan hodisa to‘g‘risida tadqiqotlar olib boriladi. Bu hodisa, ayniqsa, Hind-Yevropa tillari oilasiga mansub ikki tilni (polyak-chex, chex-bolgar, rus-ingliz, ingliz-fransuz, rus-belorus tillari kabi) qiyoslagan holda o‘rganilgan. [6, 224; 8, 48; 10, 169] Sobiq sovet ittifoqida rus tilini ilmiy o‘rganish uchun juda katta e’tibor berilgani, rus tili nafaqat mamlakat, shuningdek, dunyo miqyosida ommalashtirilgani tufayli rus tilini boshqa slavyan tillariga qiyoslab o‘rganish XX asrning 60-yillaridayoq boshlangan. Bu borada G.Aksenova, V.Akulenko va K.Gotliblarning ishlarini ko‘rsatish o‘rinli. [1, 191-198; 2, 65-89; 3, 10-42] Ammo turkologiyada tillararo leksik shakldoshlik turkiy tillar misolida deyarli o‘rganilmagan yoki maqola doirasidagina fikr bildirilgan. Leksikografik yo‘nalishda esa Berdak Yusufning “Turkcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-turkcha “aldoqchi” so‘zlar lug‘ati” (Toshkent: Voris, 2009. – 387 b.) nashr etilgan xolos. Mening maqolam qarindosh tillarni qiyoslab o‘rganish orqali turkiy dunyo madaniyatini yana-da kengroq o‘rganish, o‘zbek va qozoq lingvomadaniyati haqida xulosalar chiqarish va pirovardida

o‘zbek va qozoq tillarining o‘ziga xosliklarini targ‘ib qilish maqsadi bilan yuzaga keldi.

Jahon lingvistikasida tillararo leksik shakldoshlik muammosi birinchi bo‘lib fransuz tilshunosi E.Mauvilyon tomonidan “Germanistika bo‘yicha izohlar” asarida yoritilgan. [22, 386; 485] Keyinroq avstriyalik lingvist Henri Portitorning leksikorafik aspektdagi “Gall va nemis tillaridagi qarama-qarshi ma’noli so‘zlar haqida qisqacha traktat” ocherki yuzaga keldi. [20, 92] Ammo bu boradagi jiddiy ish M.Kessler va J.Derokinlarning tarjima nazariyasi aspektidagi “Ingliz tilidagi tarjimonning yolg‘onchi do‘stlari” asaridir. [21, 401]

Mazkur hodisaning tadqiq tarixi 200 yildan oshgan bo‘lsa ham hanuz uning lingvistik tabiati borasidagi qarashlarda yakdillik yo‘q: kimdir tillararo paronimiya desa, yana boshqasi tillararo leksik parallellik deb ataydi, boshqa birov tarjimashunoslik nuqtai nazaridan yondashadi. Shu bois ushbu leksik hodisani ifodalovchi birliklar har xil atab kelinadi. Masalan, A.A.Reformatskiy, A.E.Suprun, I.S.Rovdo – tillararo omonimlar, K.Gotlib – tillararo analogizmlar, A.D.Shveyser, L.K.Latышev – yolg‘onchi analogizmlar, V.V.Akulenko – dileksemalar, T.A.Leviskaya, A.M.Fiterman, L.I.Borisova, A.I.Paxotin, B.Yusuf – tarjimonning soxta do‘stlari, N.K.Garbovskiy – nomuvofiq dileksemalar, A.V.Fedorov – soxta muqobillar, V.V.Dubchinskiy – soxta leksik parallellar, Ya.I.Resker – soxta internatsionalizmlar, R.J.Xill, R.Xartmann, P.Xammer, M.Monod – soxta qarindoshlar deb nomlagan. [10, 3]

Terminlar tahlilidan ko‘rinadiki, tillararo shakldoshlik hodisasiga ikki xil: sof lingvistik va tarjima nazariyasi aspektida yondashilgan. Shuning uchun ham terminlarda har xillik bor. Men mazkur hodisaga lingvistik nuqtai nazardan qaraganim uchun uni turkiy tillar tabiatiga mos tarzda tillararo leksik shakldoshlik, uni namoyon etuvchi birliklarni tillararo leksik shakldoshlar deb nomladim.

O‘zbek va qozoq tillarida tillararo leksik shakldoshlar juda ko‘p. Ular so‘z doirasida ham, ibora doirasida ham kuzatiladi. Xo‘sh, tillararo leksik shakldoshlar

paydo bo‘lishiga nimalar sabab bo‘lgan? Avvalo, ana shu savolga javob topib olish kerak. Yuqorida havola qilingan tadqiqotlarda tillararo leksik shakldoshlarning bir qator ekstralingvistik omillar sababli paydo bo‘lishi aytiladi. Masalan, qozoq tilshunosi G.Sharipova N.Garbovskiyning “Tarjima nazariyasi” (M., 2004. – 544 s.) kitobidan quyidagi iqtibosni keltiradi: “tillararo parallellarning shakllanishi ikki til oppozitsiyasida 3 xil usul bilan bo‘ladi: 1. Turli tillardan so‘z o‘zlashtirish jarayonidagi tasodifiy mos kelib qolishi tufayli. Bunday holatda semantik farqlanishlar har bir konkret vaziyatda aniqlanadi. 2. Aslida bir bobo tildan tarqalgan tillarning u yoki bu tarixiy davrida bir so‘z shakli bilan har xil denotatlar nomlanadi. 3. Ikki va undan ortiq tillarning o‘zaro aloqasi sababli o‘zlashma so‘z ma’nosining boshqa predmetga ko‘chishi, ya’ni denotativ transpozitsiya tufayli”. [10, 8]

Bizningcha, tillararo leksik shakldoshlarning asosiy qismi ma’noviy o‘zgarishlar tufayli paydo bo‘ladi. Bunda ikki xil holatni farqlab olish kerak: 1) umumturkiy so‘zning qarindosh tillardagi shakldoshligi; 2) o‘zlashma so‘zning qarindosh tillardagi shakldoshligi. Masalan, o‘zbek va qozoq tillari uchun qadimgi turkiy til bobo til hisoblanadi va qadimgi turkiy tilga xos so‘zlar (iboralar ham) o‘zbek va qozoq tillari uchun umumturkiy sanaladi. Ana shunday umumturkiy so‘zlar bu tillarda o‘z shaklini saqlagan holda ma’noviy o‘zgarishlarga uchragan. Natijada shakli bir xil, lekin ma’nolari har xil so‘zlar yuzaga kelgan. Xususan, bezmoq umumturkiy fe’li qadimgi turkiy tilda “qaltiramoq, titramoq” ma’nosida qo‘llangan: ẹr tumlïγdïn bẹzdi – erkak sovuqdan qaltiradi; tumlïγ anï bẹzitti – covuq uni qaltiratdi. [5, 97] Bu qadimgi ma’no har ikki tilning hozirgi davriga qadar yetib kelmagan. Bezmoq fe’li o‘zbek tilida “zada, bezor bo‘lmoq; joniga tegmoq” ma’nosini (Erdan bezsang ham, eldan bezma. (Maqol) [11, 211], qozoq tilida “qochmoq, qochib ketmoq” (Qayda bezip barasың? – Sobraniege, pravlenienің otchetы. (I.Jansүgirov, Shыg‘), “elmoq, chopmoq” (Attar bұrqыratып, bezip keledi. (B.Tұrsынbaev, Auыldan), “ishonchini yo‘qotmoq”,

“rad qilib chiqmoq” (Men Zeynepti alsam, әkem menen beze me? (M.Dulatov, Shығ‘) [16, 187] ma’nolarini anglatadi. Demak, umumturkiy fe’l o‘zbek tilida bir ma’noli, qozoq tilida ko‘p ma’noli ekan.

O‘zlashma so‘zning o‘zbek va qozoq tillarida boshqa-boshqa ma’nolarni kasb etishiga bak so‘zini misol qilib keltirish mumkin. Bak so‘zi asli gollandcha: u manba tilda “tog‘ora” va metaforik ma’no taraqqiyoti natijasi bo‘lgan “eski qayiq” ma’nosini ifodalaydi. Qozoq va o‘zbek tillariga rus tili orqali “suyuqlik saqlash uchun mo‘ljallangan idish” ma’nosida o‘zlashgan, hozirgi qozoq adabiy tilida ham shu ma’noda qo‘llanadi. [15, 613] Ammo hozirgi o‘zbek tilida “suv isitish, choy qaynatishga mo‘ljallangan, samovarga o‘xshash katta metall idish” ma’nosida ishlatiladi: G‘anijon, katta baklarning choyi shirin bo‘lmaydi, ichi qotib qolarkan. (“Askiya”). [11, 144] Demak, qozoq va o‘zbek tillaridagi bak so‘zlari namoyon etadigan shakldoshlik o‘zlashma so‘z ma’no taraqqiyoti natijasi ekan.

Lingvistikada tillararo leksik shakldoshlik tadqiq maqsadidan kelib chiqib, har xil turlarga ajratiladi. Kimdir so‘z turkumlari bo‘yicha, yana kimdir paydo bo‘lish omiliga ko‘ra, boshqa tadqiqochi qaysi tildan o‘zlashganligiga asosan guruhlashtiradi. Mazkur maqolada tillararo leksik shakldoshlar strukturasiga asosan “fonetik-grafik, fonetik, grafik va morfologik shakldoshlar” [7, 128- 133] tarzida o‘rgandim.

1. Tillararo fonetik-grafik shakldoshlik so‘zning tovush tarkibi ham, yozilishi ham bir xil bo‘lgan shakldoshlikdir. [7, 128] Masalan, o‘zbek va qozoq tillaridagi bardam so‘zining har ikki tilda fonetik va grafik tarkibi aynan, biroq ma’nolari har xil. Qiyoslang: Bardam (o‘zbek tilida): 1. Kuch-quvvatga ega; kuch-quvvatini yo‘qotmagan, tetik. Uyqusi butunlay tarqab ketgach, Ahmad o‘zini juda tetik va bardam sezdi. (F.Musajonov, “Himmat”) 2. Kuch-quvvat, g‘ayrat, tetiklikdan darak beruvchi; g‘ayrat, tetiklik bilan. Ota zalvorli tayog‘ini qorga niqtab bosib, bardam qadam tashlardi. (S. Anorboev, “Oqsoy”) [11, 166]

Bardam (qozoq tilida): Yashash uchun yetarli mablag‘ga ega, qo‘r-qutli (oila haqida). Osы jataытardың bir at, bir buzaulы siыr, bes altылag‘an yeshkisi bolsa, ol bardam үy sanaladы. (I.Jansүgirov, Shыg‘.) [15, 723]

Yana qiyoslang: Bas I (o‘zbek tilida): 1. undov so‘z. Boshqa kerak emas, shu bilan yetar; to‘xtat. – Bas! – qichqirdi Mirzakarimboy, – manmanlik – xudo urganlik. (Oybek, “Qutlug‘ qon”) 2. kirish so‘z. Demak, shunday ekan. Yo‘lchi bir nafas to‘xtab davom etdi: – Urush boylarning hamyonini to‘ldiradimi?! Bas, ular borsin (Oybek, “Qutlug‘ qon”)...

Bas II (o‘zbek tilida): Garov bog‘lashmoq, garov o‘ynamoq. Bas bog‘lashib, erta azonda dalaga chiqsangiz, hammadan oldin Jiparoyni ko‘rasiz. (“Qahramonnoma”) [11, 174]

Bas I (qozoq tilida): 1. Odam yoki jonivorlar tanasining bo‘yindan yuqori qismi. Tiri ag‘zalardың evolyusiyalыq damu jolында bastың deneden jekeleui mollyuskilerde, әsirese bunaqtылarda kezdese bastaydы. (QҰE) 2. Odam va boshqa jonivorlarning og‘iz, ko‘z, qulaq, burun kabi a’zolar joylashgan tana qismi. Basымnan sipap mag‘an qұrma berdi, Janыma jыl qұsынday jырlar yendi. (Qoja Axmet, Danalыq kытabы)...

Bas II (qozoq tilida): 1. Shamol uchirib ketmasligi uchun yengil narsalarning ustini tosh, temir kabilar bilan bostirib qo‘yish. Keshe әkelgen saban әli kirgizilmepti, үstin basыp qoyыndar, jel tұrsa ұshыgыp, shashыladы. (Auызeki) 2. Bir narsaning ustiga kuch tushirib ezmoq, yanchmoq, bosmoq. “Bir kүni qұlap ketip, balalardы basыp qalama” dep үreylenip, jaңa үy salүdы arman yetetin. (A. Lekerov, Tүz gүli)... [16, 10]

Badal – badal I, II, III, badan – badan I, bay – bay III, IV, V, bay-bay – bay-bay, bayt I, II – bayt, bak – bak I, II, baqir – baqыr II, III, IV kabi so‘zlar ham shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra tillararo fonetik-grafik shakldoshlikni yuzaga chiqaradi.

2. Tillararo fonetik shakldoshlik so‘z va iboraning grafik shakli, ya’ni yozilishiga ko‘ra bir xilligi bo‘lib [7, 129], bunday so‘z va iboralarning talaffuzida biroz farq bo‘ladi. Ular o‘zlashma so‘zlar yoki o‘zlashma va o‘z so‘zlar doirasida kuzatiladi; ularni tillararo omograflar desa ham bo‘ladi. O‘zbek va qozoq tillarida shakldoshlikning mazkur ko‘rinishi ko‘p. Masalan:

Mol arabcha. (o‘zbek tilida): 1. Sut emizuvchilar oilasiga mansub uy hayvoni (qoramol, yilqi, qo‘y, echki, tuya va b.); chorva. Mol olasi tashida, odam olasi ichida. (Maqol) 2. ko‘chma s.t. Did-fahmsiz, qo‘pol odamga nisbatan haqorat tarzida qo‘llanadi. Juman pismiq, ko‘zlarini javdiratganicha turaverdi. – Gapir, mol! – dedi mingboshi. (M.Ismoiliy, “Farg‘ona tong otguncha”) 3. Bisotdagi buyum; mol, boylik. Yigit moli yerda. (Maqol) 4. Kelinning kiyim-kechaklari; sep. Gapning sirasi shuki, qizning molini to‘lataman deb, otangiz biroz qoqilib qoldilar. (“Mushtum”) 5. Sotiladigan narsa, buyum; tovar. Ba’zi do‘konlarda yerdan shipga qadar qalangan mollar orasida o‘n ikki-o‘n uch yashar jajji bolalar o‘tiradi, savdo qiladi (Oybek, Tanlangan asarlar). 6. s.t. Kiyim va boshqa narsa uchun ishlatiladitan mato. Yaxshi moldan tikilgan kostyum. [12, 610]

Mol I umumturk.(qozoq tilida): Asa kөp, jeterlik. Өner tүri yelde mol, өnim sыgы jerde mol. (Maqal) 2. Tausылmaytың. Asta-tөk. Mol qымызg‘a juda zarmыz, 40 A.Baytұrsынұlы atыndag‘ы Til bilimi institutыnың “Tiltanым”jurnali. 2018. №3 Qorы azauыp keledi. (K.Salыqov, Jezkiik) 3. auыs. Kең, ulken. Dəmeli mol koylektың yetegin basыa-basыp qoyыp oyg‘a ketti. (S.Jүnisov, Aqan seri) [19, 268]

3. Tillararo fonetik shakldoshlik so‘zning ikki tilda “talaffuzga ko‘ra bir xilligi, ya’ni omofonligi” [7, 129]dir. Bunda so‘zlar grafik tuzilishiga ko‘ra bir harf bilan o‘zaro farqlanadi hamda o‘zlashma so‘zlar yoki o‘z va o‘zlashma so‘zlar doirasida hosil bo‘ladi. O‘zbek va qozoq tillarida bu tarzdagi shakldoshlik ko‘p bo‘lib, bunga asosiy sabab qozoq tilida singarmonizmning saqlangani, o‘zbek tilida bitta tovush hisoblanadigan unli tovushlarning qozoq tilida har xil tovushlar

ekanligidir. Masalan, o‘zbek tilida til oldi, yuqori tor, lablanmagan bitta i tovushi bor: bu tovush cho‘ziq [i:]ni ham, qisqa [ı]ni ham bildiradi, ya’ni qozoq tilidagi i, ы, i tovushlari o‘rnida qo‘llanadi. Mazkur tovushlarning farqlanishi bilan bog‘liq tillararo fonetik shakldoshlikka doir misollarni qiyoslab ko‘ring:

Qari I 1. Ancha yoshga borgan, qartaygan; keksa. Qari bilganini pari bilmas. (Maqol) 2. ko‘chma Uzoq o‘tmishga ega. Yetib kelar muzday shabada. Qari tog‘ning xo‘rsiniqlari. (Sh. Rahmon, “Yurak qirralari”)

Qari II map. O‘rta Osiyoda ip, ipakdan tayyorlangan gazlamalarni, ba’zan masofani o‘lchash uchun qo‘llangan uzunlik o‘lchovi birligi: To‘qson qari bo‘zdan bo‘lgan kissasi, Shundoq qalmoq aylanadi maydonda. (“Alpomish”) [14, 248]

Qarы I umumturk. (qozoq tilida). 1. Qoldың shыntaq qosыndыsыnan ыqqa deyingi bөligi. Qanыna tartpag‘annың qarы sыnsыn dep, ol da xaldaylardың kegin quып, jog‘ын joqtap jүr-ay,tshamasы. (Jұtadilov, Tag‘dir) 2. Uыqtың astың‘ы betы, iilgen jerы. Uыqtың qarыna kүmыs pen altың‘a sug‘arылg‘an teber zerger jandardың kөz taldырg‘an nәzik өrnekteri әldenish tүste jarqырap үy ishin nurlandырып tұr. (K.Orazalin, “Kөktem”)

Qarы II Qaraqshы, kisi tonaushы, jol torushы. Bәri de jabылdы, Ұыr da, qarы da, Yetek jeңin jiынды spekulyantarы da. (B.Maylin, “Shыg‘”)

Qarы III jerg. Yydiң tөbesine salatын juan ag‘ash; belag‘ash. Jer kepeniң tөbesin kөterip tұrg‘an jalg‘ыz qarы – juan belag‘ash. (Sh.Mұrtazaev, “Qызыl jebe”)

Qarы IV kөne. Tuысqan, ru, tek. Qarыna tartpag‘annың qarы sыnsын. (Maqal) [18, 395-396]

Ayiq – ayыq, bandi – bandы, mirza – mырza so‘zlari, bozori o‘tdi – bazarы өtti, beti ochildi – beti ashылdы, ko‘zi ochildi – kөzi ashылdы singari iboralar ham shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra tillararo fonetik shakldoshlikni yuzaga keltiradi.

4. Agar so‘zlar muayyan morfologik shakldagina o‘zaro o‘xshashlik kasb etsa, “tillararo morfologik shakldoshlik” [7, 129] deyiladi. Buning mohiyati shuki, tillararo shakldosh deb qaralayotgan so‘z asos yoki negiz holatidagina o‘zaro omonimlikni saqlab turadi, ular turli so‘z turkumlariga mansubligi uchun ularga o‘sha so‘z turkumiga xos shakl yasovchi qo‘shimchalar qo‘shiladi va buning natijasida shakldoshlik yo‘qoladi. Tillararo shakldoshlarning ayni ko‘rinishi ot va sifat, ot va fe’l, sifat va fe’l, olmosh va ko‘makchi, ot va son yoki fe’l va ravish turkumlariga oid so‘zlar bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi men olmoshi qozoq tilidagi men (shıl) bog‘lovchi (ko‘makchi)si bilan morfologik shakldoshlikni yuzaga keltiradi: Men (o‘zbek tilida): So‘zlovchining o‘zini bildiradi. Menga sendan esdalik. Mendan senga nasihat. Men shıl. (qozoq tilida). Yeki biriñg‘ay mүsheni өzara baylanıstıratın ben, pen jalg‘aulıq tarıpıñ bir nұsqasы. Abaydıñ dini – 41 A.Baytұrsınұlы atındag‘ы Til bilimi institutınıñ “Tiltanım” jurnalы. 2018. №3 өzinің zamanы men ortasına, bir jag‘shnan, sırttay baj bere otırsa da, negizinde jəne de aqıldıñ, adamgershiliktің dini boladы (M.Əuezov, Shıg‘). [19, 183]

Yoki o‘zbek tilidagi ot turkumiga mansub, «ust kiyimning ikki yon etagi» ma’nosini bildiradigan bar so‘zi bilan qozoq tilidagi ravish turkumiga oid, “mavjud, yo‘q emas” ma’noli barning shakl va ma’no munosabati o‘rtasida ham morfologik shakldoshlik kuzatiladi. Mazkur so‘zlar turli turkumlarga doir bo‘lgani sababli birining qo‘shimchasi ikkinchisiga qo‘shila olmaydi. Ularning shakldoshligi leksema maqomidagina xolos, kontekstda shakldoshlikni namoyon eta olmaydi.

Xullas, tillararo leksik shakldoshlik – universal lingvistik hodisa va u kamida ikki til o‘rtasida yuzaga keladi. Tillararo leksik shakldoshlarning paydo bo‘lishi so‘z semantikasidagi o‘zgarishlar: ma’no kengayishi, ma’no torayishi va yangi ma’noning yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Har bir xalq olamni o‘ziga xos lisoniy anglagani sababli bir o‘zlashma so‘z qarindosh tillarga turli ma’nolarda o‘zlashishi

mumkin. Tillararo leksik shakldoshlikni turkiy tillar misolida o‘rganish orqali qarindosh tillarning taraqqiyot tarixi, qadimgi turkiy tilga munosabati va hozirgi holati haqida aniq xulosalarga kelinadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Til qanday rivojlanadi?
2. Til rivojining qanday omillari bor?
3. Til rivojining lisoniy va nolisoniy omillar borligi haqidagi fikringizni ayting.
4. Tillar qanday ta’sirlashadi?
5. Qarindosh va noqarindosh tillar terminlariga izoh bering.
6. Qarindosh tillar va bobo til tushunchasiga izoh bering.
7. Tillararo enantiosemiya deganda nimani tushunasiz?
8. Tillararo enantiosemiya yuzaga kelishining sabablarini aytib bering.
9. Tillararo shakldoshlik va tillararo enantiosemiyaning mohiyatini tushuntiring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акуленко В.В. О “ложных друзях переводчика”. Англо-русский и русско-английский словар “ложных друзей переводчика”. – М., 1969. – С. 3-14.
2. Балалыкина Э.А. О словах с противоположными значениями в русском и полском языках. Беитраге зур Славистик ХХВИИ Иннерслависчер унд слависч — деутсчер Спрачверглеич — Петер Ланг, Франкфурт ам Меин, 1995. – С. 211-218.
3. Гросбарт З. О русских и полских словах, близких по звучанию и разных по значению (“межъязычные омонимы”) // Материалы третего международного семинара преподавателей русского языка. – М., 1962. С.228-238.
4. Ишаев А. Шаклдош антонимларга оид этюдлар // Ўзбек тил ва адабиёти, 1967. – № 1. ¬– Б. 16.

5. Кожина М.Н., Дускаева Л.Р., Салимовский В.А. Стилистика русского языка. Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2008.
6. Курилович Ю.Р. О методах внутренней реконструксии / Новое в лингвистике. Вып. 4. – М., 1965.
7. Моисеева И.Ю., Ремизова В.Ф. Фунционалные стили: факторы образования, классификации // https://www.science-education.ru/pdf/2015/2-3/269.pdf

V. KEYSLAR BANKI

KEYSLAR BANKI

Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi. “Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” — aniq vaziyat, hodisa, “stadi” — o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Modul bo‘yicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi:

1-keys. Til va tafakkur munosabati haqida fikringizni ayting?

2-keys. Til tafakkurni belgilaydimi? Tafakkur milliyligi til milliyligimi?

3-keys. Ziddiyatning lisoniy voqelanish shakllarini aytib bering.

4-keys. Antonimiya hodisasi haqida fikringiz?

5-keys. Antisemiya haqida fikringiz?

6-keys. Ziddiyat va shakliy-ma’noviy nomuvofiqlikni tushuntiring?

7-keys. Til birliklarining shakli va ma’nosi (mazmuni) o‘rtasida nomuvofiqlikning mavjudligi lisoniy faoliyat uchun qanchalar zarur?

8-keys. Ko‘p ma’noli so‘zlarning asimmetrik tabiati haqida tushuntiring.



VI. GLOSSARIY

GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Zidlanish	So‘z yoki ibora ma’nolarining o‘zaro qarama-qarshi xarakterda bo‘lishi	The interrelation of the meanings of words or expressions
Enantiosemiya	**Bir til birligining ikki zid ma’nolarga ega bo‘lishidan iborat lisoniy hodisa**	It is a linguistic phenomenon that the unity of a language has two opposite meanings
Sinxroniya	Til bir taraqqiyot davri: masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tili davri	Language is a period of development: for example, modern Uzbek literary language
Diaxroniya	Tilning ikki taraqqiyot davri: masalan, qadimgi turkiy til va eski turkiy til; eski o‘zbek tili va hozirgi o‘zbek adabiy tili	Two stages of language development: for example, the ancient Turkic language and the old Turkic language; Old Uzbek and Modern Uzbek Literature
Lisoniy va nutqiy enantiosemiya	So‘z yoki iboraning faqat uzual ma’nolar yoki uzual va okkazional ma’nolari o‘rtasida yuzaga chiqadigan zidlanishi	The contradiction between words or expressions that arise only between the meanings or the singular and occult meanings.
Antifrazis	Ma’lum bir til birligining uzual ma’nosiga nisbatan qarama-qarshi ma’nosida namoyon bo‘lishi, qo‘llanishi. Har qanday so‘z vaziyat talabi bilan zid ma’noda qo‘llanishi mumkin	The manifestation and use of a particular language unit in the opposite sense of the term. Any word can be used in a contradictory sense to the demands of the situation
Afrazis	Ma’lum bir nutqiy vaziyatda	The use of the word (s) in a

	so‘z (ibora)ning bosh ma’nosiga nisbatan inkor ma’nosida qo‘llanishi. Bu holat ham faqat nutqiy bo‘ladi.	particular speech situation in a denial of the main meaning. This is also the only speech.
Evfemiya	Madaniy muloqot talablariga mos bo‘lmagan, qo‘pol, dag‘al so‘z va iboralar o‘rnida dag‘al bo‘lmagan ma’nodoshlarini qo‘llashdan iborat uslubiy figura	A methodical representation of the use of non-rude meanings in place of coarse, harsh words and phrases that do not meet the requirements of cultural communication
Disfemiya	Evfemiya hodisasining zidi bo‘lib, nutqda dag‘al, qo‘pol so‘z va iboralarni qo‘llashdan iborat uslubiy figura	Contrary to the euphemic phenomenon, it is a methodological figure that uses rough, coarse words and phrases in speech.
Simmetriya	Til birligining shakli va ma’nosi o‘rtasidagi mutanosiblik	Proportionality between the form and the meaning of the language unit
Asimmetriya	Til birligining shakli va ma’nosi o‘rtasidagi nomutanosiblik	The imbalance between the form and the meaning of the language unit

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрель "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябр “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5850-сон Фармони.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони

III. Maxsus adabiyotlar

9. Айтбаев Д. Шакл ва асимметрияси тадқиқига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 6. – Б. 36-41.
10. Ишаев А. Шаклдош антонимларга оид этюдлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1967. – № 1. – Б. 16.
11. Йўлдошев Б. Фразеологизмларнинг матндаги прагматик имкониятларини ўрганиш ҳақида / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. – Андижон, 2011. – Б. 12-15.
12. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари.
13. Лутфуллаева Д. Лексик ва синтактик семантика муносабати / Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари мавзуидаги VIII Республика илмий-назарий анжумани. – Тошкент, 2015. – Б. 30-33.
14. Любкин В.В. К вопросу об энантиосемии в современном английском языке // Вопросы романо-германского языкознания. – Саратов: Изд-во Саратовского ун-та, 1977. вып. 5. – С. 40-49.
15. Маҳмуд Н., Йаман Э. Туркча-ўзбекча, ўзбекча-туркча луғат. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1993. – 320 б.
16. Махмудов Н. Семантико-синтактическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс. ...д-ра. филол.наук. – Ташкент: ИЯЛ АН РУз, 1984. – 401 с.
17. Махмутова Л.Р.Отражение семантической категории противоположности в энантиосемии // Вестник Чувашского университета. Серия гуман. наук.– Чебоксары, 2009. – №3. – С. 25-26.
18. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда синтактик-семантик асимметрия. – Тошкент, 1984. – 147 б.
19. Маҳмудов Н. Зиддият ва жуфт сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти.– Тошкент, 2014. – № 5. – Б. 3-9.

20. Маҳмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2014. – 288 б.
21. Минаева Л.В. Слово в языке и речи. – М: Высшая школа, 1986.– 147 с.
22. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 287 б.
23. Москальская О.И. Проблемы системного описания синтаксиса.– М.: Высшая школа, 1981. – 171 с.
24. Муташева Г.Р. Антонимы и антонимические отношения в лексике и фразеологии кумыкского и русского языков: Дисс. … канд.филол.наук.– Махачкала: Дагестанский гос. ун-т., 2010. – 173 с.
25. Новиков Л.А. Избранные труды. Т.1. Проблемы языкового значения. – М.: Изд-во РУДН, 2001. – 676 с.
26. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Камолат-қатортол, 2000. – 172 б.
27. Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 358 б.
28. Петрова О. Г. Типы иронии в художественном тексте: концептуальная и контекстуальная ирония //Изв.Саратовского ун-та, 2011. Т.11. Серия филология. Вып. 3. – С. 25-30.
29. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг туркий қатлами. Магистрантлар учун қўлланма. – Тошкент: Университет, 2001. – 351 б.
30. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили.– Тошкент: Университет, 2006. – 437 б.
31. Саниева И., ДавыдовВ. Ирония. История вопроса/Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. – М., 2000. Вып. 12. – С. 54-69.
32. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 285 б.

33. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – 344 б.
34. Скаличка В. Асимметричный дуализм языковых единиц / Пражский лингвистических кружок. Сб. статьей. – М.: Прогресс, 1967. – С. 119-127.
35. Смоленская С.С., Давыдов М.В. Интонация как показатель энантиосемии слов и словосочетаний // Вестник Московского университета. Филологические науки, 1972. – № 3. –С. 65-71.
36. Юсуф Б. Алишер Навоий асарларида энантиосемиялар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 1. – Б. 33-39.
37. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 964 б.
38. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.– Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 134 б.
39. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – 256.

IV. Elektron ta’lim resurslari

40. http://lex.uz
41. http://ziyonet.uz
42. https://www.futurelearn.com/subjects/language-courses/linguistics
43. https://ru.coursera.org/courses?query=linguistics
44. https://www.birmingham.ac.uk/postgraduate/courses/distance/english/applied-linguistics.aspx

VIII. TAQRIZ

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI DOTSENTI Y.ODILOV TOMONIDAN TUZILGAN “SEMANTIKANING DOLZARB MUAMMOLARI” NOMLI FAN DASTURI VA O‘QUV-USLUBIY MAJMUAGA

T A Q R I Z

“Semantikaning dolzarb muammolari” moduli uchun tuzilgan o‘quv-uslubiy majmuada tinglovchilarda semasiologiyaning dolzarb muammolari, uning ziddiyatdagi tilning barcha sathlari va birliklariga aloqadorligi, ya’ni tilning har bir sathida o‘ziga xos qarama-qarshilik munosabati mavjudligi va bu borada amalga oshirilgan ishlarning aksariyati leksik sath birliklari bilan namoyon bo‘ladigan zidlikka bag‘ishlanganligi va lisoniy ziddiyatning markaziy masalasi sifatida, asosan, antonimiya kabi masalalar ochib beriladi. O‘quv fanining asosiy maqsadi tinglovchilarga ayni shu masalalar bo‘yicha nazariy ma’lumot berish va ularni til hodisalarini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida tadqiq etishga o‘rgatish bo‘yicha ko‘nikma va malakasini shakllantirish asoslari belgilangan.

Tinglovchilarga tilshunoslik va adabiyotshunoslik o‘qitishning innovatsion texnologiyalarining ilg‘or yutuqlarini, amalda tinglovchilarga o‘zbek tilshunosligida lisoniy ziddiyat masalasi antonimik va antisemik birliklarning yuzaga kelishi, o‘rganish obyekti, asosiy tushunchalari, yo‘nalishlari haqida ma’lumot berish, til umumiy rivojining, xususan, ma’no taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchlaridan eng qudratlisi dialektik ziddiyat, qarama-qarshiliklarini tahlil qilish, ziddiyat, qarama-qarshilik bilan bir qatorda til va nutq birliklarida xilma-xillik, murakkablik, ko‘ptalqinlilik kabi ma’noviy siljishlar, meyordan chekinishlar, anormal jarayonlar ham o‘rni bilan voqelanadiki, ular ham til taraqqiyoti uchun xizmat qilishini tahlil qilishda foydalanish, o‘zbek tili va adabiyot o‘qitish metodlari yordamida o‘quv jarayonini tashkil etish, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlarining maqsad, vazifalarini anglatishdan iborat.

O‘quv-uslubiy majmua “Semantikaning dolzarb muammolari” moduliga oid

asosiy masalalarning mohiyatini yoritishga yordam beradi.

Xullas, Y.Odilov tomonidan tuzilgan "Semantikaning dolzarb muammolari" nomli fan dasturi, o'quv-uslubiy majmua zamonaviy tilshunoslik hamda o'qitishning ilg'or texnologiyalari talablariga to'liq javob beradi, uni bemalol nashrga tavsiya etish mumkin.

Z.Abdirashidov **filologiya fanlari doktori**

TOSHDO‘TAU HUZURIDAGI PKQTMO TARMOQ MARKAZIDA O‘QITILADIGAN “O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI” YO‘NALISHI KURSI O‘QUV DASTURIGA TAQRIZ

“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi o‘z maqsad va vazifalariga ega, albatta. Buning ijrosi uchun esa kredit modul tizimida dasturda ko‘rsatilgan fanlarni dunyo ilm-faniga mos ravishda tashkil etish lozim bo‘ladi. Fanlararo integratsiya, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qitish va bilim olishda turli metod hamda metodologiyalarni qo‘llash – bu davr talabi sanaladi. “ Lingvodidaktika”, “Adabiyot o‘qitishni yangilash metodikasi”, “Til ta’limiga psixolingvistik yondashuv”, “Semantikaning dolzarb muammolari”, “ Jahon adabiy ta’limining ilmiy–nazariy asoslari”, “Ta’limda baholash nazariyasi va metodologiyasi” kabi fanlarning dasturga kiritilgani maqsadga muvofiq ekanini ta’kidlash zarur.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Dasturda har bir fanning qisqacha tavsifi, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar, malakaviy attestatsiya talablari, shuningidek, tinglovchilarni eng muhim adabiyotlar bilan tanishtirish uchun yangi ilmiy-nazariy adabiyotlar taqdim etilgan.

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar o‘quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajarishga yo‘naltirilgani katta ahamiyatga ega.

Amaliy mashg‘ulotlarda zamonaviy ta’lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan hamda mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanishning tavsiya etilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga har bir tavsiya qilingan fanlar kesimida nazariy, maxsus ilmiy adabiyotlarning tavsiya qilingani ham tinglovchilar ilmiy-metodologik saviyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbaalardan foydalanish yuzasidan ham zarur tavsiyalar berilgandigini alohida ta'kidlash mumkin.

Umuman olganda, mazkur dasurni ta'lim jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Filologiya fanlari doktori **S.Normamatov**

T.C.
İSTANBUL ÜNİVERSİTESİ REKTÖRLÜĞÜ
Dil Merkezi Başkanlığı

14.09.2020

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi kursi o'quv dasturiga

TAQRIZ

Qayta tayyorlash va malakani oshirish kurslarining asosiy maqsadi ta'lim sifatini yanada oshirish, ta'lim jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarni, ayniqsa noan'anaviy ta'lim metodlarini joriy etish, jahonning yetakchi oliy ta'lim dargohlarida erishilgan yutuq va tajribalarni o'zlashtirishdan iborat.

Shu ma'noda "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi uchun tayyorlangan o'quv dasturi yuqorida sanab o'tilgan maqsad-vazifalarni to'liq qamrab olgan deyish mumkin.

"Kursning maqsad va vazifalari" qismida asosiy vazifa tarzida pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish, maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning zamonaviy usullari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish kabilarning belgilanishi diqqatga sazovordir.

O'quv dasturining 1-moduli "Pedagogning professional faoliyatidagi innovatsiyalar" deb nomlangan. Ushbu modulda kredit modul tizimi va o'quv jarayonlarini tashkil etish, tinglovchilarning ilmiy va innovatson faoliyatini rivojlantirish , jumladan, pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini Scopus, Science Direek, Mendeley tizimlari asosida yanada takomillashtirish masalalariga diqqat qaratilgan. Darhaqiqat, bu talab va shartlar amalga oshirilganda, aniqrog'i pedagog-tinglovchilarda bunday malaka va ko'nikmalar shakllanganda uning dunyo pedagogikasi bilan integratsiyasi yanada oshadi, shuningdek, uning ta'limini olgan talabalarning ilmiy saviyasi risoladagidek bo'ladi.

2-modul "Pedagogning axborot va kommunikativ komponentligini rivojlantirish" deb nomlangan.

Vebinar, onlayn ma'ruza, "blended learning", "Slipped classroom" kabi zamonaviy pedtexnologiya asoslarini o'zlashtirib, ta'lim jarayonlarini tashkil etishga qaratilgan ushbu modul ham maqsad-vazifalarning aniqligi va zarurligi nuqtai nazaridan ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, har yetuk pedagog o'z fani doirasidagi muhim ma'lumotlarni ingliz tilida bilishi va fikrlarini og'zaki va yozma ravishda yetkaza olishi davr talabidir. Modulning 2-qismida ana shu masalaga ham alohida e'tibor berilgan.

3-modul "Mutaxassislik fanlari"ga ajratilgan bo'lib, bu modulda til va tafakkur munosabatlari, semantika, jahon adabiy ta'limidagi konstruktivizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlarga o'rin ajratilgan. Adabiyotshunoslik va adabiyot o'qitishga doir yangiliklarning milliy ta'limga tatbiq etilishi, shuningdek, badiiy matnni tahlil etishning interfaol usullarini o'zlashtirish hamisha ijobiy natija beradi. Mazkur modelda shu kabi masalalarning aks etganligini ijobiy yutuq sifatida alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilarni inobatga olib mazkur dasturni ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Emek Ushenmez,

Filologiya fanlari doktori, Istanbul universiteti professori